

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

**QISHLOQ XO'JALIGI TRANSPORT TIZIMLARI
kafedrasi**

Ro'yhatga olindi

**No _____
2017 y “___” _____**

**“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
“___” _____ 2017 y**

**KASB TA'LIMI METODIKASI
Fanidan**

**O'QUV-USLUBIY
MAJMUA**

NAMANGAN

Ushbu o‘quv-uslubiy majmuada 5111000-Kasb ta’limi (Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish) ta’lim yo‘nalishi DTS hamda “Kasb ta’limi metodikasi” fanining namunaviy va ishchi dasturlari asosida tuzildi

Tuzuvchi: k.o’q. S.Qo’chqorov (NamMQI)

Taqrizch: dots. P.Mahsudov (NamMTI)

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Kasb ta’limi (qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish) kafedrasining yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy kengashida ko‘rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

(__-yig‘ilish bayoni, _____ 2017 yil)

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua institutning ilmiy-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

(__-yig‘ilish bayoni, _____ 2017 yil)

MUNDARIJA

I.	FANNING SILLABUSI	4
II.	FAN O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	9
III.	NAZARIY MATERIALLAR	21
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	88
V.	KEYSLAR BANKI	120
VI.	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	122
VII.	GLOSSARIY	139
VIII	ADABIYOTLAR RO'YXATI	141

I. SILLABUS Fanning qisqacha tavsifi						
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Namangan muxandislik-qurilish instituti		I.Karimov shoh ko'chasi, 12-uy			
Kafedra:	Qishloq xo'jalig transport tizimlari		“Kasb talimi” fakulteti tarkibida			
Ta'lism sohasi va yo'nalishi:	5111000 – ta'lism sohasi		Kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish)			
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	k.o'q. Qo'chqorov Sobirjon	e-mail:	Sobirjon_2108@umail.uz			
Dars vaqt va joyi:	Dushanba, shanba	Kursning davomiyligi:	4-kurs 7-8-semestr			
Individual grafik asosida ishlash vaqtisi:	Seshanba, chorshanba va shanba kunlari 15.30 dan 17.00 gacha					
Fanga ajratilgan Soatlari	Auditoriya soatlari					
	Ma'ruza: 56	Amaliyot: 56	Tajriba:	Mustaqil ta'lif: 50		
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	oliy matematika, fizika, nazariy mexanika, chizma geometriya va muhandislik grafikasi, materiallar qarshiligi, mashina va mexanizmlar nazariyasi, metallar texnologiyasi, materialshunoslik, mashina detallari					
Fanning mazmuni						
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p><u>Fanni</u> o'qitishdan maqsad talabalarni kasbiy pedagogik tayyorgarlik ta'lism sohalarida ta'lism olayotgan bakalavrarda kasbhunar kollejlari o'quvchilarining ta'limi va tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yecha olishida hamda ularning umumtexnika, maxsus texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi darslarini olib borishiga yordam beradigan metodik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.</p> <p><u>Fanning vazifikasi</u>- talabalarda kasbiy ta'lism metodikasining terminalogik tushunish apparatini shakllantirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ta'limni tashkil qilish shakllari, maqsadi va vazifalarini loyihalash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish; - ta'lim jarayonining tashkil etilganligini tahlil qilish va uni samarali baholay bilish; - kasbiy ta'lism yo'nalishi bakalavrlarining metodik ishlari tizimi bo'yicha tushunchalarni hosil qilish jarayonida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishni loyihalay olish bo'yicha malakalarini shakllantirish. 					

Talabalar uchun talablar	hududiy o'ziga xoslikni hisobga olib ommaviy kasblarni aniqlashni va kasbni ongli ravishda tanlashni tashkil qilishi; o'quv-dasturiy xujjatlarni tuzish va ularni tahlil qilishi; o'quv materialini hamda topshiriqlarni o'quvchilarining aqliy va qabul qilish qibiliyatlariga moslab tanlashi; o'quvchilar bilimini nazorat qilishi; darslar tahlilini va metodik ishlarni tashkil qilishi; ta`lim dasturi va rejasida ishchi dastur tuzish, o'qitishning barcha tashkiliy shakllariga reja tuzishi; ta`lim uchun ajratilgan vaqtidan o'qitish va tarbiyalash ishlarida unumli foydalanishi; o'quv jarayonini boshqarishi; nazariy ta`lim texnologiyasini mustaqil loyihalashi; nazariy va amaliy ta`lim bo'yicha mashg'ulotlarni mustaqil o'tkazishi; trenajyorlarda mashg'ulot o'tkazishi; mashg'ulotlarda faol o'qitish metodlarini qo'llashi; mashg'ulotlarda fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishi; o'quvchilar bilimini reyting tizimida baholashi.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqtiga soat 15.30 dan 20.00 gacha

Fan mavzulari va unga ajratilgan saotlar taqsimoti:

Nº	Mavzu nomi	Ma`ruza	Amaliy	Mustaq il ta`lim
1.	Kasb ta`limi metodikasi fanining mazmuni, predmeti, maqsadi, vazifasi	2	2	2
2.	Kasb ta`limi metodikasi tamoyillari	4	4	4
3.	Kasb hunar ta`limining rejalshtirish. O'quv me'yoriy hujjatlari	2	2	2
4.	Ta`lim mazmuni. O'quv rejalar, dasturlari	4	4	4
5.	Kasb-hunar ta`limining tashkiliy shakllari	4	4	4
6.	Kasb ta`limi metodlari	4	4	2
7.	Kasb-hunar tizimida nazariy ta`lim metodlari	4	4	2
8.	Kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv materiallarini bayon etish metodlari	4	4	4
9.	O'quv jarayonida ta`lim vositalaridan faydalananish metodikasi	2	2	2
10.	Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalariga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash.	4	4	2
11.	Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yilgan talablar	2	2	2
12.	Amaliy ta`lim shakillari va vositalari	4	4	4

13.	Amaliy ta'lim usullari	2	2	2
14.	Darsdan hamda o'quv muassasasidan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkillashtirish	2	2	2
15.	Kasb ta`limi tizimida ishlab-chiqarish amaliyoti	2	2	2
16.	Kasb ta`limi tizimida pedagogik amaliyoti	2	2	2
17.	Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash	4	4	4
18.	Kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarga qo'yildigan metodik talablar	4	4	4
Jami		56	56	50

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari.

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma`ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlарining yuritilishi va to'liqligi	10	0-5	0-5
2	Talabalarning mustaqil ta`lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish	10	0-5	0-5
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-5	0-5
Jami ON ballari		30	0-15	0-15

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari.

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1- JN	2- JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlарining yuritilishi va	20	0-10	0-10

	holati			
2	Mustaqil ta`lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-5	0-5
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-5	0-5
	Jami JN ballari	40	0-20	0-20

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo’lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o’tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo’lib fan bo'yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo’lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	3	0-3
2	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	1	0-1
3	Jami	30	0-30

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. 63 b.
3. Q.T.Olimov, O.A.Abduquddusov, L.P.Uzoqova, M.M.Axmedjanov, D.F.Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyoti: O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2006 – 160 b.
4. Sharipov SH.S.vab.Kasbiy pedagogika(metodik qo'llanma). T.:TDPU,2006.56 b.

5. SHaripov SH.S.vab.Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma).T.:TDPU,2006.56b.
6. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar, ixtisosliklar. Tasniflagichi. -Toshkent, 2004. 48 b.
- 7.Bo'riev X.CH. Sabzavot ekinlari selektsiyasi va urug'chiligi.Toshkent,1999.
8. Atabaeva X.N.O'simlikshunoslik,Toshkent,2003.
- 9.Xoldorov O'X. Qishloq xo'jalik asoslarini o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi,1991.
- 10.Xoldorov O'.X.Qishloq xo'jalik mexnati, Toshkent,1982.
11. Mutalov K.A.,Mamedov K.A.,SHerdonov Z.A.,Qishloq xo'jalik fanlarini o'qitish metodikasining asoslari.Tyu:2004
- 12.Musaev B.S. Agrokimyo.T.:2001.
- 13.SHeraliev A.SH. Umumiylar va qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. Toshkent, CHo'lpon nashriyoti, 2006 .268 b.
- 14.SHeraliev A.Umumiylar va qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. Toshkent,"Talqin" nashriyoti,2008.
15. 16. SHeraliev A. Texnik ekinlar kasalliklari.Toshkent,2006.
- 16.SHeraliev A.,Raximov U.X. O'simliklar immuniteti, Toshkent, 2007
- 17.SHeraliev A.,O'lmasbaeva R.Qishloq xo'jalik ekinlari karantini,Toshkent,2007.179 b.
- 18.Ergashev A.E.,SHeraliev A.,X.A.Suvonov.,Ergashev T.A.Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish.Toshkent,2009

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2004. -127 b.
2. Xodjabaev A.R., Ikromov A.I. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlik mahoratini shakllantirish.- T.: 2004, -174 b.
3. Xodjabaev A.R., Kosimov SH.U. Amaliy kabiy ta`limni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi. –T., 2007, 148 b.
4. Avazboev O. Kasb ta`limi metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma. 56 b.
5. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Kasb ta`limi metodikasi fanidan kurs ishlari. Metodik qo'llanma. -T.: TDPU, 2002. 32 b.
6. Bato`shev S.YA. Professional'naya pedagogika. –M.: Professional'noe obrazovanie,1997.-511 s.
7. Simushina L.G., YAroshenko N.G. Soderjanie i metodo` obucheniya v srednih spetsial'no`x uchebno`x zavedeniyax. -M.: Vo`sshaya shkola, 1990.- 273 s.
8. Skakun V.A. Prepodavanie obhetexnicheskix i spetsial'no`x predmetov. -M.: Vo`sshaya shkola, 1998. – 256 s.
9. www.ziyonet.uz
- 10.www.pedagog.uz

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL

TA'LIM METODLARI

Ta'lrim tizimida bugungi kundagi tezkor o'zgarishlar yangi pedagogik ishlanmalar bilan bevosita bog'liq. Bu ishlanmalar o'z mohiyati, mazmuni va o'ziga xos metodikasi asosan bilish jarayonining kechishini ta'minlashga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Ushbu jarayon o'z maqsadi va vazifasiga ko'ra kelajak avlod faoliyatining mustaqil, ijodiy, tezkor, sifat va samaradorlik darajasida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, yangi, zamon talabiga javob bera oladigan pedagogik yangiliklarni ishlab chiqish, ularni bilish jarayoniga olib kirish, qo'llash kabi bir qator masalalarni har bir mintqa, ta'lrim muassasasi, fan mavzusi yechimida ijodiy hal etish bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Bu o'rinda olib kirilayotgan pedagogik yangiliklar qanchalik ta'sirchan va puxta ishlangan bo'lmasin, ularni innovatsion jarayonlarning boshqaruvisiz va to'g'ri tashkil etmasdan o'zlashtirib bo'lmasligini hisobga olish zarur.

Zamonaviy sharoitda ta'lrim jarayonining barcha imkoniyatlari ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lrim shaxsga yo'naltirilgan ta'lrim deb nomlanadi.

Bu ta'lrim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlari moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lrim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lrim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Bu turdag'i ta'lrim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdag'i ta'limi tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lrim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Pedagog ta'lrim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lrim turlaridan foydalanan ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat:

- ✓ har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- ✓ talabani hurmat qilishi;
- ✓ talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- ✓ talabaning xohish-istik, qiziqishlarini inobatga olishi;
- ✓ har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi;
- ✓ talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- ✓ har bir talaba uchun qulay ta'lrim muhitini yaratishi;
- ✓ talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;

- ✓ talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilishni o'rgatish;
- ✓ ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaslik;
- ✓ alohida talabaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik;
- ✓ bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- ✓ aniqlangan sabablar asosida talabaning sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ✓ ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaqqiyat muhiti"ni yarata olish;
- ✓ har bir talabaga ta'lim olisha muvaqqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- ✓ talabaning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish; Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.


Ayni o'rinda ta'limning innovatsion xarakterga ega ushbu shakllaridan interfaol ta'lim to'g'risida so'z yuritamiz.

Interfaol ta'lim - ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lim turi va o'qitish shakli sanaladi.

Interfaol ta'lim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.


Mohiyatiga ko'ra interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi.



Interfaol ta’lim o’qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o’qituvchi, talaba va talabalar guruhi o’rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg’in bahs-munozaralar, o’zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o’quv materiallarini o’zlashtirishda talabalarning o’zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o’qituvchi – talaba – talabalar guruhi” ning o’zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo’llab-quvvatlashlari, samimiyy munosabatda bo’lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

O’qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o’z-o’zini nazorat, o’z-o’zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishslash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o’z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo’ladi. Eng muhimmi, interfaol ta’lim texnologiya(TT)ni qo’llash orqali o’qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo’lida o’zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo’naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo’lga kiritadi.



Interfaol ta’limda suhbat quyidagi shaxslar o’rtasida tashkil etiladi.

O’quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o’yini” kabi taassurot uyg’otadi. Biroq, bunda o’qituvchining ma’lum darajada quyidagi omillarga ega bo’lishi talab qilinadi.

Interfaol TT mohiyatiga ko’ra suhbatning “talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o’qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko’nikma, malakalarning o’zlashtirilishini anglatadi.

O’qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o’z-o’zini nazorat, o’z-o’zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishslash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o’z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muofaq bo’ladi. Eng

muhimi, interfaol TTni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarining aniq ta'limiylar maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.


O'quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi.

Odatda interfaol TTga asoslangan ta'limiylar harakatlar quyidagi shakllarni tashkil etadi:


individual; juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash.

Interfaol TTni qo'llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- ✓ guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- ✓ tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- ✓ muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- ✓ guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- ✓ o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- ✓ fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;
- ✓ o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- ✓ o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- ✓ turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish.



Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillari



Interfaol ta’limning asosiy belgilari

Interfaol ta’lim muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interfaol ta’limga xos asosiy belgilarga ega.

Izoh: Refleksiya (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): kishining o’z xattiharakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg’ulari va o’yxayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash), o’z-o’zini tahlil qilishi.

Barcha ta’lim turlari kabi interfaol ta’lim ham ustuvor tamoyillarga ega:

- ✓ Mashg’ulot – ma’ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
- ✓ Guruhnинг тажрибаси педагогонинг тажрибасидан ко’п.
- ✓ Талабалар ўш, ижтимоий мавқе ва тажрибага ко’ра о’заро тенг.
- ✓ Хар бир талаба о’рганилайотган муаммо ўзасидан о’з фикрини айтish huquqiga ega.
- ✓ Mashg’ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin).
- ✓ Bildirilgan g’oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma’lumot) bo’lib xizmat qiladi

Interfaol ta’lim quyidagi imkoniyatlarga ega:

- ✓ talabalarda bilimlarni o’zlashtirishga bo’lgan qiziqishni uyg’otadi;
- ✓ ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag’batlantiradi;
- ✓ har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi;
- ✓ o’quv materialining puxta o’zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- ✓ talabalarga ko’p tomonlama ta’sir ko’rsatadi;
- ✓ talabalarda mavzular bo’yicha fikr hamda munosabatni uyg’otadi;
- ✓ talabalarda hayotiy zarur ko’nikma, malakalarni shakllantiradi;
- ✓ talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o’zgartirilishini ta’minlaydi.

Ta’limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror toptirish uchun pedagoglar quyidagi shartlarga rioya etishlari kerak:

- ✓ Ta’lim jarayoniga jamoadagi barcha o’quvchilarning to’la qamrab olinishi.

- ✓ Talabalarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish.
- ✓ Talabalar sonining ko'p bo'lmasligi (25-30 nafar o'quvchi bilan kichik guruhlarda ishslash samaralidir).
- ✓ O'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "Jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi).
- ✓ Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi.
- ✓ Talabalarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhda faol, nofaol talabalarning teng miqdorda bo'lishi)

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada talabalar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.

Bugungi kunda respublika ta'llim muassasalarida interfaol ta'llimi tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Kontseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b.

Interfaol ta'llim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi. O'qitish amaliyotida bugungi kunda keng qo'llanilayotgan interfaol metodlar to'g'risida so'z yuritamiz.

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasidir.

"INSERT" jadvali - Talaba mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'qituvchi insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishtiradi va talabalar alohida o'zлari to'ldiradilar. O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni alohida o'zлari tizimlashtiradilar, jadval ustunlariga matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq kiritadilar:

"V"- men bilgan ma'lumotlarga mos;

"-“ - men bilgan ma'lumotlarga zid;

"+" - men uchun yangi ma'lumot;

"?" - men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab etiladi.

V Men bilgan ma'lumotlarga mos	-“ - men bilgan ma'lumotlarga zid;	"+" - men uchun yangi ma'lumot;	"?" - men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash,

Insert jadvalidan mashina detallari fanining bo'limlari boshlanishdagi ma'ruzalarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday ma'ruzalarda umumuy ma'lumotlar ko'plab beriladi.

B/BX/B JADVALI- Bilaman/ Bilihni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar- "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilihni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar. Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar.

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
.....
.....


B/BX/B jadvalidan mashina detallari fanining har bir ma'ruzalarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Talaba ushbu jadval orqali bilgan ma'lumotlarini mustahkamlab oladi, o'zi xoxlagan ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Nima uchun sxemasi- muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Nima uchun sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik gurhlarda muammoni ifodalaydilar. Nima uchun so'rog'ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi.

Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari;

1. Aylana yoki to'g'ri to'rburchak shakklardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.



Bu chizmadan mashina detallari fanining xar bir bobu yakunida, amaliy mashg'ulot darslarida qo'llab, talabani ijodiy, tahliliy fikrlarini rivojlanishini va ularni bilimini baholash maqsadida foydalanish mumkin.

Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunuvchi "Qanday?" diagrammasi

Muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olish imkonini beruvchi, mantiqiy savollar zanjiri.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmlarini to'ldiradilar. Umumiyl chizmaga keltiradilar

Diagrammani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda diagrammani tuzadilar

«Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari

1. Ko'pgina hollarda muammoni yechishda "nima qilish kerak"ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni yechishda "buni qanday qilish kerak?", "qanday"asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

"Qanday" savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi:

- muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilish;
- quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan g'oyalalar tuzilmasini aniqlaydilar.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darjasini birinchi galdeg'i harakatlarning ro'yxatiga mos keladi.


2. Barcha g'oyalarni o'ylab o'tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak;

Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin;

Agarda chizmada savol uning "shoxlarida" bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiysi bo'lishi mumkin;

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda: daraxt yoki kaskad ko'rinishidami, yuqorida pastgami yoki chapdan o'nga qayd qilinishini o'zingiz hal etasiz;

Agarda siz o'zingizga to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'naliшини namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi



«Qanday?» ierarxik diagrammasi

VENNA DIAGRAMMASI - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni to'ldiradilar.

Ushbu diagrammadan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda hamda mustaqil ish topshiriqlari sifatida foydalanish mumkin.

Mavzuda keltirilgan mexanizmlarni solishtirish, taqqoslash, taxlil qilish talabalarda mexnizmlar to'g'risidagi tushunchalarni va tasavvurlarni albatta boyitadi.



Yuqorida keltirilgan metodlardan tashqari “Nilufar gul”, “Piramida” interfaol metodlaridan ham foydalanish mumkin.

Ishlab chiqilgan metodlar bo'yicha pedagogik yangiliklar quyidagi tiplar va mayda tiplarga bo'linadi:

1. Ta'lim metodining tuzilmaviy aloqadorligi bo'yicha yangiliklar maqsadlarda, vazifalarda, ta'lim va tarbiyaning mazmunida, shakllarida, usullarida, o'qitish

texnologiyalarida, o'qitish va ta'limgan vositalarida, diagnostika tizimida, nazoratda, natijalarni boshqarish va b.da.

2. Ta'limgan subektining shaxsiy yondashuviga ko'ra o'quvchi va pedagog qobiliyatlarining rivojlanishi sohasida, ularning bilim, ko'nikma va malakalari, faoliyat usullari, layoqatlilik sohasidagi rivojlanishida.

3. Pedagogik qo'llanish sohasi bo'yicha: o'quv jarayonida, o'quv kursida, ta'limgan sohasida, ta'limgan tizimi va darajasida, o'qitish tizimi darajasida, ta'limgan boshqarishda.

4. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro faoliyatidagi tiplar bo'yicha: jamoaviy o'qishda, guruhli o'qishda, alohida o'qishda, repetitorlikda, oilaviy o'qishda va boshqalarda.

5. Amalga oshirish (yo'lga qo'yish) usullari bo'yicha: rejali, tizimli, davriy, stixiyali, tasodifiy.

6. Ijtimoiy pedagogik ahamiyati bo'yicha: ma'lum tipdagi ta'limgan muassasalarida, pedagoglarning aniq kasbiy-tipologik guruhlari uchun.

7. Novatorlik tadbirlarning hajmi bo'yicha: tor doirada, ommaviy, global ko'rinishda.

8. O'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin daraja bo'yicha: korrektirovkali, modeifikatsiyalash, modernizatsiyalash, radikal, inqilobiy ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun pedagoglardagi ta'limiylar refleksiya bo'yicha innovatsiya o'qitishni diagnostika qilish tizimiga munosabat nuqtai nazaridan ham, o'quvchilar faoliyat usullarini rivojlantirish, o'quv jarayonida qo'llash ko'lami yoki usuliga ko'ra ham, sharoitga yangilik kiritish va shu kabi boshqa jihatlardan ham tavsiflanishi mumkin.

Demak, pedagogik innovatika metodologiyasi pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llashga aloqador bo'lgan asos va tuzilish to'g'risidagi bilimlar va faoliyatlar tizimidir. Pedagogik innovatika metodologiyasi sohasiga bilimlar va shunga muvofiq faoliyatlar tizimi kirib, u nazariy ta'limot uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos printsipler, qonuniyatlar, asosiy tushunchalar va ular o'rtasidagi bog'liqliklar, vositalar, qo'llash sohalari va chegaralarini o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi.

Jamiyat rivojining bugungi kundagi bosqichi bevosita, texnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnologik jarayonlar har qanday sohaga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, axborot uzatish tizimida tobora yangi o'zgarishlar va texnologiyalar rivojlanib, kuchayib bormoqda. Insonlarda axborot va kommunikatsion texnologiyalar hamda kompyuter texnologiyasidan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda va ular takomillashmoqda.

Respublikamiz ta'limgan sohasida ulardan foydalanish o'qitish sifatini oshirishga, o'quvchilarning fikrlash doirasini oshirish va kengaytirishga, ularda mustaqil o'zlashtirish faoliyatini kuchaytirish hozirgi zamonning dolzarb masalasiga aylanib goldi.

Interfaol ta'limgan – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'limgan.

Interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy

subektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

“Birikmalar” mavzusini o'qitishda interfaol ta'lif metodlari yordamida tashkil etiladi. O'qitish amaliyotida ushbu mavzu bo'yicha yuqori samara beradigan interfaol metodlar to'g'risida so'z yuritamiz.

KONTSEPTUAL JADVAL - O'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlanadiradi.

Kontseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo'yicha, xususiyatlarni ajratadilar. Alovida yoki kichik guruhlarda kontseptual jadvalni to'ldiradilar.

- **Uzunlik bo'yicha** taqqoslanadigan (fikr, nazariyalar) joylashtiriladi;

- **Yotig'i bo'yicha** taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

NOMI	Ta'riflar, toifalar, xususiyatlar va boshq.			
	Ta'rifi	Tuzilishi	Xarakat uzatishi	Qaerlarda ao'llanishi
.....
.....

Topshiriqni bajarish tartibi va reglamenti quydagicha.

- Usul ta'rifini va bajarish qadamlarining izchiligini muxokama qilish, aniq misolni tanlash – 5 daqiqa
- Taqdimot varag'ini (birgalikda yoki guruhlarda) sardor boshchiligidagi rasmilashtirish – 10 daqiqa
- O'z ishining taqdimoti bilan chiqish – 5 daqiqagacha.
- Boshqa guruhlar chiqish jarayonida ularni baholash.
- Baholash natijalarini trening rahbariga xabar qilish.

TOIFALASH JADVALI-Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiyl) alomat.

Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi.

Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlanadiradi.

Toifali sharhflashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Aqliy hujum klaster tuzish yangi o'quv materiali bilan tanishishdan so'ng, kichik guruhlarda, olingan ma'lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar.

Toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtiradilar. G'oyalarni ma'lumotlarni toifaga mos ravishda bo'ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo'lishi mumkin.

Toifalash sharhini tuzish qoidasi

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan

III. NAZARIY MATERIALLAR

KASB TA`LIMI METODIKASI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta`lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da o'rta maxsus kasb-hunar ta`limiga qo'yilgan talablar.
2. Kasb ta`limi metodikasi fanining boshqa kasbiy ta`lim fanlari bilan aloqalari.
3. Kasb ta`limi metodikasi fanining tadqiqot metodlari.
4. Kasb-hunar ta`limining tarixiy shakllangan an`analari.

O'zbekiston Respublikasining «Ta`lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da o'rta maxsus kasb-hunar ta`limiga qo'yilgan talablar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasi 1997 yil 29-avgustda “Ta`lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bu qonun va dastur ta`lim sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan bo'lib, ta`lim sohasini rivojlantirish yo'llarini belgilab bergen.

O'zbekiston Respublikasining “Ta`lim to'g'risida”gi qonunning maqsadi fuqarolarga ta`lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta`minlashga qaratilgan.

“Ta`lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, davlat ta`limi standarti va o'quv rejasi kabi me'yoriy hujjatlarda bugungi kunda yosh avlodga ta`lim-tarbiya berishga qo'yilgan talablar o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda chuqr bilimli, erkin fikrlovchi, o'zida yuksak insoniy fazilatlarni mujassam etgan barkamol shaxsn tarbiyalash birinchi galdeg'i vazifa etib belgilangan. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti, ta`lim sohasidagi xizmatlarning iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat – ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta`lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta`limning barcha turlarini, davlat ta`lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lган ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta`minlash jarayonining qatnashchisi.

Uzluksiz ta`lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta`lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta`lim dasturlarining izchilligi asosida ta`minlanadi va quyidagi ta`lim turlarini o`z ichiga oladi: maktabgacha ta`lim; umumiy o`rta ta`lim; o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi; oliy ta`lim; oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta`lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o`ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to`qqiz yillik umumiy o`rta hamda uch yillik o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta`lim dasturlaridan o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi dasturlariga izchil o`tilishini ta`minlaydi.

Umumiy o`rta ta`lim negizida o`qish muddati uch yil bo`lgan majburiy o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi uzluksiz ta`lim tizimidagi mustaqil turidir. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi yo`nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o`quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta`lim standartlariga muvofiq o`rta maxsus ta`lim beradi. O`quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, soqalashtirilgan, tabaqlashtirilgan, kasbga yo`naltirilgan ta`lim olishini ta`minlaydi.

Akademik litseylarda o`quvchilar o`zları tanlab olgan ta`lim yo`nalishi bo`yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o`rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko`nikmalarini o`zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bu ko`nikmalarni o`qishni muayyan oliy ta`lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro`yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta`lim standartlari doirasida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi beradi; o`quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko`nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo`yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolejlari jihozlanganlik darjası, pedagogik tarkibning tananganligi, o`quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta`lim muassasalarini hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o`quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Kasb ta`limi metodikasi fanining boshqa kasbiy ta`lim fanlari bilan aloqalari

«Kasb ta`limi metodikasi» fani talabalarning pedagogika, psixologiya, umumkasbiy hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko`nikmalarini amalga tadbiq etish, kasb – hunar kollejlari umumkasbiy va maxsus fanlari bo`yicha dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, ularga oid rejalahtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi, ularni tayyorlashni o`rgatuvchi fan bo`lib hisoblanadi. U o`z oldiga har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta`lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobjiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g`oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta`lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs – kasb ta`limi o`qituvchisini tayyorlash bilan bog`liq aniq maqsadni qo`yadi.

«Kasb ta`limi metodikasi» fani quyidagi vazifalarni hal etadi:

- pedagogik-psixologik bilimlarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o’qitish jarayonida tadbiq etish;
- pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish;
- kasb ta’limini o’qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini (har bir kasbga o’rgatishning mazmuni va o’ziga xosligini mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda) o’rgatish.

“Kasb ta’limi metodikasi” psixologiya bilan uzviy bog’langan. Bilish jarayoni va aqliy rivojlanish psixologiyasi o’quv ustaxonalarida turli buyumlarni texnikaviy loyihalash va modellash jarayonida o’quvchilarda texnik fikrlash hamda konstrukturlik qobiliyatini shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Psixologiya o’quvchilarning bilimlarini o’zlashtirishi, mehnat malakalari va ko’nikmalarini hosil qilishi, ularda mustaqillik va mehnatga ijodiy yondashish hissini rivojlanishirish qonuniyatlarini ochib beradi. Bu o’quv ustaxonalarida o’quv-tarbiya ishlarini to’g’ri tashkil etishda katta ahamiyatga egadir.

“Kasb ta’limi metodikasi” odam anatomiyasi va fiziologiyasi fani bilan ham uzviy bog’liqdir. Mazkur ikki fan insonning biologik mohiyatini tushunishda baza bo’lib xizmat qiladi. SHu sababli, kasb ta’limi darsida o’quv-tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil qilish uchun o’qituvchi o’quvchi organizmi o’sishi va rivojlanishining biologik qonuniyatlarini bilishi kerak. bu insonning ruhiy shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini ochib beradigan yosh fiziologiyasi va odamning oliv nerv faoliyati fiziologiyasi kursida o’rganiladi.

“Kasb ta’limi metodikasi” o’quv mehnati gigienasi bilan ham bog’liq bo’lib, u o’quv ustaxonalarida o’quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o’qitish hamda tarbiyalashning sanitariya-gigiena sharoitlarini o’rganadi. Har bir gigiena sharoiti yaratish (yorug’lik, ozodalik, ventilyatsiya), o’quvchilarning ish o’rnini to’g’ri tashkil etishga, zarur asboblardan, mehnat usullaridan foydalana bilishga o’rgatish – kasb ta’limi o’qituvchisi amalga oshirishi va hayotga tatbiq etishi lozim bo’lgan asosiy masalalardir.

Kasb ta’limi metodikasi fanining tadqiqot metodlari

Kasb ta’limi muammolariga karatilgan ilmiy izlanishlar o’tkazishdan maqsad o’qitish va o’rgatishning, samarali metodlarni ishlab chiqish va amalda qo’llash, texnik vositalarni qo’llashga doir masalalarni echishni o’rganishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o’qituvchida fanning mazmunini chuqur bilishni talab etiladi. Ko’pchilik bo’lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug’ullanadilar. Fan bo’yicha metodik ko’rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma’ruzalari bilan qatnashib, o’zlarining pedagogik mahoratlarini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo’lish mumkin:

1. O’qituvchining adabiyotlarni o’rganish va amaliy ishlar asosida muammolarni aniqlashi.

O’qituvchi adabiyotlarni o’rganish davomida quyidagilarni aniqlashi kerak.

- o’rganilayotgan muammo to’g’risida adabiyot muallifining fikr-mulohazasi;

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida usullardan farqli ravish kiritgan takliflari;
- adabiyotlarda qaysi asosiy masalalar yoritilmagani;
- muammoni echish uchun olib boriladigan izlanishlar.

Quyidagilar o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolardir:

- o'qituvchi dars jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar;
- kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

2. O'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Dalillarni taqqoslash orqali asoslangan taklif beriladi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayonida qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus usullari qo'llaniladi.

Umumilmiy usullarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va tadqiqotlar kiradi.

Ushbu usullardan tashqari kasb ta`limida maxsus empirik usullardan ham foydalaniladi.

Kasbiy pedagogikada tadqiqotning maxsus empirik usullari keng tarqalib, unda hodisa va jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan asbob-uskunalar va apparatlar ob`ektiv miqdoriy kattaliklarni olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik usullarini shartli ravishda 3 guruxga bo'lish mumkin:

1. Ish-harakatlarining natijaviy tafsilotini o'rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi);
2. Biomexanik usullar;
3. Psixofiziologik usullar.

Kasb-hunar ta`limining tarixiy shakllangan an`analari

1920 yil o'qitishning kompleks, biroz keyinroq esa loyiha tizimi paydo bo'ldi. Loyerha tizimiga binoan matematika, ximiya, biologiya va boshqa o'quv fanlariga oid bilim elementlari o'quvchilarga beriladigan mehnat topshiriqlari atrofiga guruhash boshlandi. Masalan, bog'da o'ra qazish topshirig'ini olgan o'quvchilar uni bajarish uchun qancha tuproq chiqarib tashlashni hisoblashlari (matematika), o'ra konturini belgilashlari (chizmachilik), tuproq xarakteri bilan tan olishlari (geografiya) kerak edi.

1932 yilda boshlang'ich va o'rta maktablarining o'quv dasturlari va rejimi to'g'risidagi qaroria maktablarda fan asoslarini fanli o'tish ishlandi. o'quv rejasiga boshqa o'quv fanlari bilan bir qatorda mehnat ta'limi ham mustaqil fan bo'lib kirdi. 1937 yilda maktablarda mustaqil o'quv fani sifatidagi mehnat ta'limi tugatildi. 1952 yil mehnat ta'limiga jamoatchilik e'tibori qaratildi. Maktabda politexnik ta'lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirishni zarurligi ko'rsatildi. 1954 yilda mehnat ta'limini o'rta maktab o'quv rejasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13-maydag'i 203 – qarorida umumiy o'rta ta'limning dasturlari:

- o'quvchilarning muntazam bilim olishini, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirishni, asosiy o'quv ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirishni;

• o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari, mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabatni hosil qilishni;

• milliy va umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida yuksak ma`naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashni, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakkantirishni;

• 1-9-sinflar o'quv dasturlarining akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridagi o'qitish dasturlari bilan o'zaro uzviy bog'lanishini ta'minlanishi lozim.

O'rta Osiyoda yoshlarga mehnat ta'limi berishni yo'lga qo'yilishida sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari uzoq o'tmishtga borib taqaladi.

Farobiyning insoniy fazilatlar to'risidagi ta'limotidan quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin:

• inson o'z mohiyati bilan ijtimoiydir, ya'ni jamiyatda, o'zaro munosabat, o'zaro yordam jarayonida inson bo'lib etishadi. Bu jamiyat insonlarning o'zaro birikuvi yordamida insonning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga keladi va jamiyatdan tashqarida, insonlar jamoasidan ajralgan holda, o'zaro yordamsiz o'z ehtiyojlarini qondira olmaydi.

• Inson o'zining barcha tug'ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga erishuv etuk bilish mukammallikka erishuv uchun sarf qiladi va bu yo'lida o'zini qurshagan tabiat hodisalaridan foydalanadi, ularni o'ziga xos bo'yin singdiradi, buning uchun ilm-fanni, turli hunarlarni o'rganadi.

Farobiy shuning uchun ham ta`lim-tarbiya masalalariga juda e`tibor berib, insoniy fazilatlarga erishuv, oliy maqsad va kamolotga etishuv yo'lida ta`limda, mehnat va aqliy tarbiyaga ega mas'uliyatli va muhim o'rinni ajratadi.

Al-Xorazmiy, Al Roziyarning pedagogik qarashlarida ham jamiyatning rivojlanishida ta`lim-tarbiyaning o'rni yosh avlodlarni tarbiyalashda kasb-hunar egallashning, hunarmandchilikning ijobiy ta'siri insonlarning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishlari zarurligini targ'ibot qilganlar.

IX-XII asr o'rtalarida turli fan sohalarida keng ko'lamda rivojlanish insoniyat tarixida buyuk entsiklopedik hisoblanadigan olimlar bilan bog'liqdirdi.

Ibn Sinoning ta`lim-tarbiyaga oid fikr-ulohazalari uning bizgacha etib kelgan juda ko'p asarlari orasida tarqoq holda saqlanib qolgan.

Ibn Sinoning tavsiya qilgan tarbiya va ta`limi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Aqliy tarbiya
2. Jismoniy tarbiya
3. Estetik tarbiya
4. Axloqiy tarbiya
5. Mehnat tarbiyasi (hunar o'rgatish)

Ibn Sino shuni ham alohida uqtiradiki, oila a`zolarining hammasi shug'ullanishi zarur, biror kishi sababsiz ishsiz yurmasin. Ibn Sinoning barcha jamiyat a`zolarining ishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullanishi kerakligini talab etadi. Hunarmand dehqonlarning mehnatini ulug'ladi va jamiyatga ham moddiy, ham ma`naviy zarar etkazadigan kishilarni qattiq qoralaydi.

Ibn Sino fikricha bolaga ma`lum bir kasb-hunar o'rgatish zarur. Bola kasb-hunarni ma`lum darajada o'zlashtirib bo`lgandan keyin uni o'sha paytlardan boshlab o'z kasb-hunaridan foydalanishi va mustaqil hayot kechirishni o'rgatish lozim.

Beruniy mamlakting obodonligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq bo'lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilishi va ma`rifatida deb biladi. SHuning uchun ham olim, yoshlarni ilm-ma`rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan rahimdil, mehribon, kishilarga iltifotli, xayrixoh bo'lishni najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik,adolatsizlik, jur`atsizlik, boylikka hirs qo'yish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab etadi.

XV-XVII asrlar davomida Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy kabi ulug'lar tabiiy-matematik fanlarni rivojlantirishga nihoyatda katta xizmat qilganlar.

XVI-XVIII asrlarga kelib O'rta Osiyo xalqlarini boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari fan va madaniyat sohalarida birmuncha yutuqlarga erishishga sababchi bo'ldi. Bu o'zgarishlar jamiyatning ta`lim-tarbiya sohasida ham ma`lum o'zgarishlarga olib keldi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Oqiljon SHarofiddinovlar yangi maktablar ochib, u erda ta`lim-tarbiyanı mehnat ta`limi bilan qo'shib olib borganlar.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent., SHarq, 1998. - 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta`lim to'g'risidagi qarorlari. 1-qism. Toshkent., 1998. - 106 b.
3. Davlatov K., Vorob'yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
4. Kasb ta`limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.

KASB-HUNAR TA`LIMI TAMOYILLARI

Reja:

1. Kasb - hunar ta`limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar.
2. Kasb-hunar ta`limida umumdidaktik tamoyillar.

Kasb - hunar ta`limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar.

DIDAKTIKA – grekcha didaktikos so'zidan olingen bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma`nolarini anglatadi. Didaktika bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi. Pedagogik nazariyaning ta`limotiga ko'ra didaktika va metodika bir-biri bilan uzviy bog'liq. Metodika ilmiy usullar haqidagi fandir. Bunda didaktika "nima o'qitish" va "nima uchun o'qitish" kerak degan savollar bilan shug'ullansa, metodika esa u bilan uzviy bog'liq holda "qay tarzda" va "nimalar yordamida" o'qitish masalalari bilan shug'ullanadi. Bunda amaliy usullar tizimi maxsus sohaning mazmuniga bog'liqligini hisobga olish zarur. O'qitish metodikasi –turli yo'llar va metodlar tizimi bo'lib, o'quv didaktik materiallardan foydalangan holda belgilangan

maqsadlarga erishish uchun nazariy dars jarayonida qo'llaniladigan usullar yig'indisini anglatadi. Quyida ayrim didaktik tushunchalar mazmuni keltirilgan va bu didaktik tushunchalar kasb-hunar ta'limi jarayonida qo'llaniladi. **Glossariy qismidagi tushunchalar.**

Kasb-hunar ta`limida umumdidaktik tamoyillar: onglilik va faollik, ilmiy va tizimlilik, nazariya va amaliyot birligi, ta`lim – tarbiya birligi, ko'rsatmalilik

Didaktika xususiy metodikalar bilan bog'langan holda barcha o'quv fanlari uchun umumiylar qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya'ni tarbiya bilan chambarchas bog'liq ta'lim jarayonini tashkil etishga asos bo'ladigan etakchi qoidalalar didaktik qoidalalar deyiladi. Bu o'qituvchilarning faoliyatini, o'quvchilarni bilim faoliyatini, xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalalar hisoblanadi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasi bayon etiladigan muhim qismidir. Unda ta`limning ilmiy asoslangan mazmuni o'kitishning metodlari va tashkiliy shakllari (kanday o'rgatish) beriladi.

O'kituvchi yoki usta faqat o'qitishning qonuniyatlarini bilishgina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim etakchi boshlang'ich qonuniyatlarini chuqur tushunish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta'lim tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan.

Didaktikaning asosiy tamoyillari quyidagilardir. Ta`limning quyidagi tamoyillari mavjud.

1. Ta`lim va tarbiya birligi
2. Ta`limning ilmiyligi
3. Ta`limda tizimlilik va izchillik
4. Nazariya va amaliyot birligi
5. YOsh individual xususiyatlarni hisobga olish
6. Ta`limning politexnik xususiyatga egaligi
7. Onglilik va faollik
8. Ta`limda ko'rsatmalilik
9. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi

Ta`lim va tarbiya birligi - ta'lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash sodir bo'ladi. Masalan: gazlamadan biror buyumni bichishni o'rgatishda, buyumni bichish bo'yicha bilimlar, ko'nikmalar va malakalar hosil qilish bilan birga gazlamadan tejamkorlik bilan foydalanshini o'rgatish bilan iqtisodiy tarbiya shakllanadi. YOki tikuv buyumiga moslab bezaklar tanlab, sifatli tikishni o'rgatish bilan o'quvchilarda badiiy tarbiya, tikuv mashinasida o'tirib tikayotganda tikuv mashinasiga qarash, sozlangan mashina bilan ishslash, ish kiyimiga qarash, ish joyini batartib bo'lishiga e'tibor berish orqali axloqiy tarbiya shakllanadi. Kasb ta`limi jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta`lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta`minlash juda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta`limning ilmiyligi - bu tamoyilni amalga oshirish o'quvchilarga ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, fanning eng yangi yutuqlarini hisobga olgan texnikaviy ma'lumotlarni etkazishdir. Kasb-hunar ta`limi o'qituvchisi o'quv ustaxonalaridagi ma'lumotlarda sof ilmiy terminlardan foydalanishi, fanda qabul qilingan ramziy

belgilar, formulalar, o'lchamlarni qo'llashi lozim. Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilar har xil materiallarga ishlov berish, andoza tayyorlash, modellashtirish ishlarini bajaradilar. Bunda o'quvchilarda faqat ko'nikma va malaka hosil bo'lib qolmay, balki ularda o'rganayotgan mehnat operatsiyalarining ilmiy asoslari haqida tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan: biror buyumni modellashtirish uchun o'quvchilar eng avval modellash elementlari bo'yicha ilmiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, kasb ta'limi mashg'ulotlarida ilmiy asoslarni o'quvchilarga uzviy olib borish maqsadga muvofiq. Tabiiy ilmiy qonuniyatlarga tayanadigan ma'lumotlarni bayon qilish zarur bo'lib qoladi. Masalan: o'quvchilarga mashinashunoslik elementlarini o'rgatish zaruriyati tug'iladi. Bu vaqtida "mexanizm", "mashina" tushunchalari bilan tikuvchilik jihozlari fanini uzviy bog'lab olib borish imkonini beradi.

Ta'limda tizimlilik va izchillik - tizimlilik va izchillik ta'limda ma'lum mantiqiy izchillik bo'lish zarurligini bildiradi, chunki bilimlar vorislik xarakteriga ega. Ular o'zidan oldingi materialiga asoslanadi. Bilim olishdagi tizimlilik nazariya va amaliyot bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil usullarni qo'llashni taqozo etadi. CHunonchi: a) olinayotgan bilim bilan o'quvchilarning shaxsiy tajribasi va kuzatishlarining aloqasi; b) nazariya bilan amaliyotning aloqasi (korxonalarga ekskursiya); v) turli masalalarni hal qilish, nazariy hamda amaliy xarakterdagи vazifalarni bajarish, texnologik hujjatlarni ishlab chiqarish; g) korxonalarda, qurilishlarda va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish amaliyoti.

Bilimlarni tizimli bayon qilish o'quv materialini qismlarga bo'lib o'rganish ya'ni materialni o'tilgan material bilan bog'lash, asosiyalarini ajratish, o'quvchilarni tahsil qilishga o'rgatish, o'rganilganlarni tizimga solib umumlashtirish demakdir. Bilimlarni mavzular va fanlar bo'yicha tizimga solish uchun katta-katta bo'limlar va alohida fanlar bo'yicha takrorlash, o'quvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalarini butun o'quv yili davomida muntazam ravishda hisobga olib borish zarur. Har bir o'quv fani ichidagi aloqalar tizimi bilan bir qatorda quyidagi hollarda foydalilanligidagi fanlararo aloqani ta'minlash lozim.

Material bayonidagi, malaka va ko'nikmalarni egallashdagi izchillik o'quv fani hamda o'quv jarayonining mantiqidan kelib chiqadi. Agar o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarni qat'iy izchillik assosida egallasalar ulardan oson va engil foydalana biladilar, unutganlarini qayta esga tushira oladilar. O'quvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berish jarayonida o'rganilayotganlarni tizimlashtirish ya'ni o'rganilgan operatsiyalar, ish turlari o'rtasida zaruriy aloqa o'rnatish lozim.

Bu tizimlilik va izchillik ishlab chiqarish ta'limi dasturining operatsion kompleks qurilish tizimi bilan ilgari o'zlashtirilgan operatsiyalar assosida yangi operatsiyalarini o'rganish o'quv ishlab chiqarish vazifalarni to'g'ri tanlash bilan ta'minlanadi.

Nazariya va amaliyot birligi - nazariyani amaliyot bilan bog'lab olib borish eng asosiy va etakchi tamoyildir. Kasb-hunar ta'limi jarayonida ko'pincha nazariyani amalda qo'llash uchun sharoit yaratiladni. O'quvchilar amaliy faoliyatga tayyorlash, nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Nazariy bilimga ega bo'lgandan so'ng, bilimlarni mustahkamlash laboratoriya ishi va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda davom ettiriladi. Nazariyani amaliyot bilan bog'lashning har xil shakllaridan foydalanish orqali biz o'quvchilardagi bilim sifatini oshirishga erishamiz. SHuningdek,

o'quvchilarda fan asoslariga, mehnatta, tanlagen kasbiga qiziqish, kishilar mehnatini qadrlash kabi xislatlarni orttiriladi.

YOsh individual xususiyatlarni hisobga olish - kasb ta'limi bo'yicha o'quv materialini mazmuni fan va texnik taraqqiyotini hozirgi darajasiga mos ravishda o'quvchilarga tushunarli bo'lisi kerak. Bundan tashqari, o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutish kerak.

Dars mavzulari o'quvchilarga mos va tushunarli bo'lisi uchun:

a) o'tilayotgan mavzuning ma'nosи va hajmi, amaliy mashg'ulotlari o'quvchilar tayyorgarligiga, jismoniy rivojlanganligiga va yoshiga mos bo'lisi kerak;

b) mavzular soddadan murakkablashib borishi kerak, shuningdek, o'quvchilar bilim doirasini yangiliklar bilan to'ldirib borishi zarur;

v) ayrim o'quvchilarga individual yondashish kerak, chunki o'quvchilarning ayrimlari yangi mavzuni oson tushunsa, ayrimlari qiyinchilik bilan tushunadilar;

g) ko'rgazma qurollardan to'g'ri va o'rinni foydalanish.

Ta'limining politexnik xususiyatga egaligi - nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'tishda politexnik tamoyil asosiy rolni o'ynaydi. Kollej ustaxonalaridagi kasb ta'limining mazmuni, ya'ni mashinalar, mexanizmlar, asboblarning tuzilishi, ishslash printsiplari, shuningdek, texnologik jarayonlar, mehnat usullari va amaliy mag'shulotlarning bajarish yo'llari haqidagi texnikaviy ma'lumotlar politexnik xarakter kasb etadi.

Politexnik tamoyil shu bilan ham xarakterlanadiki, o'quvchilarga mavzuga mos ravishda ishlab chiqarish sohalaridagi avtomatlar, moslamalar, ishlab chiqarish jarayonlari haqida tushunchalar berib borishni bildiradi. Masalan: tikuvchilik korxonalarida engil ko'yaklarni tikishda yoqaga ishlov berish, cho'ntak, burmalarga ishlov berish, shuningdek, issiqlik ishlovi berish; yorib dazmollash, presslash, bustab dazmollash tushunchalari o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Demak, o'qituvchi ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarni mehnat ta'limi darslari bilan bog'lab olib boradi, natijada o'qituvchi texnika va fandagi yangiliklarni o'quvchilarga etkazadi.

Onglik va faollik. O'quvchilarning onglilik va faollik tamoyilini shunday yo'lga qo'yish zaruriyatini ifoda etadiki, bunda o'quvchilar o'quv vazifalarini aniq tushunadilar. Bilimlarni faol o'zlashtirib, qo'llab, voqeа va hodisalarini mushohada etadilar, ular orasidagi muhim bog'lanishlarni ocha oladilar. O'qishga ongli munosabatlarda bo'lib, vazifalarni bajarishda mustaqil bo'ladilar. Bilim, malaka va ko'nikmalarning o'quvchilar tomonidan ongli egallanishi uchun nazariy va ishlab chiqarish ta'limining doimiy aloqasi zarur. O'quvchilar ongliligining oliy shakli nazariy materialni o'zlashtirish, sinfda ustaxona yoki laboratoriya, ishlab chiqarishda, ish vazifalarini bajarishda ko'rsatadigan ijodiy faolligidir.

Faollik - bu o'quv jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni ongli maqsadga muvofiq bajarishga intilishning namoyon bo'lismidir. O'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarni faol egallahga rag'batlantiruvchi turli usullar mavjud. O'quvchilar bilimlarni egallah bo'yicha hech qanday qiyinchiliksiz, ishtiyoq bilan ishlaydigan jarayon eng yuksak maqsad hisoblanadi. Odatda o'quvchilar o'zlarining juda qiziquvchanliklari bilan ajralib turadilar. Pedagoglar ulardagi bu xislatni qo'llab - quvvatlashlari va rivojlantirib borishlari lozim.

Ta`limda onglilik faollik bilan uzviy bog`liqdir. O`quvchilarning aktivligini oshirish o`z mehnat natijasini foydali ekanligani ongli anglash demakdir. Masalan: o`quvchini bajarayotgan ishini kollej ko`rgazma zaliga foydalanish, uni tezroq bitkazishga harakat qiladi.

Ta`limda ko`rsatmalilik - bu tamoyil o`quvchilarning mehnatga oid o`quv materiallarini o`rganilayotgan narsa va hodisalarni jonli idrok etish, o`zlashtirishni nazarda tutadi. Kasb ta`limi darslarida ishlab chiqarish korxonalariga uyushtirilgan sayohatlar, mehnat usullari, plakatlar, sxemalar, jadvallar, buyum namunalarini ko`rsatishdan, o`quv kinofil`mlari, diafil`mlarni namoyish qilishdan ko`rsatma vositasi sifatida foydalanish mumkin. Ko`rsatmalilik tushunchasiga idrok etishning ko`rish turi emas, balki eshitish, sezish turlari ham kiradi. Kasb ta`limi darslarida ko`rsatmalilikka katta ahamiyat berish kerak, ammo darsni haddan tashqari ko`rsatma qurollari bilan to`ldirib yuborish yaxshi emas, bu ba`zan foyda o`rniga zarar ham keltirishi mumkin.

Ko`rsatmalilikdan foydalanishda bir qator metodik talablarga rioya qilish zarur:

a) ko`rsatma qurollar darsning o`quv materialiga mos bo`lishi kerak;

b) barcha ko`rsatma qurollarni birdaniga namoyish qilib qo`yish va osib qo`yish shart emas, chunki bu o`quvchilar diqqatini tarqatib yuborishi mumkin;

Bilim, ko`nikma va malakalarini o`zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi. Mazkur tomonlari shunday o`quv jarayonini takozo etadiki unda o`quvchilar o`zlarining bo`lajak faoliyatları uchun zarur bo`ladigan bilim, malaka va ko`nikmalarni iloji boricha asosliroq egallaydilar: ularni xotirada qayta tiklay oladilar hamda nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. “SHarq” Toshkent., 1998 y. 64 b.
2. Azizzxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat TDPU. Toshkent., 2003y. 176 b.
3. Davlatov K., Vorob`yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. “O`qituvchi” Toshkent., 1992 y.320 b.
4. Olimov Q.T. va boshqalar Kasb ta`limi uslubiyoti “Iqtisod moliya” Toshkent., 2006 y. 192 b.
5. Ochilov M. Muallim – qalb me`mori “O`qituvchi” Toshkent., 2001 y.432 b. 6. SH.S.SHaripov, A.I.Vorob`yov, N.A.Muslimov, M.Ismoilova Kasbiy ta`lim pedagogikasi Toshkent., 2005 y. 58 b.
7. Yo`ldoshev G`J., S.A. Usmonov Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent., O`qituvchi. 2004. – 104b.

KASB-HUNAR TA`LIMINI AMALGA OSHIRISH METODLARI

Reja:

1. O'rta maxsus kasb-hunar ta`limi metodlari klassifikatsiyasi
2. Kasb-hunar ta`limining og'zaki metodlari
3. Kasb-hunar ta`limining amaliy metodlari
4. Kasb-hunar ta`limida ko'rgazmalilik metodlari to'g'risida tushuncha.
5. Ta`lim metodlarini tanlash mezonlari
6. Kasb-hunar ta`limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Ta`lim metodi deganda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat yo'llari tushuniladi. Bularning yordamida o'quvchilar bilim, malaka, ko'nikma, kasbiy mahoratlarni egallashga erishadilar, aqliy va jismoniy kuch va ijodiy qobiliyat rivojlanadi.

Pedagogikada ta`lim metodlarini sinfga va belgilashga bir xil yondashish mavjud emas. "Ta`lim metodi" tushunchasining mazmunini ochish to'g'risida bahslar davom etmokda. Ba`zi olimlar metodni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar, boshqalari o'quvchilarning tafakkuridagi ijodiy faoliylik va mustaqillik, ayrim olimlar esa o'quvchilar faoliyatida ta`limning turli bosqichlaridagi xarakteristikani muhim deb hisoblaydilar va shu kabilarni.

Og'zaki metodlarga o'quv materialining o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinishiga, hikoya, tushuntirish, suhbat o'quvchilarning texnik adabiyoti bilan mustaqil ishlashi yozma instruktsiya berish, ovoz yozuvchi televidenie kabilalar kiradi.

Materialni og'zaki bayon qilish - kasb ta`limida hikoya qilish, tushuntirish, ma`ruza, suhbat, o'quv materialini og'zaki bayon qilishning asosiy metodlari hisoblanadi.

Hikoya - o'kituvchi tomonidan o'quv materialini tartibli, mantiqiy, izchil, nisbatan kengroq bayon qilishda foydalaniladi. U puxta reja asosida tuzilishi, materialni bayon qilishda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun barcha detallari bilan tayyorlanishi lozim.

Tushuntirish - hikoyaga yaqin bo'lган ta`lim metodi hisoblanadi. Kasb ta`limida hikoya va tushuntirishdan alohida holda kam foydalaniladi. Masalalarni bayon qilishda, masalan: mashinalar, mexanizmlar tuzilishi yoki texnologik jarayonlarning borishini bayon qilishda ko'pincha hikoya va tushuntirish birga qo'shib olib boriladi. Hikoya tushuntirish muvaffaqiyatlari o'tkazilishi uchun o'qituvchi o'quvchilarning amaliy tayyorgarligini hisobga olgan holda etkaziladigan materialni qabul qila olishlarini tasavvur qilish kerak. Buning uchun o'quvchilar maxsus texnologiya, materialshunosning mavzulari bo'yicha qaysi o'quv materialini o'tganliklarini bilish muhimdir. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarni yo'llanma vaqtida savollar yordamida nimalarni eslashlarini tekshiradi va zarur bilimlarni ular xotirasida qayta tiklaydi.

Ko'rgazmali metodlar – bu ko'rsatmali kurollarni namoyish (ko'rsatish) qilish mehnat usullarini ko'rsatish; o'quvchilarning mustaqil kuzatishlari; o'quv-ishlab chiqarish ekskursiyalari.

Ko'rsatmali qurollarni namoyish qilish (ko'rsatish) metodi yordamida o'quvchilarda mehnat harakatlarining muayyan va aniq obrazi shakllanadi. Ular unga taqlid qiladilar va o'z harakatlarini qiyoslaydilar. Mazkur metodning qo'llanilishi kasb

ta`limida ko`rgazmalik tamoyilining yaqqol namunasi bo`lib hisoblanadi. Kasb ta`limi darslarida ko`rsatmali qurollarning turli xil va shakllaridan foydalanish o`qituvchining tushuntirishlarini yaxshi idrok qilish hamda o`zlashtirishlarga, malakalarning mustahkam shakllanishiga yordam beradi. Plakatlar, sxemalar, modellar, maketlarning namoyish qilish bilan bir qatorda harakatdagi ish quroli, asboblar, moslamalar xomashyolar, buyumlarning namunalari va hokazolarni ko`rsatish ham katta ahamiyatga ega.

Amaliy metodlarga mashqlar, instruktaj (yo'llanma)lar, o'quv qo'llanmalar bilan ishslash, laboratoriya tajribalari, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish kiradi.

Mashqlar – kasb-hunar ta`limi jarayonini tadqiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli (5-15 minutli) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqidir. Bu mashqlarni shartli ravishda ta`limiy mashqlar deyiladi. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar har xil buyumlar tayyorlar ekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Bunday mashqlarni tayyorgarlik mashqlari deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatov K., Vorob'yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
2. Kasb ta`limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduquodusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
3. SH.S.SHaripov, A.I.Vorob'yov, N.A.Muslimov, M.Ismoilova Kasbiy ta`lim pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
4. Tolipov O'.Q., M.Barakaev, SH.S. Sharipov Kasbiy pedagogika. – Toshkent.: 2003. – 88b.

KASB-HUNAR TA`LIMINING TASHKILIY SHAKLLARI

Reja:

1. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarning asosiy shakllari
2. Ishlab chiqarish ta`limini tashkil qilishning asosiy shakllari
3. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, o'rta maxsus kasb-hunar kollej ta`limini xo'jalik yuritishning yangi shakllarini o'qitish
4. O'rta maxsus kasb-hunar ta`limida masofaviy o'qitish
5. Ishlab chiqarish amaliyoti: maqsad va vazifalari, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish, ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish

Kasb-hunar kollej o'quvchilarining o'quv va ishlab chiqarish faoliyati turli tashkiliy shakllarda kechadi. Kasb-hunar ta`limining tashkiliy shakllari deganda o'quvishlab chiqarish faoliyati uchun o'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek o'quv mashg'ulotlarining qurilish tarkibi tushuniladi.

Kasb-hunar ta`limini u yoki bu shaklini tanlashda, o'quvchilarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va

yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko'rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog'liq.

Nazariy mashg'ulotlar davomida dastur mavzularining mazmuni yoritiladi, kasbiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifasi amalga oshiriladi.

Bundan tashqari nazariy va amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish ta`limini tashkil qilishning asosiy shakllarini ochib berish, ishlab chiqarish korxonalariga ekskurtsiya, o'rta maxsus, kasb-hunar kollej ta`limini xo'jalik yuritishning yangi shakllarni o'qitish va o'rta maxsus, kasb-hunar ta`limida masofaviy o'qitishni ishlab chiqishni, ishlab chiqarish amaliyatining maqsad va vazifalari, tashkil qilish, o'tkazish, rahbarlik qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishni, jamoaviy, guruhli, yakka tartibdagi shakllardan foydalangan holda dars ishlanmalarini tayyorlashni talab etadi. Ana shu sababli kasb-hunar ta`limining tashkiliy shakllarini ishlab chiqish va boshqarish modelini loyihalash zarur.

Kasb-hunar ta`limining tashkiliy shakllari deganda – o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun o'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek o'quv mashg'ulotlarining qurilish tarkibi tushuniladi.

Nazariy mashg'ulotlar deganda - mashg'ulotning ham jamoa, ham individual (yakka tartibda) turini o'z ichiga olgan, kasb ta`limi o'qituvchisining rahbarligida o'quv materialini faol, to'g'ri va ongli o'zlashtirilishini ko'zda tutgan o'quv-mehnat faoliyatining aniq tashkil qilinishi tushuniladi.

Amaliy laboratoriya - ishlari o'quvchilarga faqat turli xil uskunalar, asboblar, moslamalar bilan ishlashini o'rgatmay, balki o'lchovlar, kuzatishlar natijalarini ishlab chiqishni o'rganish hamda to'g'ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Kasb-hunar ta`limi darsi – o'quvchilarning barcha guruhlarini bir xil sharoitda, yagona didaktik vazifani bajarilishini ta`minlaydigan tashkiliy shaklidir (masalan, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari, o'quv- ishlab chiqarish tsexlari, o'quv xo'jaliklari va h.k.).

Ishlab chiqarish jarayoni shakllari - didaktik maqsadning aniqligi, ta`lim va tarbiya vazifalarining birligi, o'quv materialini to'g'ri tanlash, o'qitish modellarini maqsadga muvofiq tanlash, o'quvchilarning mustaqilligi, darsning tashkiliy aniqligi va o'quvchilar ishida xavfsizlikni ta`minlashni o'z ichiga oladi.

Ekskursiya – kasb-hunar ta`limi tashkil etishning shunday shakliki, u orqali o'quvchilar bevosita ishlab chiqarish sharoitida jihozlar bilan tanishib, texnologik va mehnat jarayonlarini tashkil etishni kuzatib boradi.

Masofaviy ta`lim – maxsus o'qitish vositalari yordamida o'qituvchi bilan bog'lanish, shaxsiy jadval bilan o'zi xohlagan joyda o'qishi, o'z ustida intensiv, mustaqil ishlashi lozim bo'lgan, maqsadga yo'naltirilgan bilim olish turi.

"Model" tushunchasi ilm-fanning ko'p sohalarida qo'llaniladi. Model – sxema, fizik konstruktsiyalar, belgili shakllar va formulalar ko'rinishida sun'iy hosil qilingan ob'ekt bo'lib, u tadqiq qilinayotgan ob'ektga o'xshash bo'ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini, ob'ektning elementlari orasidagi o'zaro aloqalar va munosabatlarni sodda va tushunarli tarzda aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatov K., Vorob'yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. – Toshkent., O'qituvchi, 1992.-320 b.
2. Boltaboev S.A., Abdullaeva Q.M. kasb ta'limi metodikasi. – Toshkent., TDPU, 2001.-104 b.
3. Golish L.V. Ta`lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. – Toshkent., O'MKHTRI, 2002.-44 b.
4. Skakun V.A. Ishlab chiqarish ta'limi ustozи uchun qo'llanma. – Toshkent., O'qituvchi, 1992.-208 b.
5. Baholash metodlari. / Nishonov A., Haydarov B., Nuridinov B. Va boshqalar. – Toshkent., O'MKHTRI, 2003.-156 b.

O'QUV JARAYONIDA TA`LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Reja:

1. Ko'rgazmalilik- didaktik tamoyillari asosida
2. Zamonaviy ta`lim vositalarining turlari va tavsifi
3. Ta`limda o'quv-ishlab chiqarish vositalari
4. Ta`lim vositalarining rivojlanish istiqbollari
5. Ta`lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi hamda ularidan majmuaviy foydalanish

Ta`lim vositalaridan foydalanishda ko'rgazmalilik didaktik tamoyili muhim o'rinni tutadi. O'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materialini bayon etishda didaktikaning eng muhim printsiplaridan biri — **ko'rsatmalilik** printsipidan foydalanadilar.

Didaktikada **ko'rsatmalilik** printsipi konkret bilan abstraktning birligi to'g'risidagi qoida asosida ko'rib chiqiladi. Narsa yoki hodisaning aslini yoki tasvirini idrok etish inson uchun atrofdagi borliqni, biror haqiqatni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi hamda o'rganilayotgan narsalar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida aniq tasavvurlar va abstrakt tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ko'rsatmali qo'llanmalar — o'quvchilarni o'rganiladigan ob`ektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida yaqqol (asosan ko'rish) tasavvurlar hosil qilish metodida o'qitish maqsadida ishlatiladigan vositalar. O'zlashtiriladigan bilimlar xarakteriga, o'quvchilarda mavjud bo'lган tasavvur, tushuncha, hayot va ish tajribasiga, darsning konkret vazifalariga qarab ko'rsatmali qo'llanmalar o'qitishda har xil rolni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek, o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suhbat vaqtida foydalanadigan rasm sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'pincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Natural (tabiiy) ob`ektlar. Tabiiy ob`ektlarga sirasiga jonli va jonsiz tabiat ob`ektlari kiradi, ta`lim oluvchilar ular bilan mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar. Ko'rgazmalilik - tabiiy ob`ektlarni tanlab olish yoki tabiiy ob`ektlarni o'z ichiga tarkibiy qism qilib kiritgan turli qo'llanmalarni loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablardan biri. SHu maqsadda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berish uchun kerak bo'lган ayrim tipik belgilarni

aniq ifodalashga yordam beradigan ob`ektlar ajratib olinadi. Natural ob`ektlarning qo`lyozmaligini kuchaytirish uchun turli kodlash usullari qo`llaniladi: rangli, raqamli, harfli. Tabiiy ob`ektlarni o`qitish jarayonida ular bilan ishslash uslublaridan asosiyлari kuzatish va tajriba o`tkazish hisoblanadi. Ko`rgazmali qo`llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy ob`ektlar avvalo uning jihoz va moslamalariga maxsus ishlov berish zarur.

O`quv modellari, mulyajlar, maketlar. Modellar tabiiy ob`ektlarning sun`iy ko`rinishi bo`lib, ularning muhim sifatlari, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o`quv ko`rgazmali qo`llanmalar hisoblanadn. Haqiqiy ob`skt (mikro va makro ob`ektlar) xususiyatlarini ko`rsatishda shartlilik (ramziylik)ka amal qilinadi, o`lchamni kattalashtirish yoki kengaytirish orqali ob`ekt qurilmasi sxema tarzida aks ettiriladi. Modellarning eng keng tarqalgan tipik turlari bu moddiy (predmet) modellardir. Modellar o`z hajmiga ega yoki tekis modellarga bo`linadi. Ularning oralig`ida rel`ef jadvallar joylashgan. Hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo`linishi mumkin. Hajmga ega bo`lgan modellar sirasiga mulyaj va maketlar kiradi. Mulyaj (maket)lar moddiy ob`ektlarga aynan o`xshatib yaratilgan qo`llanmalardir.

Kompozitsion - rasm va fotosuratlar;

Grafikli: (chizma, diagramma, sxema va boshqalar);

Belgili - ramziy formula, harf va so`zlar bilan ifodalanuvchi. So`nggi paytda elektrlashgan jadvallar keng qo`llanilmoqda, ya`ni, stendlar, xavfsizlikka oid texnikalar.

O`qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko`p qo`llanilayotgan vositalar - bu plakatlardir.

Ekran va ekran - tovushlik o`qitish vositalari

Real ta`lim vositalari, texnik vositalar va chop etilgan o`quv materiallari. Real ta`lim vositalariga o`qitishda qo`llaniladigan barcha real yordamchi vositalar: mashinalar, traktorlar, jihozlar, dastgohlar, tayyor mahsulotlar va hokazolar kiradi. Texnik vositalariga, proektor, kino apparat, o`quv televideniesi, videomagnitafon, komp`yuter, videofil`mlar, mul`timedia va hokazolar kiradi. Bundan tashqari sinf doskasi, doska — stend, doska — bloknot, kodoskoplar ham texnik vositalarga kiradi. CHop etilgan o`quv materiallarlarga chop etilgan o`tkazilgan barcha o`quv va ko`rgazmali materiallar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatov K., Vorob`yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O`qituvchi, 1992. - 320 b.
2. SHaripov SH.S., A.I.Vorob`yov, N.A.Muslimov, M.Ismoilova Kasbiy ta`lim pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
3. Tolipov O'.Q., M.Barakaev, SH.S. SHaripov Kasbiy pedagogika. – Toshkent.: 2003. – 88b.
4. Haydarov B., B.Nuridinov va boshqalar Ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari. – O`MKHTRI. Toshkent.: 2002.- 184b.

KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUV XONALARI, LABORATORIYALARI HAMDA O'QUV USTAXONALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA ULARNI JIHOZLASH

Reja:

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalarini tashkil qilish bo'yicha umumiy talablar, kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalaridagi ta'lim va tarbiyaning vazifalari hamda ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.
2. Kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va ularni o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash.

Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv staxonalarini tashkil qilish bo'yicha umumiy talablar, kasb-hunar ta'limi o'quv staxonalaridagi ta'lim va tarbiyaning vazifalari hamda ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.

Kasb-hunar kollejlarining ishlab chiqarish ustaxonalari to'g'risidagi Nizomga asosan:

I.Umumiy qoidalar

1.1. Kasb-hunar kollejlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Kasb-hunar kollejlari haqida»gi Nizom asosida o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari tashkil etiladi.

1.2. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalari kasb-hunar ta'limi o'quv muassasasining tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarni rejali ravishda malakali ishchilar tayyorlaydigan asosiy bo'lagidir.

1.3. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida o'quvchilar o'quv dasturi asosida mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarish korxonalarining buyurtmalarini bajarish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ishlarida o'z kasb mahoratlarini va amaliy ko'nikmalarini orttirib boradilar.

1.4. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'quv bosmaxona;
- yog'och materiallariga ishlov berish uchastkalari;
- metallga ishlov berish uchastkalari;
- korxona qoshidagi o'quv uchastkalari;
- tikuv tsexlari (atel'e);
- qishloq xo'jalik mashinalarini yig'ish uchastkalari;
- o'quv dala poligoni.

O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida o'quv jarayonini mukammal tashkil etish maqsadida, ular qoshida asboblar saqlash xonasi, xom-ashyolar uchun omborxona, ta'mirlash va tayyorlov bo'limlari, tayyor mahsulotlar uchun omborxona va boshqa yordamchi xo'jaliklar tashkil etiladi.

II. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarining faoliyati

2.1. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalaridagi amaliy mashg'ulot (ishlab chiqarish ta'limi) O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida olib boriladi.

2.2. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida ishlab chiqarish mashg'ulotlari va ishlab chiqarish faoliyati O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi tomonidan tasdiqlangan

kasb-hunar kollejlarida o'quv ishlab chiqarishni rejalashtirish, o'quv ishlab chiqarish vaqtini baholash haqidagi nizom asosida tuziladi.

2.3. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar amaldagi qoidaga asoslanib hamda shartnomalar va buyurtmachilarining takliflariga binoan jo'natiladi (tarqatiladi).

2.4. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarini saqlash uchun sarf-xarajat rejali, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

2.5. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida ishlab chiqarilgan hamma mahsulotlar, moddiy texnika vositalari, moliya-xo'jalik ishlari, byudjet tashkilotlari hisobxonalarida hisobga olish haqidagi ko'rsatmalarga asosan olib boriladi.

2.6. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarining faoliyatlarini kasb-hunar kolleji direktorlari, o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari va yuqori tashkilotlar nazorat qiladilar.

III. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarining jihozlari

3.1. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarining maydonlarining yuzasi dastgohlarning soni, shu yo'nalishdagi korxonalarning o'qish maqsadida ishlatiladigan texnologik loyiha me`yorlariga to'g'ri kelishi kerak.

3.2. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalari mehnat xavfsizligi qoidalariga javob beradigan zamonaviy jihozlar, moslamalar va asboblar bilan ta'minlanishi kerak.

3.3. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida o'rganilayotgan mutaxassisliklar bo'yicha har bir o'quvchi (o'quvchilar soniga qarab) va amaliyot o'qituvchisi uchun ish joyi bilan ta'minlanadi. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida umumiyl foydalanish uchun ishlab chiqarish dasturlari talablariga ko'ra parmalash va charxlash dastgoxlari, mexanizatsiyalashgan asboblar bilan ishslash stoli o'rnatiladi.

3.4. Amaliyot o'qituvchisining ish joyi ish stoli, ko'rgazma quollarini saqlash uchun javonlar, namoyish qurilmalari, sinf taxtasi, texnika vositalari bilan jihozlangan o'quv-metodik qo'llanma, adabiyotlar, o'quv ko'rgazma qurollari, asbob va moslamalar bilan jihozlanadi.

3.5. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida bajariladigan ishlar namunasi, sxemalar, jadvallar, mehnat xavfsizligi va texnik xizmat ko'rsatish qoidalari, yo'riqnomalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Ustaxonalarda bajariladigan ishlar mehnat xavfsizligi nizomiga asoslanib o'tkazilishi kerak.

3.6. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarini zamonaviy o'quv qurollari, jihozlar, mashinalar, asboblar va materiallar bilan ta'minlash kasb-hunar kollejlari Nizomi va tayyorlanayotgan kasblar asosida amalga oshiriladi.

3.7. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalaridagi jihozlarni o'rnatish, sanitariya-gigiena me`yorlariga rioya qilingan, mashina va piyodalar o'tishi uchun joy qoldirilgan, texnik estetika qoidalari rioya qilingan, o'quvchilarni ommaviy va yakkama-yakka o'qitishga shart-sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiriladi.

3.8. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarining jihozlari o'quv muassasasi hisobida bo'ladi.

3.9. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalaridagi jihozlariga texnik qarov va ta'mirlash o'quv muassasasi xizmatchilar yoki shartnoma asosida biron tashkilot (korxona) yordamida amalga oshiriladi.

IV. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarini boshqarish

4.1. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalari xizmatchilari soni va tarkibi viloyat O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi.

Ishlab chiqarish faoliyatining hajmiga qarab kollej o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari boshlig'i (mudiri) lavozimi kiritilishi mumkin.

Agar shtat jadvalida o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi boshlig'i (mudiri) lavozimi bo'lmasa, o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi rahbarligi kollej bosh amaliyot o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

4.2. O'quv ishlab chiqarish ustaxonasi boshlig'i (mudiri) lavozimiga kasb-hunar kolleji yo'naliishiga qarab oliy texnik ma'lumotli, 3 yil ish stajiga ega bo'lgan shaxs o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha direktor o'rribosarlari tomonidan tavsiya qilinadi va direktor buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

4.3. O'quv ishlab chiqarish ustaxonasi boshlig'i (mudiri) o'quv muassasasi ishlab chiqarish ishlari bo'yicha direktor o'rribosari va bosh amaliyot o'qituvchisining bevosita rahbarligida ishlaydi.

4.4. O'quv ishlab chiqarish ustaxonasi boshlig'i (mudiri) o'zining faoliyatini yuqori tashkilotlarning buyruqlari, yo'riqnomalari va boshqa hujjatlari, o'quv ishlab chiqarish bo'yicha reja hamda kollej direktori buyruqlari, farmoyishlari, o'quv ishlab chiqarish ishlari bo'yicha direktor o'rribosari, bosh amaliyot o'qituvchisi ko'rsatmalari va ushbu Nizom asosida amalga oshiradi.

4.5. O'quv ishlab chiqarish ustaxonasi boshlig'i (mudiri):

- bosh amaliyot o'qituvchisi bilan birgalikda o'quv ishlab chiqarish dasturi asosida ishlab chiqarish reja faoliyati loyihasini ishlab chiqib tasdiqlash uchun kollej rahbariga taqdim etadi;
- moliya, shartnoma va mehnat intizomiga rioya etgan holda ro'yxatga oladi va hisobga olishni ta'minlaydi;
- bosh amaliyot o'qituvchisi bilan birga o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi boshlig'i ishlab chiqarishni tashkil etish uchun materiallar, asboblar, texnik hujjatlar va boshqa zarur narsalar bilan o'z vaqtida ta'minlaydi, energetik, yonilg'i va xom-ashyolarni tejab foydalanishiga javob beradi;
- kasb-hunar kolleji mexanigi bilan ustaxonadagi jihozlardan to'g'ri foydalanishni va o'z vaqtida ta'mirlash ishlarini olib borishni, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni va amaliyot o'qituvchilari bilan ish joylarida xavfsizlik texnikasini ta'minlaydi;
- kasb-hunar kolleji qoshida tashkil etilgan (agar bo'lsa) nazorat-o'lchov laboratoriysi asboblari faoliyatini nazorat qiladi;
- amaliyot o'qituvchilari bilan instruktiv metodik yig'ilish o'tkazishda ishtirop etadi;
- bosh amaliyot o'qituvchisi bilan ishlab chiqarish ishlarining ro'yxatini tuzadi, korxonalardan olingan buyurtmalarni bajarishga tayyorlaydi.

4.6. O'quv ishlab chiqarish ustaxonasi boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

- o'quv ishlab chiqarish ustaxonasiga xodimlarni ishga olish, mukofotlash, intizom choralar va ishdan bo'shatish haqida kasb-hunar kolleji rahbariyatiga takliflar kiritadi;
- o'quvchilarni ishlab chiqarishdagi bilimlarini sinashda ishtirop etadi, ishchi-xizmatchilarni va o'quvchilarni mehnat xavfsizligi talabiga javob bermaydigan jihozlarda, moslamalarda, asbob va uskunalarda ishlashga ruxsat bermaydi.

4.7. O'quv ishlab chiqarish ustaxonasi xodimlariga mehnat haqi va mukofot ishlab chiqarish daromadidan to'lanadi.

Kasb-hunar ta`limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va ularni o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash

Kasb-hunar ta`limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish kasb ta`limini chorakka, yarim yilga mo'ljallab rejalashtirish va usta, o'qituvchining mashg'ulotga aniq tayyorgarlik ko'rishidan boshlanadi. O'qituvchi, usta kalen'dar mavzu rejasi va o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati asosida darsning reja va konspektini tuzadi. Darsda takrorlash uchun savollarni va fanlararo aloqalarni belgilaydi, o'quvchilar tayyorlaydigan mehnat ob'ektining namunasini hozirlaydi, bunda o'zi kasb-hunar usullarini takomillashtirish maqsadida mashq qilib oladi, asboblar va moslamalarni darsga tayyorlaydi, asbob-uskunalarning ishga yaroqli ekanligini tekshiradi, texnologiya hujjatlarini hozirlaydi va mashg'ulotni o'tkazish metodikasini o'ylab ko'radi.

Mashg'ulotning metodik tomoni mazkur mashg'ulotning tashkiliy shaklini (dars, amaliy-laboratoriya ishi, ekskursiya yoki kino darsi, o'quvchilarning ishini frontal yoki guruh tarzida tashkil qilish) aniqlab olishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi, usta mazkur o'quv materialini o'rganish vaqtida kasb ta`limining qaysi metodlaridan (og'zaki bayon qilish, suhbat, mehnat usullarini amaliy tarzda ko'rsatish, bilimlarni muammoli bayon etish va hokazolar) foydalanish maqsadga muvofiqligini aniqlab oladi, o'quvchilar ilgari o'zlashtirgan umumiy ta`lim fanlari (fizika, ximiya, matematika, chizmachilik va hokazolar) bo'yicha olgan bilimlaridan qaysilari kasb ta`limi darsida ish berishini, oldingi mavzuni qanday qilib mustahkamlash, bunda o'quvchilarning e'tiborini nimalarga jalb qilish kerakligini aniqlab oladi.

O'qituvchi, usta o'rganilayotgan operatsiya bo'yicha mashqlar o'tkazish metodikasi, asbob va moslamalardan maqsadga muvofiq foydalanishini puxta o'ylab olishi lozim. O'qituvchi, usta mehnat usullarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni osonlik bilan aniqlash va ularga barham berish choralarini ko'rish imkonini beradigan nazorat tizimini ham ishlab chiqishi zarur. Topshiriqni mustaqil bajarish jarayonida o'qituvchi, usta o'quvchilarning ishini diqqat bilan kuzatib borishi lozim, chunki mashg'ulotning bu elementi unga o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarini aniqlashdagina yordam berib qolmasdan, shu bilan birga bu xatolar orqali o'zining ishidagi ayrim kamchiliklarni ham ko'rishga yordam beradi. O'quvchilarning topshiriqni mustaqil bajarish davri ham mashg'ulotning juda muhim elementi hisoblanadiki, bu vaqtida har bir o'quvchining olgan bilimlaridan amalda foydalana olish, konstruktorlik-texnologik vazifalarini hal qilishda ijodiy va bilish faoliyatining darajasi, qiyinchiliklarni mustaqil enga olish, do'stlik, o'zaro yordam tuyg'usi va boshqa fazilatlar qaror topadi.

Kasb ta`limi mashg'ulotining so'nggi elementi yakunlovchi instruktaj(yo'llanma)dir. Ayrim o'qituvchilar bu yo'llanmaga ba'zan etarli e'tibor bermaydilar, ayrim hollarda esa uni butunlay inkor qiladilar. Mashg'ulotning yakunlovchi bosqichida o'quvchilarning har biri o'zi olgan bahoni bilishi uchun va ana shu baho orqali o'zining erishgan mvaffaqiyatlarini, yo'l qo'ygan kamchiliklarni ko'rishi, bu kamchiliklarga olib kelgan sabablarini bilishi va ularni tuzatish yo'llari hamda usullarini aniq tasavvur qilishi uchun o'qituvchi, usta ular bajargan ishlarni har tomonlama tahlil qilib berishi lozim. SHunday qilib, o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish, ularni o'tkazishning to'g'ri metodikasini qo'llanish o'quvchilarning texnikaviy bilimlarini, kasbiy ko'nikma va malakalarini muvaffaqiyatl

egallashlari uchun imkon yaratadi.

O'quvchilarning ish o'rnnini rejalashtirishni tashkil etish va jihozlash, o'quv ustaxonalarini tashkil etish hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyati xususiyatlari, tabiiyki turli kasblar uchun turlichadir. Ammo umuman o'quv ustaxonalari uchun xos bo'lган bir qator umumiy talablarni ajratib ko'rsatish mumkin. O'quv ustaxonalarida quyidagi talablarga javob berishi kerak: ustaxonalarning me'yoriy o'rnatilishi, joylashtirilishi va ishslash uchun sharoitlarga (maydon, binoning qavati, balandligi, texnologik oqimni hisobga olgan holda rejalashtirish va hokazo) mehnat xavfsizligi, sanitariya va gigiena talablariga muvofiq bo'lishi (yong'in va portlash xavfi bo'lган bilimlarni, shuningdek chang va gaz chiqaradigan bo'linmalarni asosiy binolardan ajratish, ko'tarma transport qurilmalarning yong'in paytida chiqish yo'llari va o't o'chirish vositalarning mavjudligi, me'yoriy va sun`iy yoritgichlar shamollatish qurilmalarning mavjudligi, binoda me'yoriy ish haroratining ta'minlashi va hokazo). Bu talablarning me'yoriylari tegishli me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgan bo'lib, turli tarmoqlar uchun turlichadir, ishlab chiqarish estetikasi talablarga - binoning rangi va bo'yoq turlari (shifti oq, devorlari och sariq panellari och yashil, derazalari oq rangli bo'lishi), bezaklar va mebel' g'ilofi hamda devorlardagi bezaklar uslubining uyg'unligi pol va derazalarni yaxshilab tozalash imkoniyatini mavjudligi va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatov K., Vorob'yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Kasb-hunar kollejlari haqida»gi Nizom. Toshkent, 2005 yil

O'QUV USTAXONALARIDA DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Reja:

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriya o'quv ustaxonalarini tashkil qilishning umumiy asoslari
2. O'quv ustaxonalarida o'qitish vazifalari va ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar
3. O'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari
4. O'qituvchi va o'quvchilarning o'quv ustaxonasidagi ish o'rni, asbob uskunalar, moslamalar ularni saqlash va unga qo'yiladigan talablar
5. Kasb-hunar ta`limini rejalashtirishning umumiy masalalari, kasb-hunar ta`limini rejalashtiruvchi hujjatlar, o'quv texnologik hujjatlar, taqvim mavzu reja, dars rejasi

Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriya o'quv ustaxonalarini tashkil qilishning umumiy asoslari

Kasb-hunar kollejlari o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari tegishli tikuvchilik ixtisosiga oid kiyim tikishdagi o'ziga xos ishlar va texnologik jarayonlarning ko'pgina qismini tashkil etish va xuddi o'ziday aks ettirish imkonini beradi.

Yangi o'quv ustaxonalarini loyihalayotganda o'quv guruhalardan alohida, lekin ular o'rtasida issiq o'tish yo'li bor binolar qurish nazarda tutiladi. Ustaxonalarni

loyihalashtirshn yakka tartibda va ommaviy tarzda kiyim uchun tayanch korxonadagi kiyim tikish sharoitiga mumkin qadar yaqinlashtirilgan bo'lishi kerak.

O'quv tikuvchilik ustaxonalari quyidagi o'quv va ishlab chiqarish-texnika maqsadlariga mos bo'lishi kerak: malaka xarakteristikasiga muvofiq ishlab chiqarish ta`limi dasturini birin-ketin va to'liq egallashni ta`minlash, kasb maxorati asoslarini yalpi va yakka tartibda o'rgatish imkoniyatini yaratish. Ustaxona xonasi keng (bir kishiga kamida 14 m² to'g'ri keladigan), shiplari baland (kamida 3,25 m), havo almashuvi yaxshi, harorati me'yorda (qishda kamida 16°S, yozda 20°S dan ortmaydigan), yaxshi yoritilgan, uskunalar qulay joylashgan, o'tish yo'llari etarlicha keng, usta bilan o'quvchilarning ish o'rirlari qulay joyda, kerakli rang berilgan, mehnat xavfsizligi me'yorlariga javob beradigan bo'lishi kerak.

Ko'makchi xizmat joylari (o'quv atel'elari, kiydirib ko'rish joyi, bichiqchilik xonasi, omborxonalar, katta usta, texnolog, mexanik va h. k. larning xonalari) ular bilan o'kuv ustaxonalarining aloqa qilishi qulay bo'ladigan qilib joylashtirilishi kerak.

O'quv ustaxonalarida o'qitish vazifalari va ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar

O'quvchilarning kasb-hunar ta`limi asoslarini tizimli eng qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida kasb-hunar kollejlarida o'quv xonalarini va boshqa ishlab chiqarish ob`ektlari tashkil etiladi. Ularning eng muhim pedagogik ishlarni ta`lim-tarbiya vazifalarini hal qilishga to'la-to'kis bo'ysindirishdan iboratdir. Kasb-hunar kollejlarning o'quv ustaxonalari bir qancha vazifalarni: kasb-hunar ta`limining xilma-xil tashkiliy shakllari va metodlaridan foydalanish; texnikaviy ma'lumotlarni ma'lum qilish; tadqiqotchilik xarakteridagi ishlarni amalga oshirish; kasb-hunar ko'nikmalari hamda malakalarini tarkib toptirish; texnikaviy bilimlarni, mehnat usullarini va bajarilayotgan amaliy topshiriqlarning sifatini tekshirish; o'quvchilarda estetik didni va mustaqil ishslash malakalarini tarkib toptirishhamda konstrukturlik-texnologik xarakterdagи ijodiy vazifalarni hal qilish uchun kasb madaniyati malakalarini tarbiyalash; yuksak mehnat intizomiga va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratishi lozim.

YUqoridagi vazifalarga amal qilib, kasb-hunar kollejlarining o'quv ustaxonalari quyidagi asosiy sanitariya-gigiena va tashkiliy metodik talablarga javob berishi lozim:

1. Ustaxonalar uchun mo'ljallangan bino o'quv-pedagogika, sanitariya-gigiena va ishlab chiqarish, texnik talablarini qondirishi kerak.
2. O'quv ustaxonalarining jihozlanishi texnikaning hozirgi darajasiga, yuksak kasb madaniyatiga muvofiq kelishi hamda ularga kasb-hunar ta`limi dasturining barcha mavzularini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.
3. O'qituvchining o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan o'quv ishlab chiqarish ishlari uchun ham zveno tarzidagi ishlar uchun ham shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.
4. Har bir o'quvchi uchun mustaqil ish joyi ajratilgan bo'lib, u tegishli asbob-uskunalar, moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi zarur.
5. O'qituvchi uchun namunaviy ish joyi ajratilgan bo'lib, u tegishli asbob-uskunalar, moslamalar bilan jihozlanishi va pol ustidan 250-300 mm balandlikda bo'lishi kerak.
6. Ustaxonalarda o'quvchilarning qulay va xavf-xatarsiz mehnat qilishi uchun eng

qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

7. O'quv ustaxonalar hajmdor yassi ko'rsatma qo'llanmalar bilan, shuningdek, ta`limning texnikaviy vositalari bilan jihozlangan bo'lisi zarur.
8. YOrdamchi xizmatxonalar (asboblar saqlanadigan xona va omborxonalar) o'quv ustaxonalariga yaqinroq joylashgan bo'lisi kerak.
9. Ustaxonalarda o'quvchilarning diqqatini ishdan chalg'ituvchi va mehnat jarayonini buzuvchi shovqinga va tashqi ovozlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

O'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari

Kasb-hunar ta`limining moddiy bazasini tubdan yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur.

O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, 70-90 m² ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatlari alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta`lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun kollejning asosiy binosidan bir oz nariroqda quriladi.

O'quv ustaxonalar materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblar va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarining poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun`iy shamollatiladigan bo'lisi me'yorda tabiiy va sun`iy yoritilgan ish o'rni bo'lisi, havo temperaturasi qishda 14-16⁰S, yoz davrida esa 20⁰S dan oshmasligi kerak. YOritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan shipi oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. YOrqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi ob'ektlar bilan ustaxonanining umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lismi ta'minlaydi.

Ustaxonlardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, eng to'g'ri kasb-hunar usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi chorralarga, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalar asbob-uskunalar bilan to'ldirilib yubormasligi kerak. Tikuv mashinalar va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan me'yorlar darajasida bo'lisi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarning oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lisi kerak.

Ustaxonada qo'l yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigienik talablariga rioya qilgan holda shart-sharot yaratilgan bo'lisi kerak.

Ustaxonalarining maydonidan oqilona foydalanish, ularning toza bo'lisi, asbob-uskunalarining to'g'ri turishi, estetika talablariga rioya qilish va namunali tartib – bularning hammasi o'quvchilarni intizomlilik va davlat mulkini ehtiyyot qilish ruhida tarbiyalash uchun katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchi va o'quvchilarning o'quv ustaxonasidagi ish o'rni, asbob uskunalar, moslamalar ularni saqlash va unga qo'yiladigan talablar

Tikuvchilik ustaxonalarining tashkil etilishi va rejorashtirilishi, turli uskunalar miqdori, xonaning sathi engil sanoat va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari uchun

qanday ixtisosdagi (erkaklar va o'g'il bolalar kostyumi, erkaklar va o'g'il bolalar pal'tosi, ayollar va qizlar kostyumi, ayollar va qizlar pal'tosi, ayollar va qizlar ko'ylagi va h. k. tikadigan) tikuvchilar tayyorlanishiga bog'liq bo'ladi.

Qo'l mehnatining ulushi kamroq bo'lgan, ishlab chiqarish ixtisoslashtiriladigan ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or shakllari zamonaviy uskunalar joriy etiladigan ommaviy tarzda kiyim tikuvchi korxonalar uchun ishchilar tayyorlash kasb-hunar kollejlarida o'quv ustaxonalarini hisoblab chiqishni va ularni joylashtirishni fabrikalarning ishlab chiqarish tsexlari qiyofasiga va turlariga yaqinlashtiradi, lekin bunda o'quv maqsadlarini ham - masalan, mashq ishlarini o'rganish, ixtisos egallash, mehnat taqsimoti masalalarini o'rganish va h. k. davrlardagi maqsadlar ham hisobga olinadi.

O'quv ustaxonalari sathini guruhdagi o'quvchilar sonidan va bitta ishlovchi o'quvchiga ixtisosiga muvofiq maydon me'yordan (engil kiyim uchun $4-5 \text{ m}^2$, ust kiyim uchun $5-5,5 \text{ m}^2$), shuningdek ishlab chiqarish ustasining $5,5-7 \text{ m}^2$ ga teng ish o'rnidan kelib chiqib aniqlanadi:

$$S_{\text{ust}} q (S_o \cdot n) Q S_{\text{u.o.}}$$

bu erda S_{ust} - o'quv ustaxonasi maydoni, S_o - bitta o'quvchiga kerakli maydon me`yori; n - guruhdagi o'quvchilar soni; $S_{\text{u.o.}}$ - usta ish o'mining maydoni.

O'quv ustaxonasidagi texnologik uskunalar miqdori tikuvchilik ixtisosiga, guruhdagi o'quvchilar soniga, ta'lim jarayonining qanday tashkil etilishiga bog'liq.

O'quv ustaxonalarida o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatishni tashkil qilish usullari

O'quv ustaxonalarida o'quvchilarga darsda o'rgatiladigan o'quv materiali maqsad va mazmuniga qarab: ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish, kompleks ishlarini bajarish, o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Kasb-hunar ta'limi darsini o'tish quyidagicha shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi: o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv ishlab chiqarish ishlari muntazam ravishda o'qituvchini rahbarligida o'tkaziladi; o'qituvchi mashg'ulotlar paytida butun guruhnini ko'rib turishi kerak; texnologik jarayon o'quv ishlab chiqarish ishlaringin maqsad va vazifalariga bo'ysundirilishi lozim.

Frontal ish shakllari uchun o'quvchilarning ish o'rnlari bir xil bo'lgani ma'qul; o'qituvchi uchun maxsus uyushtirilgan ish o'rmini hozirlashga harakat qilish zarur; ustaxona, uchastka, jihozlar o'qitish maqsadlariga mos bo'lishi lozim; jihozlar, asbob-uskunalar va moslamalar ta'limning frontal bo'lishiga erishish imkonini berishi kerak;

kompleks-operatsion tizim asosida ta'lim berish uchun o'quv ishlab chiqarish ishlaringin o'quv davrlariga moslab maxsus tanlab olish zarur;

o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida zamonaviy, yuksak darajadagi mahsuldor jihozlar asbob-uskunalar va moslamalar bo'lishi lozim.

Asosiy operatsiyalarni bajarish bo'yicha egallagan ko'nikmalar o'quvchilar tomonidan boshlang'ich malaka ishlaringin bajarishlari bilan mustahkamlangan taqdirdagina boshlang'ich operatsion va kompleks davrlarda ishlab chiqarish ta'limining dars tizimi to'liq amalga oshirildi.

Ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish darsi (mashg'ulot)ning strukturasi

Kirish instruktajlari ishlab chiqarish ta`limi dasturining mavzusi, mavzuchasi yoki bo`limini o`rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi o`quvchilarni o`quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, brak va xatolarning oldini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishiga erishishdir.

Ta`lim berish paytida instruktsion (yo`l-yo`riq) xaritalidan foydalanish tavsiya etiladi. Instruktsion (yo`l-yo`riq) xaritalidan foydalanish o`quvchilarga:

- mehnat qilish usullarini o`rganish borasidagi ishni ancha mustaqil, binobarin, faol ishga aylantirish;
- guruhdagi o`quvchilarning faoliyatidan qat`iy nazar o`quvchining tayyorgarligi, shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlariga qarab materialni o`rganish sur`atlarini tanlab olish;
- umuman ishni yoki uning tugallangan qismini o`zicha tasavvur etish (bu materialni ancha tushunib o`zlashtirishga asoslanadi);
- butun ta`lim olish davri jarayonida zarurat tug'ilgan paytlarda instruktsion-texnologik materialning istalgan qismiga qaytish;
- kasb-hunar kollejida ishlab chiqarish ta`limi samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Joriy instruktaj berish o`quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish paytida o`quvchilarning faoliyatiga rahbarlik qilishdir. Joriy yo`l-yo`riq berishning asosiy shakli har bir o`quvchiga individual tarzda yo`l-yo`riq berishdir. Agar guruhdagi o`quvchilarning anchagina qismi bir xil xatoga yo`l qo`ysa, bir xil ish usullarini bilmasa, qo'shimcha jamoaviy instruktaj (yo'llanma) berish zarur.

YAkuniy instruktaj berish paytida o`qituvchi ko`pincha kompleks baholar qo'yadilar (nazariya masalalari va ilgari o`rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnila belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish me`yorlanmsa, belgilangan me`yorda bajarishi), bunday baholar ijobjiy natijalar beradi. Bunda o`quvchilarning o`quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishga qiziqishlari ancha ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatov K., Vorob'yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
2. SH.S.SHaripov, A.I.Vorob'yov, N.A.Muslimov, M.Ismoilova Kasbiy ta`lim pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
3. Pankratova V.A. Tikuvchilikdan ishlab chiqarish ta`limi asoslari.- Toshkent., "O'qituvchi" 1997 y. 250 b.
4. Skakun V.A. Ishlab chiqarish ta`limi ustozи uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 208b.

KASB-HUNAR TA`LIMINI REJALASHTIRISHNING UMUMIY MASALALARI. O'QUV - ISHLAB CHIQARISH ISHLARINI ME`YORLASHTIRISH

Me`yorlashtirish maqsadlari va metodlari, o'quvchilar ishiga vaqt me`yorini belgilash, shogirdlik vaqt me`yorini belgilash, me`yorlashga qo'yiladigan talablar.

Me`yorlash ishlab chiqarish ta`limi jarayoni uchun faqat texnik jihatdagina emas, balki pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Me`yorlashning texnikaviy (hisob bilan) metodida faqat berilgan ishni bajarish uchun sarflangan vaqt aniqlanadi.

O'quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashning pedagogik ahamiyati shundaki, o'qituvchi o'quvchilardan har bir topshiriqni belgilangan vaqt me`yorida bajarishlarini talab qilar ekan, ularni mehnatning yuqori unumdar usullarini egallashga undaydi, maqsadga erishishda qat'iyilikni tarbiyalaydi, ijodiy qobiliyatni o'stiradi. Tajriba ko'rsatishicha, o'quv ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashga etarlicha baho bermaslik o'quvchilar mehnatining unumdarligini pasaytiradi, davr talablaridan orqada qolishga sabab bo'ladi.

O'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlash quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

Ishlab chiqarish ilg'orlarining ish metodlari va usullarini o'quvchilar tomonidan asta-sekinlik bilan egallashga yordam berishni; o'quvchilarga vaqt faktorlarini qadrlashga o'rgatish va shu orqali o'qitishning oxiriga kelib korxonalarda shunga muvofiq kasb va malaka darajasidagi ishchilar uchun belgilangan me`yorni egallashlarini ta`minlashni;

ishlab chiqarish ta`limini to'g'ri rejalashtirish va mavjud jihozlardan to'g'ri foydalanish uchun boshlang'ich ma'lumotlarni aniqlashni;

o'quvchilarning belgilangan me`yorini bajarish ko'rsatkichlari asosida ularning ishlab chiqarish ta`limi bo'yicha o'zlashtirishlarini oqilona baholashga yordam berishni;

kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar ishini texnik me`yorlash, ishlab chiqarish imkoniyatlari, texnologik jarayonga muvofiq ish rejimlari va ishlab chiqarish ilg'or tajribalarini hisobga olib o'tkaziladi. Tashkiliy-texnikaviy va boshqa xarakterdagи kamchiliklar natijasidagi yo'qotishlar vaqt me`yoriga kirmaydi.

SHogirdlik vaqt me`yorni to'g'ri aniqlash va qo'llash o'quvchilarda rejalashtirish va o'z faoliyatlaricha nazorat qilish malakalarining vujudga kelishiga, kasb mahoratining mukammallahib borishiga, umuman kasbiy-texnikaviy tayyorgarlik sifatining yaxshilanishiga ta`sir qiladi.

Me`yorlash metodlari. O'quvchilarga ishlab chiqarish ta`limi berishda ikki asosiy davrni: operatsion va kompleks davrni ajratib ko'rsatish mumkin. Operatsion davrda dastlabki malakalar shakllansa, kompleks davrda ular mukammallahadi va mustahkamlanadi.

Operatsion davr o'qituvchi o'quvchilarga mazkur mehnat operatsiyasini tashkil etuvchi ayrim harakat va usullarni to'g'ri hamda maqsadga muvofiqroq bajarishga o'rgatadi. Bu davrda o'quvchilarga vaqt me`yori (yoki mahsulot tayyorlash me`yori) haqida gapishtirish salbiy natijalar berishi mumkin, chunki buning oqibatida ularning e'tibori ishning sifat tomoniga emas, balki miqdor ko'rsatkichlariga qarab yo'llanishi mumkin. SHuning uchun ham o'quvchilar asosiy ish usullarini, ya'ni mehnat

operatsiyalarini o'rganayotganlarida ularga me'yor haqida hech narsa gapirilmaydi. Ular faqat ma'lum ishlarning bajarilishi uchun tashkil etiladigan o'quv jarayonini rejalashtirish maqsadlarigagina xizmat qiladi. O'quvchilar bajaradigan kompleks ishlar me'yoranadi va vaqt me'yori o'quvchilarga ma'lum qilinadi.

SHogirdlik vaqt me'yорини belgilash uchun avval hisob (texnikaviy) vaqt me'yori aniqlanadi. Hisob (texnikaviy) metodi orqali vaqt me'yорining quyidagi tarkibiy qismlari sarflanadigan vaqt miqdori aniqlanadi: operativ vaqt, ish joyiga qarash vaqt, dam olish tanaffuslari va tabiiy zarurat uchun sarflanadigan vaqt tayyorgarlik va yakunlash vaqt.

Operativ vaqt bu berilgan topshiriq (operatsiya)ni bajarilishiga sarf qilinadigan vaqt bo'lagidir. Operatsion vaqt asosiy (texnologik) va yordamchi qismlarga bo'linadi.

Asosiy (texnologik) vaqt deb, ishlov berilayotgan detalning geometrik va shakl o'lchamini (asbob-uskuna yoki tikuvchilik ishlari) o'zgartirishga yoki mahsulot qismlarining o'zaro joylashuvini (yig'uv ishlari) o'zgartirish uchun sarflanadigan vaqtga aytildi.

Asosiy (texnologik) vaqt quyidagicha bo'lishi mumkin: qo'lida, agar detal' hech qanday mexanizm qo'llanmay, ishchi tomonidan ishlansa, masalan, tikuvchilik ishlari (qo'lida qavish, qirqish va hokazo).

YOrdamchi vaqt deb, ishchining detallarni o'rnatish va olish, tikuv mashinasini ishlatish hamda to'xtatish, uzatishni ularash yoki uzish, detallarni o'lchash va boshqalar uchun sarflanadigan vaqtga aytildi.

Ish joyiga xizmat qilish vaqt - kun bo'yи ish joyiga qarash uchun sarflanadigan vaqtadir. Bunga smena almashtirishga hamda asboblarni charxlash, mashinani ish jarayonida sozlash va yo'lga solish, qirindini yig'ishtirish, jihozlarni moylash va tozalash, asboblarni yig'ish va joyiga qo'yish uchun sarflanadigan vaqt kiradi.

Dam olish tanaffuslari vaqt ma'lum yuk aylanmasi va ish sur'ati oshirilgan jismoniy toliqtiradigan og'ir ishlarni bajarilishi uchun ketgan vaqt me'yoriga qo'shiladi. Qolgan paytlarda dam olish vaqt me'yoriga kiritilmaydi.

Tayyorgarlik-yakunlash vaqt - bu ishchining mazkur ishga tayyorlanish va uni yakunlanishiga aloqador harakatlarni amalga oshirishi: texnika hujjatlar, asbob hamda moslamalarni olish va topshirish; chizmalar bilan tanishish va bajarilayotgan ish bo'yicha instruktaj olish; jihozlarni sozlash; ish joyini tayyorlash; asbob va moslamalarni o'rnatish va olish; ishni topshirish kabilarga sarflanadigan vaqtadir. Tayyorgarlik-yakunlash vaqt-bu ishchi ishning boshlanishi va yakunida berilgan detal' partiyasi ustida sarflaydigan vaqt; uning davomiyligi detal'larning soniga bog'liq emas.

Donali vaqt deb, bitta mahsulotni tayyorlash uchun sarflanadigan vaqtga aytildi. Unga asosan (texnologik): yordamchi; ish joyiga xizmat qilish; dam olish uchun tanaffus vaqtлари kiradi.

Detal' (mahsulotlar) partiyasi yoki bitta detalni tayyorlash uchun zarur bo'lган vaqt me'yori quyidagi formula bo'yicha chiqariladi.

$$T_{par} \geq T_{dona} Z Q t_{t-ya} (\text{min}),$$

$$T_{par} \geq t_{asos} t_{yor} Q t_x Q t_d Q \frac{t_{m-\alpha}}{Z} (\text{min})$$

bunda- T_{par} har bir partiya uchun vaqt me`yori: T -dona-donali vaqt me`yori: Z -partiyadagi detallar soni: t_{t-ya} -detal' partiyasini tayyorlash-yakunlash vaqt; t_{asos} -asosiy (texnologik) vaqt; t -yordamchi vaqt; t_x -ish joyiga xizmat ko`rsatish vaqt; t -dam olish vaqt.

Bir partiya detallar (yoki bitta mahsulot) uchun vaqt me`yorini minutlarda aniqlab bir soat va bir smenadagi ishlab chiqarish me`yorini quyidagi formulaga ko`ra topish mumkin:

$$I_v q \frac{60}{T_{dona}} \text{ (soat)} \quad I_v q \frac{360}{T_{dona}} \text{ (6 soatda)}$$

Bunda I_v -ishlab chiqarish me`yori (bir soat yoki smenada): T_{dona} -donali vaqt me`yori.

Ishlab chiqarish me`yori – vaqt birligida (soat, smenada) ishlab chiqarilishi lozim bo`lgan mahsulotlar miqdori birligining natural (t , kg , m , $dona$) ifodasıdir.

Korxonalarining buyurtmasi bo`yicha zavod ishlab chiqarish texnologiyasiga mos o`quv-ishlab chiqarish ishlari hisoblash (texnik) me`yori sifatida korxonalarda qo`llaniladigan me`yorlar ishlatiladi. Korxonalarda ishlab chiqilgan me`yorlari yo`q bo`lgan o`quv-ishlab chiqarish ishlari hamda korxona texnologiyasidan sezilarli farq qiluvchi texnologiya (yirik seriyali va ko`plab ishlab chiqarish o`rniga kichik seriyali va donalab ishlab chiqarish) bo`yicha bajariladigan o`quv-ishlab chiqarish ishlarini o`quv yurtlari me`yorlash instruktsiyasida berilgan me`yorlar jadvalidan foydalanib, hisobot me`yorlarini mustaqil belgilaydi.

Umumguruhaviy instruktaji, ish o`rnini tayyorlash va yig`ishtirish, dam olish uchun tanaffuslar hamda yakunlash instruktajlariga ajratilgan vaqtlar ishlab chiqarish me`yorini belgilash uchun o`quv-ishlab chiqarish vaqtida qo`shilmaydi.

Misollar keltiramiz. O`quv kuni - 6 soat yoki 360 minut. Ishning bajarish uchun belgilangan vaqt 60 minut, bunda o`quv- ishlab chiqarish vaqt 300 minut bo`ladi. Demak, o`quv me`yori har bir mahsulot uchun aytaylik 120 minut bo`lganda o`quvchining kundalik ishlab chiqarish me`yoriga ega bo`lamiz.

Belgilangan (o`quv yoki ishlab chiqarish) me`yorning haqiqiy bajarilishi o`qituvchi tomonidan foiz hisobga olinadi va o`quvchilarnig ish vaqtidagi hisoblariga qayd etiladi. Berilgan vaqt me`yoriga nisbatan haqiqiy bajarilgan ishning foizi quyidagi formulalar bo`yicha hisoblanadi:

$$N_{ber.me`yor} \\ N_{haqiqiy} q ----- 100 \\ V_{haqiqiy}$$

M i s o 1. Agar N berilgan q 12 soat - berilgan me`yor, mahsulot tayyorlash uchun ketgan haqiqiy vaqt V_{vaqt} q8 soat bo`lsa, unda $N_{haqiqiy} q \frac{12}{8} \cdot 100 = 150(\%)$ bo`ladi.

SHogirdlik vaqt me`yorini belgilash. O'qitishning ma'lum o'quvchilarning o'quv ishlarini bajarish me`yorlari, korxonalarda ishlayotgan malakali ishchilar me`yordan farq qiladi.

Korxonadagi me`yorni hisoblashda ishchida zaruriy malaka va ishlab chiqarish tajribasi mavjud deb nazarda tutiladi. O'quvchilar esa ta`limning boshlang'ich davrida talab qilinadigan malakalarga butunlay yoki etaricha ega bo'lmaydilar, ularning ishlab chiqarish tajribalari juda cheklangan bo'ladi. SHu sabablarga ko'ra o'quvchilar ishni malakali ishchilar uchun qabul qilingan texnik me`yorlar bo'yicha bajara olmaydilar.

O'quvchilarda uzoq vaqt davomida zo'r berib ishlashni talab qiluvchi qator ishlarni bajarish sharoitlari uchun etarli jismoniy moslashganlikning yo'qligini ham hisobga olish lozim. Bundan tashqari, o'quvchilar o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida instruktaj olish uchun ham vaqt sarflaydilar. SHu tufayli har bir kasb bo'yicha tuzatish koeffitsientlarining yagona shkalasi kiritilgan.

Malakali ishchining hisoblash (texnik) me`yordan shogirdlik me`yoriga o'tishida tuzatish koeffitsientining shkalasi tajribada sinalgan, kasb-hunar kollejlarida jamlangan materiallar asosida o'qitishning har bir oyiga mos qilib tuziladi. Unda ta`lim davridan tashqari o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quvishlab chiqarish ishlarining murakkablik darjasini hisobga olinadi. SHkala o'quvchilarning malaka darajalarini asta-sekin oshirishni va o'quvchilar o'quv-ishlab chiqarish ishlarini birinchi o'quv yilining oxiriga kelib 1-2 razryad, ikkinchi o'quv yilining oxiriga kelib 2-3 razryad me`yorlariga muvofiq bajarishlarini nazarda tutib tuzilgan.

SHogirdlik vaqt me`yori quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$T_{sh} q(T_{dona} Q \frac{T_{t-ya}}{Z}) K \text{ yoki } T_{sh} qTK,$$

Bunda T_{sh} - shogirdlik vaqt me`yori, minut; T_{dona} -donali vaqt me`yori, minut (bir topshiriqni tayyorlash uchun sarflanadigan vaqt); T_{t-ya} -tayyorlash yakunlash vaqt, min; T -texnik (hisoblash) vaqt me`yori, minut; Z -partiyadagi detallar soni; K -me`yorlash bo'yicha instruktsiyadagi jadvaldan olingan tuzatish koeffitsientiga muvofiq.

Vaqt me`yorini belgilash katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchilar o'z mehnatlarini to'g'ri tashkil qilishga va unumli mehnat qilishga harakat qiladilar. SHu bilan birga vaqt me`yorini belgilash o'quvchilardan ko'proq mahsulot olishni nazarda tutmaydi. Asosiy e'tibor mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish, tejamkorlikni, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga intilishni tarbiyalashga qaratiladi.

O'quv ishlari me`yorlashni tatbiq qilar ekan, ishlab chiqarish ta`limi o'qituvchisi o'quvchilar tomonidan me`yorning bajarilishini qat'iy hisobga olib borishi va ana shu asosda ularning har birida mehnat unumdarligini asta-sekin oshirib borish choralarini ko'rishi zarur.

Reja:

1. O'qituvchi ta`lim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida avtoritar, demokratik, liberal boshqarish faoliyati.
- 2 O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va bo'sh vaqtlarini boshqarish.. Kasb-hunar ta`limi o'quv ustasining hisob va hisoboti

O'qituvchi ta`lim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida avtoritar, demokratik, liberal boshqarish faoliyati

Pedagogik munosabatlar jarayonini tahlil qilish unda ikkita qo'shimcha tizimlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- O'qituvchini ijodiy faoliyatga tayyorlash.
- O'qituvchilar bilan bevosita munosabatlar davomidagi ijodiy faoliyati.

Pedagogik munosabat pedagogik faoliyat tarkibida ishtirok etadi.

Munosabatning kommunikativ turi ma'lumotlar almashish, bir-biriga ta`sir ko'rsatish, boshqaning xulqiga ta`sir ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Kommunikativ jarayonning vositalari nutq, imo-ishoralar, mimika, pantomimika, ovoz ohangi, to'xtalishlar, «ko'z orqali bog'lanish» tizimlari hisoblanadi. Munosabatning interaktiv turi o'zaro aloqalar umumiyligi strategiyasini ko'zda tutadi. Munosabatning pertseptiv turi boshqa odam obrazini tashkillashtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda asosiy mexanizmlar quyidagilardan iborat:

Tenglashtirish - ushbu odamni ma'lum bo'lgan unga o'xshashiga o'xshatish.

Refleksiya - idrok etish obe`ktini boshqa odamlar qanday qabul qilishlarini anglab etish.

Mazmuni maqsadlari va vositalariga ko'ra munosabat bir necha turga ajratiladi. Ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- moddiy (faoliyat predmetlari va mahsulotlari bilan almashish)
- kognetiv (bilimlari bilan almashish)
- konditsion (psixik va fiziologik holatlari bilan almashish)
- sabablilik (istiklari, maqsadlari, qiziqishlari, talablari bilan almashish)
- faoliyatatlilik (harakatlari, ish bajarishlari, mahoratlari, ko'nikmalari bilan almashish)

Vositalari bo'yicha munosabat quyidagicha bo'lishi mumkin: bevosita; bilvosita; to'g'ridan-to'g'ri; taalluqli (bog'lanish) aloqa va masofalilik; dialogik va monologik; ommaviy va shaxslararo.

Mutaxassislik-pedagogik munosabat bosqichlari quyidagicha:

- o'quvchi bilan bo'ladigan munosabatni pedagog tomonidan ishlab chiqilishi (taxmin qilish bosqichi)
 - auditoriya bilan bevosita munosabatlarni tashkil etish (munosabatning boshlang'ich davri)
 - pedagogik jarayon paytida munosabatlarni boshqarish
 - amalga oshirilgan munosabatlarni tahlil qilish va keyingi faoliyat uchun yangi munosabat tizimini tuzib chiqish.

Modellashtirish bosqichi - bu o'zaro aloqalar kommunikativ tuzilmani o'ziga xos rejalashtirish deb hisoblanadi.

Bu tuzilma pedagogika masalalariga, vujudga kelgan vaziyatga pedagog individualligiga, o'quvchilar xususiyatlariga mos tuziladi.

Bevosita munosabatlarni tashkil etish. Bu bosqichda tashabbusni pedagog o'z qo'liga oladi. SHu maqsadda bo'lajak munosabatlar sharoitida mo'ljallar amalga oshiriladi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Pedagogning o'quvchilar bilan munosabatlari o'z usulini anglab etishi.

- Uning o'quvchilar aniq bir jamoasi bilan munosabatlari tajribasini xayolan qayta tiklash, esga olish.

YAngi kommunikativ sharoitlarda munosabatlar usulini aniqlash. Munosabatlarni boshqarish - qo'llanilayotgan ta'sir ko'rsatish usullarini kommunikativ ta'minlashdan iborat bo'ladi. Munosabatlarni boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- munosabat modelini aniqlashtirish
- munosabatlar sharoitini va tuzilishini aniqlash
- bevosita munosabatlarni amalga oshirish.

Pedagogik munosabatlarning borishi va natijalarini tahlil qilish kommunikativ masalalarining echilishi yakuniy bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichning asosiy vazifasi tashxis tuzatish hisoblanadi.

Pedagogning ijtimoiy vaziyati pedagogik munosabat usulida aks ettiriladi.

Pedagogik munosabatlarni turlarga ajratish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- avtoritar usul
- demokratik usul
- liberal usul

Munosabatning avtoritar usuli o'quvchilar faoliyatni bo'yicha hamma masalalarni pedagogning bir o'zi hal qilishidan iborat bo'ladi. Demokratik yoki hamkorlik usulida o'kituvchi o'quvchilarning o'zaro aloqalarida sub`ektning rolini oshirishga, umumiy ishni bajarishga hammani jalg etishga e'tibor qaratadi. Bu usulning xususiyati - bir-birini tushunish va bir-birini o'ylash hisoblanadi.

Munosabatning liberal' (beparvolik, e'tiborga olmaslik) usulida o'kituvchi o'quvchilar faoliyatiga kamroq aralashishga intilishi bilan ifodalanadi.

Beparvolik munosabat usuli aralashmaslik taktikasiga amal qiladi, e'tiborsizlik va qiziqtomaslikni ifoda etadi. Munosabatlarning usuliga quyidagilar kiradi:

Pedagogik munosabatning do'stona iltifotlariga asoslangan usuli.

Munosabatlar - masala

Munosabat - qo'rqtish

Munosabat - hazillashish.

Pedagogik munosabatlarning jarayonida empatiya - hamdardlik katta aqamiyatga ega bo'ladi.

Empatiya pedagogik masalalarni muvaffaqiyatli hal etish va pedagogik maqsadga muvofiq pedagoglar qamda o'kituvchilar o'zaro munosabatlarini o'rnatishga yordam beradi.

SHunday qilib, pedagogik munosabat ijodiyoti alohida turidan iborat bo'ladi, ma'lumotlar etkazish mahoratida, o'quvchilar holatini tushunish, munosabat bo'yicha sherigiga ta'sir ko'rsatish san'atida, o'zining psixik holatini boshqarishda o'z ifodasini topadi.

O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va bo'sh vaqtlarini boshqarish

Bilim, ko'nikma va malakalar sifati eng avval ularning puxtaligi va ongliligi bilan xarakterlanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning puxtaligiga ishonch hosil qilish uchun ularni faqat o'zlashtirilayotgan paytda emas, balki o'quvchilarning keyingi faoliyatlarida ham tekshirish kerak.

Ta`lim jarayonida o'quvchilarni tizimli va rejali nazorat qilish katta ahamiyatga ega. Kasb-hunar ta`limi darslarida olinadigan bilim, ko'nikma va malakalarning sifati ko'p jihatdan ularning "ixchamligi", ya`ni ularni o'quvchilar yangi mehnatning sharoitlarida qanchalik qulay olishlariga bog'liq. Masalan, o'quvchilar tikuvchilik darslarida olgan bilim va malakalaridan foydalanib tikuvchilik mashinalari(overlog, to'g'ri va har xil chok tikadigan, zigzag, tugma qaviydigan, petlya tikadigan va h.k.)da mustaqil ifodalash topshirig'ini qo'yish mumkin. Politexnik ta`lim vazifalaridan kelib chiqib, o'quvchilar bunday topshiriqlarni bajarishga tayyorlangan bo'lishi kerak.

O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda mustaqil kuzatish bo'yicha o'quvchilar amaliy ish bajarayotganda ular vaqt me`yorini ob`ektiv belgilash maqsadida o'z mehnat faoliyatini o'zi kuzatishiga oid beriladigan topshiriqlarni ko'rsatish mumkin.

Boshqacha so'z bilan aytganda, o'quvchilar har yili yoki bir necha yil davomida takrorlanib turadigan eng tipik va muntazam ish turlarini bajarishda o'z faoliyatları yuzasidan o'zları xronometraj (vaqt o'lchami) o'tkazishlari mumkin.

Xronometraj jarayonida har bir o'quvchi sekundomer yordamida har qanday buyumni tayyorlashda har bir mehnat operatsiyasiga sarflanadigan umumiyl vaqt me`yorini xronokartaga qayd etadi. Bunday kuzatish davomli (chorak, yarim yil) bo'ladi. Bu mehnatni me`yorlashni o'rganish ma`nosida o'quvchilarning o'zları uchun ham, o'quv ustaxonasi uchun ham qimmatli bo'lib bundan tashqari tayyorlanadigan mahsulot uchun o'quvchilarga ob`ektiv vaqt me`yorini belgilashda birinchi navbatda, kasb-hunar ta`limining tashkiliy tomonlarini yaxshilashga yordam beradi.

Kasb-hunar kollej o'quvchilarini bo'sh vaqtlarini boshqarishda darsdan tashqari ishlari ya`ni mustaqil ta`lim olish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlari bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- loyihamalar va amaliy topshiriqlarni bajarish;
- diplom ishiga tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagи mavjud muammolarning echimlarini topish;
- maket, model' va namunalar yaratish;
- hisoblashlar va grafik ishlarni bajarish;
- berilgan mavzu bo'yicha komp'yuterlardan kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va referat tayyorlash;
- elektron darsliklardan foydalanib, topshiriqlarni bajarish.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin. O'quv dasturlarida o'quvchi mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Har bir fan bo'yicha o'quvchining mustaqil ishiga rahbarlik qilish o'qituvchining shaxsiy ish rejasida qayd etiladi.

O'quvchi mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedra yoki bo'limda tuzilib mudirlari tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

O'quvchining mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari guruh jurnalida qayd etilib boriladi. O'quvchi mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchining mustaqil ishi, muayyan fan o'quv dasturida ajratilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi bo'yicha o'quvchining umumiy bahosiga kiritiladi. O'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha olgan baholari guruh baholash oynasida yoritib boriladi.

O'quvchining mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli bo'lim yoki kafedra tomonidan belgilanadi va kasb-hunar kolleji ilmiy pedagogik kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari o'quvchilarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida o'quvchilarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda guruhlarda, bo'lim yig'ilishlari va kollej ilmiy pedagogik kengashida muhokama etib boriladi.

O'quvchining mustaqil ishi bo'yicha bajargan ishlari (hisobot, referat, hisoblashlar va h.k.) ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

O'quvchilarning yuqori darajada baholangan mustaqil ishlari ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Kasb-hunar kollejlarida mustaqil ishlarni zamon talablar asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun kollej rahbariyati va o'qituvchilar yaxshi pedagog va kasb-hunar sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish kerak:

- o'quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, usul va vositalarini takomillashtirish;
- ta`lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta`minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta`lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Mustaqil ishlarda ishtirok etish kasb-hunar kollejlaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi. Kasb-hunar kollejlaridagi mustaqil ishlarning mazmuni o'rta maxsus kasb-hunar ta`limi markazi tomonidan tasdiqlangan mustaqil ishlar to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - TDPU, Toshkent., 2003 y.176 bet.
2. Kasb ta`limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.

3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun me`yoriy-huquqiy hujjatlar to`plami.
(O'MKHT markazining 2005 yil 17 avgustdagи 192-sonli buyrug'iga 5-ilova)
Toshkent., 2005 y. 32 bet.

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA KASB TA`LIMI O'QITUVCHISI VA O'QUV USTASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Reja:

1. Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining malaka tavsifnomasi.
2. Kasb-hunar ta`limi o'quvchisining funktsional vazifalari
3. Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining huquq va burchlari
4. Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar
5. O'quv rejalarini va dasturlarning bajarishini hisobga olish, o'quvchilarning o'zlashtirishini, davomatini va xulq – atvorini hisobga olish, kasb-hunar ta`limi o'quv ustasining hisoboti

Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining malaka tavsifnomasi

Kasb-hunar ta`limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'p jihatdan kasb ta`limi o'qituvchilari va o'quv ustasining layoqatlariga bog'liqdir. Ishlab chiqarish ta`limi jarayonida kasbiy pedagogik ko'nikma va malakalar tizimi yaratiladi, o'quvchilar kerakli ishlab chiqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo'ladilar. SHuning uchun kasb-hunar kollejlari kasb ta`limi o'qituvchilari va o'quv ustalari ishlab chiqarish jarayonining va o'z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tasavvur etish lozim. Hozirda kasb-hunar ta`limi tizimiga har yili maxsus pedagogika ma`lumotiga va ta`lim-tarbiya ish tajribasiga ega bo'limgan yangi muhandis pedagoglar, ya`ni korxonalarning malakali ishchilari, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalarining bitiruvchilari kelib qo'shilmoqda. Kasb-hunar ta`limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan muhandis-pedagoglar mutaxassislik malakasiga hamda pedagogik malakaga ega bo'lishi lozim.

Mutaxassislik malakasi deb, kasb ta`limi o'qituvchilari va o'quv ustaning maxsus soha bo'yicha ko'nikma va malakalari nazarda tutiladi. Ularning malakalarining ikkinchi qismi "Kasbiy pedagogika" bilim sohasiga tegishli bo'lib, pedagogik malakalarini o'z ichiga oladi. CHunki o'quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta`lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog'langan. Bu esa ulardan psixologiya, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo'yicha ham malakalarga ega bo'lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda kasb ta`limi o'qituvchilari va o'quv ustalarida shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo'lishi talab etiladi.

SHaxsiy layoqatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'zini tutishi, shaxsiy ijodkorlik, mas`uliyatlilik va boshqalar. Ijtimoiy layoqatlarga tashkilotchilik qobiliyati, o'quvchilar bilan munosabat, jamoa bilan munosabat kiradi. Bundan tashqari o'qituvchi va o'quv ustalar rahbarlik qobiliyatlariga ham ega bo'lishlari lozim. CHunki kasb ta`limi o'qituvchilari va o'quv ustalar faqat o'quv ishlab chiqarish faoliyatini bajaribgina qolmay, balki guruhlarga rahbarlik qiladilar.

Oliy va o'rta maxsus ta`lim Vazirligi tomonidan 2001 yil 16 noyabrda tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarining rahbar, pedagog va

muhandis-pedagog xodimlariga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida"gi Nizomda o'qituvchining va kasbiy ta'lim o'qituvchisining lavozim majburiyatlari aniq bayon qilingan.

Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining funksional vazifalari

Kasb ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, to'garak mashg'ulotlarni tashkil qilish;
- o'quvchilarni bilim sifati, o'zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- o'quvchilarni fan olimpiiadalariga tayyorlash;
- o'quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llash;
- muntazam ravishda malakasini oshirish.

Bilishi zarur:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlarni;
- o'qitadigan fanning o'quv reja, dastur va darsliklarning mazmunini;
- davlatning ichki va tashqi siyosatini, ta'lim va yoshlar to'g'risida hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni;
- mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini;
- o'smirlarning yosh va maxsus psixologiyasini, pedagogikani, o'smirlar rivojlanishi-ning asosiy qonuniyatlarini;
- pedagogik, ilmiy-metodik va tashkiliy boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan hajmda umumnazariy fanlar asoalarini;
- pedagogik tsikl fanlarini;
- yosh fiziologiyasi va o'quvchilar gigienasini;
- informatika va elektron hisoblash texnikasi asoslarini;
- o'quvchilarning turli xil jamoalarini shakllantirish va boshqarish yo'llarini;
- o'quv xonalar va yordamchi xonalarni jihozlashga qo'yilgan talablarni;
- ta'lim vositalarini va ularning didaktik imkoniyatlarini;
- ta'limni va pedagogik fan taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini va istiqbolini;
- mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va huquq asoslarini.

Kasb ta'limi o'qituvchilari bundan tashqari mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyalarini, iqtisod asoslari, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi kerak.

Malaka talablari

Oliy toifali o'qituvchi – fan doktori, nomzodi ish stajiga talab qo'yilmaydi, pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo'yicha magistr; pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 1-toifali o'qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim;

1-toifali o'qituvchi – pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo'yicha magistr, pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 2-toifali o'qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim;

2-toifali o'qituvchi - pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis o'qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga (magistr ish stajiga talab qo'yilmaydi) ega bo'lishi lozim;

o'qituvchi - pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, ish stajiga talab qo'yilmaydi.

Rejalashtirish bo'yicha vazifalar:

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- Rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.
- Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar asosida ta'limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalahtirish;
- o'quv reja va dasturlar asosida kalendar' mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta'limni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o'quvchilarining qobiliyatları va bilimlarini baholash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo'limlarida o'quvchilarini o'qitish joylarini rejalahtirish;
- qo'yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o'tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalahtirish;
- o'quv ustaxonasida o'qitish uchun etarli sharoitlarni tayyorlash;
- o'quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

Amalga oshirish bo'yicha vazifalar:

- o'quvchilarini o'quv amaliyoti xonalari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarini amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga jalg etish;
- texnika xavfsizligi bo'yicha va amaliy topshiriqlar, mashqlarga taalluqli yo'l-yo'riqlar hamda ish o'rnida o'quv suhbatlar o'tkazish;
- uskunalar bilan ishslash yoki ishlab chiqarish va ta'mirlash ishlariga taalluqli namoyishlar o'tkazish;
- an`anaviy yoki noan`anaviy usullarga asoslangan amaliy mashqlarni o'tkazish.

Baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar O'quvchilarining amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;

- o'quvchilarining o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o'quvchilarining xulqini baholash;
- ta'limning mavjud sharoitlarining sifatini baholash;
- rejalahtirish va tashkillashtirish bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o'quv-didaktik materialarning sifatini baholash;

- o'zi bergen yo'l-yo'riq va namoyishlarni o'zi baholash;
- berilgan topshiriqlarning sifatini o'zi baholash.

Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasining huquq va burchlari

O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik rolini o'ynaydi. Kasb-hunar ta`limida vaqtning asosiy 80 % ini o'quvchilar ning mustaqil amaliy ishlarida o'qituvchining roli katta, hamma narsa o'qituvchi tomonidan oldindan puxta o'ylansa va yaxshi rivojlantirilsa, o'quvchilar mustaqil ishlay oladilar. Bu esa kasb-hunar ta`limi o'qituvchisining keng bilimdonligi, puxta amaliy tayyorgarligi, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. SHuning uchun mustaqil O'zbekistonning kasb-hunar kollejlaridagi kasb-hunar ta`limi o'qituvchilari va o'quv ustalari:

1. YUksak axloqiy fazilatlarga, o'z kasbiga oid tegishli ma'lumot va kasbiy tayyorgarligiga ega bo'lgan qobiliyatli bo'lishi;
2. Milliy madaniyat va qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni yaxshi bilishi va diniy ilmlardan ham xabardor bo'lishi;
3. YUqori metodik, psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi;
4. erkin va ijobiy fikrlay oladigan talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i kerak.

Kasb ta`limi o'qituvchisi va o'quv ustasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi zamonaviy pedagogga qo'yiladigan talablar majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning ushbu majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy (fundamental) talablar quyidagilardan iborat:

- ta`lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta`minlovchi shaxsiyat fazilatlari;
- ta`lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Ta`lim berish mahorati pedagogga qo'yiladigan talablar va o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish shartlari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi bosh (dominant) omillar bilan aniqlanadi:

- qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayoni muhiti;
- pedagogning psixologik-pedagogik tayyorgarligi;
- fanni chuqur bilishi, kasbiy omilkorlik va eruditsiya;
- yangi pedagogik va komp'yuter texnologiyalarni bilish;
- kasbiy axborot manbalari sifatida chet tillarni bilish;
- yangi uslub va bilim manbasi sifatida ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
- uzluksiz ta`lim tizimining me`yoriy hujjalarni bilish;
- o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishning moddiy texnika bazasi bilan bog'liq bo'lgan axborot bazasi va resurslari.

Tarbiyalay olish mahorati pedagogning yuksak madaniyat va ma`naviyat saviyasiga, shaxsiy axloqi, vatanparvarlik va burch (hislar)iga asoslanadi. Ta`lim oluvchilarda dunyo yaxlitligi yuksak madaniyat, ma`naviyat va dunyoviy tafakkurni shakllantirish uchun pedagogning o'zi gumanitar va gumanistik ruhida tarbiyalangan hamda o'quv-tarbiya ishini tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi shart.

Pedagogning o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta`minlovchi ***shaxsiyat fazilatlariga*** quyidagilar kiradi: talabchanlik vaadolatlilik, halollik va xayrixohlik, kirishimlilik va hazil-mutoyiba hissi. Ushbu fazilatlar pedagogning ta`lim oluvchilar oldida obro'sini belgilaydi. Pedagogning shaxsiy fazilatlari uning ta`lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta`sir ko'rsatadi.

Ta`lim oluvchilarning bilimlarini xolisona ***baholash va nazorat qilish*** mahorati psixologik-pedagogik jihatdan pedagogning ta`lim berish va tarbiyalay olish mahorati bilan uzviy bog'liq. Pedagog ta`lim oluvchilarning bilimlarini ob`ektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting nazoratda qo'llay olishi, hamda standart testlarni ishlab chiqa olish va qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchining mehnati va mahorati. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakter bilan bog'liq. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, shirin so'zlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsa, odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo'lsagina tez obro' hurmatga ega bo'ladi.

O'qituvchining faoliyati va kasbiy imidji. O'qituvchining pedagogik faoliyati har bir boshqa faoliyat kabi o'zining aniq uslubiga ega bo'ladi. Faoliyat uslubi-to'la ma'noda usullar, holatlar, shakllarning turg'un tizimidan iborat bo'lib, u har xil sharoitlarda ham mavjud bo'ladi. U faoliyat tuzilishiga bog'liq bo'lib, uning-sub`ektning shaxsiy-psixolog xususiyatiga bog'liq. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni quyidagicha ifodalash mumkin.

O'qituvchining kasbiy faoliyati favqulorra umumiy va xususiy qobiliyatlarini talab qiladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

- ob`ektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik – insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, muomalalik;
- pertseptiv qobiliyatlar – kasbiy etuklik, empatiya, pedagogik tuyg'u;
- shaxs dinamikasi – irodaga ta`sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- hissiy barqarorlik - o'zini boshqara olish;
- kreativlik – ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir. O'qitish, o'rganish va o'rgatish bo'yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- talabani tushunishni ko'rish va sezish, bunday tushunishning darajasini va xarakterini o'rnatish qobiliyati;
- o'quv materialini mustaqil tanlab olish, o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- materialni etarli bayon qilish, uning barcha talabalarga tushunarligini ta`minlash qobiliyati;
- talabalarning individualligini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;

- talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o'zining tajribasini boshqalar bilan baham ko'rish qobiliyati;
- mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- boshqa insonning ichki holatini to'g'ri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo'lish qobiliyati (empatiya qobiliyati);
- taqlid qilish uchun namuna bo'lism qobiliyati;
- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;
- muloqotning lozim topilgan uslubini, o'z o'rnini topish, kelisha olish qobiliyati;
- hurmat qozonish, talabalar o'rtasida obro'ga ega bo'lism qobiliyati.

O'quv rejalarini va dasturlarning bajarishini hisobga olish, o'quvchilarining o'zlashtirishini, davomatini va xulq – atvorini hisobga olish, kasb-hunar ta'limi o'quv ustasining hisoboti

O'zlashtirishni o'z vaqtida, tizimli tarzda, har yoqlama, to'g'ri yo'lga qo'yib hisobga olib borish o'quv rejasi bajarishini, har bir o'quvchi ishlab chiqarish ta'limi dasturi xamma mavzularini bajarayotganini nazorat qilishga, bilim, malaka va ko'nikmani baholashga yordam beradi.

Ishni ob'ektiv, o'z vaqtida va muntazam baholab borish o'quvchilarini uyuştiradi, intizomli qiladi va ularning mas'uliyatini va o'qishga qiziqishini oshiradi.

Joriy hisobga olish. Kun davomida ishlab chiqarish ta'limi ustasi o'quvchilar ishini kuzatadi, ular faoliyatini nazorat qiladi, o'quv-ishlab chiqarish ishlaridagi turli ko'rsatkichlarga binoan o'quvchilar bilimini, malakasini va ko'nikmalarini aniqlaydi.

Ta'lim davri, dastur mavzui va dars maqsadi qandayligiga qarab, usta o'quvchilar faoliyatini baholashning aniq, bir ko'rsatkichlarini belgilaydi va ularni o'zining dars ish rejasiga kiritadi. Buning uchun usta ish rejasiga sxema-jadval kiritib, unga kirish yo'l-yo'riqlari va joriy yo'l-yo'riqlar berish davomida baholar qo'yib boradi. SHunday qilib, yakunlovchi yo'l-yo'riq berish oldidan o'quvchilarining ishlab chiqarish ta'limi darsidagi faoliyatining hamma sohalari uchun qo'yilgan baholar usta qo'lida bo'ladi.

Sxemalar ta'lim davriga qarab o'zgara borishi mumkin. Masalan, ixtisosni egallash davrida va nazorat-yakunlash davrida sxemaga o'zlashtirishni baholashning quyidagi ko'rsatkichlari kiritilishi mumkin: rejani bajarish, ishlov berish sifati, ishga baho bera olish, ishdagi mustaqillik, yozma yo'l-yo'riqlar tuzish va uni darsda qo'llay bilish va h.k.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi, shuningdek o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotidagi faoliyatları bahosini ham hisobga olib boradi. Hisobga olish va baho qo'yish uchun ishlab chiqarish ta'limi jurnali bilan ustaning shaxsiy kundalik daftari asosiy hujjat bo'ladi.

Ayniqsa o'quvchilar turli atel'elarga yoki tikuvchilik fabrikasining boshqa-boshqa tsexlari va smenalariga taqsimlab yuborilganlarida, o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyoti-dagi ishini ular biriktirilgan ishchilar va smena ustalari ham baholashlari kerak.

Usta ishning qanday va qaysi usulda bajarayotganini ku-zatadi, kiyimlar va operatsiyalar sifatini, o'quvchilar bilimini tekshiradi, shundan keyingina baho qo'yadi.

Mavzu bo'yicha hisobga olish - bu ishlab chshqarish ta`limi dasturi mavzularidan bilimlarni, malakalarini va ko'nikmalarni aniqlash; bunda nazorat-tekshirish ishlari vositasida mavzu bo'yicha hisob olib boriladi.

Ishlab chiqarish ta`limidagi nazorat-tekshirish ishlaridan va kurs ishlaridan maqsad o'rganilayotgan mavzular vazifasiga muvofiq o'quvchilarning muayyan vaqt orasidagi bilimlari, malakasi va ko'nikmalarini vaqt-vaqtida tekshirib turishdan iborat.

Nazorat-tekshirish ishlari ta`limning hamma davrlarida o'tkaziladi. Nazorat ishiga namuna-etalonlar tayyorlab qo'yish kerak bo'lib, o'quvchilar bajarayotgan nazorat-tekshirish ishlarini shularga solishtirib ko'rishlari mumkin bo'ladi.

Nazorat ishlarining amaliy qismiga usta savollar ham tayyorlab qo'yadi. Maqsadi va mavzu qandayligiga qarab, usta nazorat asosiy masalalarini, bilimlarni, malakalarini va ko'nikmalarini baxolash ko'rsatkichlarini aniqlaydi, dars rejasiga nazorat-tekshirish ishini baholash jadvalini qo'shami.

Nazorat ishi o'tkazilayotganda har bir o'quvchiga topshiriq - kartochka bilan birga hamma kerakli moddiy-texnika vositalari (gazlamalar, bichiq detallari, bichiq, furnitura, asboblar, iplar va h. k.) ham beriladi. Usta nazorat-tekshirish ishini bajarish tartibi haqida, bajarilayotgan ishga nisbatan qo'yiladigan talablar haqida gapirib beradi, namuna-etalonlardan qanday foydalanish mumkinligini tushuntiradi, ish uchun ajratilgan vaqtini ma'lum qiladi.

O'quv ustaxonasida uskunalar etarli bo'lsa, nazorat-tekshiruv ishini yalpi o'tkazsa ham bo'ladi, lekin uskunalar etishmasa, unda usta o'quvchilarning ish o'rinaliga o'ta borishlari jadvalini oldindan tuzib qo'yishi kerak.

Usta tayyorlov davridagi nazorat-tekshirish ishlarini al'bomlarda saqlab qo'yishlarini o'quvchilarga aytadi. Keyinchalik o'quvchilar shu namunalarga qarab, darslarda va uylarida metodik va didaktik materiallar tayyorlaydilar, bundan esa keyin foydalanish mumkin bo'ladi.

Darsdan keyin usta ish sifatini, yozma javoblarni yana bir bor tekshirib, nazorat-tekshirish ishlariga baho qo'yadi. Keyingi darsda usta ishlarni batafsil tahlil qiladi, baholarini o'quvchilarga e'lon qiladi va bu baholarni ishlab chiqarish ta`limi jurnaliga yozadi.

Davriy hisobga olish — bu ma'lum vaqt orasida yoki ish tugallangan (tikib bo'lingan)dan keyin o'quvchilar ishlab chiqarish ta`limiga yakun yasash. Bir oyga, yarim yilga, bir kursga yakun yasaladi. Bu holda kundalik o'zlashtirishlar, nazorat-tekshirish ishlari va kurs ishlari hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish ta`limining kurs ishlari uchun har bir kurs oxirida kiyim turi va uni tikishga sarflanadigan vaqt aniqlanadi. Nazorat ishi o'tkazishdan maqsad — o'tilayotgan dastur talablariga muvofiq bilimlar, malaka va qo'nikmalar darajasini aniqlash hamda malaka toifalarini bosqichma-bosqich belgilash. Kurs ishini kasbhunar kolleji komissiyasi qabul qiladi va baholaydi.

Tayyor kiyimga baho qo'yayotganda usta buyumni qabul qilib va uning sifatini tekshirishni uyuştiribgina qolmay, balki ayni vaqtida o'quvchilar bilimlarini tekshirishi ham kerak. Nuqsonlar topilib qolsa, usta ularni tuzatish yuzasidan ko'rsatmalar beradi va nuqsonlar tuzatilgandan keyin kiyimni yana tekshiradi, uning sortini, kiyimga sarflangan vaqtini va mahsulot bitirib chiqarish me'yorini belgilaydi. Kiyimni tikish davridagi kundalik baholarni hisobga olib, usta uzil-kesil baho qo'yadi.

O'quvchilar faoliyatini baholashda tezkorlik malakasi bahosining va ishlab chiqarish rejasiga bajarilish hisobga olinishining, mahsulot tayyorlab chiqarish amali me`yorini (% da) aniqlashning muhim ahamiyati bor; bu me`yor quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\text{reja bajarilish \% } \frac{Ma}{Mp} \times 100,$$

bu erda: M_a – kiyimlarda yoki operatsiyalarda tayyorlab chiqarish amaliy me`yori; M_R - kiyimlarda yoki operatsiyalarda tayyorlab chiqarish reja me`yori.

YAkunlovchi yoki jamlovchi hisobga olish. Ishlab chiqarish ta`limi yakunlovchini-nazorat davrida shunday hisobga olib boriladi. Malaka berish imtihonlarini maxsus komissiya qabul qiladi; bu komissiyaga ishlab chiqarish korxonasi va kasb-hunar kolleji vakillari kiradi. Korxona vakili malakasini aniqlash komissiyasining raisi bo'ladi. Malakasini aniqlash imtihonlari o'tkazish va o'quvchilarning imtihonlarga kirishiga ruxsat berish haqida buyruq chiqariladi. Imtihonlarni tashkil etish va o'tkazishda malakasini aniqlash imtihonlari haqidagi nizomga amal qilish kerak. Komissiya ishlarga baho qo'yadi. Malakani aniqlash yuzasidan imtihon topshirgan o'quvchilarga tegishli ixtisosdan razryad beriladi.

Imtihonlardan keyin kasb-hunar kollejida o'quvchilar ishi ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Hisob-kitob hujjatlari. Hisob-kitob olib borishning asosiy hujjati ishlab chiqarish ta`limi jurnalni bo'lib, uning shakllarida quyidagilar aks etadi: o'quvchilar haqidagi ma`lumotlar, o'quv rejasiga o'zlashtirilishini hisobga olish, ishlab chiqarish ta`limi dasturlari, kasb-hunar kolleji ustaxonalarida va korxonadagi ishlab chiqarish amaliyotida ta`lim olish davridagi o'quv-ishlab chiqarish ishlari ro'yxatining bajarilishi; o'zlashtirishning kundalik, davriy, yakunlovchi hisobga olinishi, o'quvchilar davomati.

Ishlab chiqarish ta`limi jurnalining birinchi betidagi shakllarda uni yuritish qoidalari berilgan bo'lib, usta jurnalni to'ldirayotganda ularga rioya qilishi kerak. Ixtisos, dasturlar, o'quv-ishlab chiqarish ishlaringin hajmi qandayligiga qarab, jurnalndagi ba`zi shakllarni to'ldirishning o'ziga xos tomonlari bor.

Jurnalni to'ldirishda "Korxonalardagi, texnik xizmat punktlaridagi, o'quv xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish ta`limi (ustaxonalarda) va amaliyoti davrida o'quvchilarning o'quv dasturlarini bajarishlari hisobga olish" degan № 1 shaklning ba`zi xususiyatlari bor.

Bu shaklda, asli, dastur mavzulari, kichik mavzulari (topshiriqlar) yakka tartibda hisobga olib boriladi: tayyorlov davrida — operatsion mavzular, kiyim detallari va uzellarini tikish hisobga olib boriladi (soat hisobida), ixtisos egallash davrida esa — o'quvchilar tikkan kiyimlar hisobga olinadi. CHap tomondagi "Dastur bo'limi mavzulari №" xonasining ro'parasida mavzuning nomeri va nomi yoziladi. "Topshiriqlar №" xonasi ro'parasida ishlab chiqarish ishlari ro'yxatiga muvofiq buyumning № yoziladi. Keyin har bir o'quvchining familiyasi ro'parasidagi "Tekshirish sanasi" xonasiga kiyimning amalda tikib bitkazilgan kuni, uning yonidagi xonaga esa kiyim uchun qo'yilgan uzil-kesil baho yoziladi. Guruhda 15 kishi bo'lgani uchun har qaysi o'quvchiga ikkita qator (chiziq) ajratib, inkinchi qatorga kiyimni tikishga sarflangan soatlar miqdori va har bir o'quvchining rejani bajarishi % hisobida yozilishi mumkin.

O'ng tomondagi "Mavzular, ishlab chiqarish ishlari, topshiriqlar №" xonasida ham ro'yxatga binoan mavzuning, kiyimning nomi, uning yoniga esa rejada shu kiyimga mo'ljallab ajratilgan soatlar miqdori yoziladi. Ko'proq aniqlik bo'lishi uchun bular yonida kiyimni tikib topshirishning rejadagi kuni ko'rsatiladi. Bu istalgan o'quvchishshg ishda qanchalik ulgurayotganini taqqoslab, uning mehnat unumini ko'rib turishga yordam beradi.

SHakl №1

Jurnalning chap tomoni

Dastur bo'limi mavzulari №						
Topshiriqlar №	1-kuzgi bahorgi pal'to					
O'quvchining ismi, familiyasi	Tekshiris h sanasi	Baho	Tekshirish sanasi	Baho	Tekshiris h sanasi	Baho

O'quvchining ishlab chiqarish ta`limidan kundalik daftari. O'quvchilarga ustaxonalardagi ishlab chiqarish ta`limiga va korxonadagi ishlab chiqarish amaliyotiga alohida-alohida kundalik daftar tutish tavsiya etiladi. Kundalik tutish o'quvchilarni intizomli qiladi, ularga amaliy bilimlar orttirishda, o'tilgan materialni mustahkamlashda yordam beradi. O'quvchilar operatsiyalarni bajarish usullari, uzelni, detalni, kiyimni tikish tartibi, operatsiyalarni texnologik bajarish, mehnat xavfsizligi qoidalari haqida yozib boradilar, tikiladigan modellar detallarining uzellari rasmini chizadilar, gazlamalarga, tikiladigan modelga xarakteristika beradilar, bajarilgan ishlarni hisobga olib boradilar.

Kundalik daftar o'quvchilarga ishni mustaqil rejorashtirishni, mahsulot tayyorlab chiqarish me`yorini va vaqt me`yorini hisoblab chiqishni, ishlab chiqarish rejasi bajarilishini hisobga olishni, ishni soatma-soat bo'lib olishni o'rgata boradi. Bundan tashqari, kundalik daftalar tutish ustaga hisob-kitobni tashkil etishda yordam beradi.

Dars mavzui, ishlash sharoiti qandayligiga qarab, kundalik daftarga kirish yo'l-yo'riqlari, joriy yo'l-yo'riqlar, yakunlovchi yo'l-yo'riqlar berish vaqtida yoki darsdan keyin yozib borilishi mumkin yoxud uy ishlari bajarilishi vaqtida yozilsa ham bo'ladi.

Usta kundalik daftar muntazam tekshirib borilishini unutmasligi kerak, shundagina o'quvchilar uni doimo to'ldiradigan bo'ladir.

Ta'lim muddati qanchaligiga, o'qish ishlari ro'yxatiga binoan ishlarning va buyumlarning miqdoriga qarab, har bir shakl uchun muayyan miqdorda sahifalar ajratiladi. Har bir shaklni yangi betdan boshlash kerak bo'ladi.

Ustaxonada o'zlashtirishni hisobga olish stendlari. Ishni hisobga olishni tashkil etish va oshkorlik bo'lishi uchun o'quv ustaxonasida stend bo'lib, unga guruh jamoatchiligi vakillari ishlab chiqarish ta`limi ustasining rahbarligida o'quv-ishlab

chiqarish ishlari ro'yxatining va ishlab chiqarish rejasining bajarilishi haqida ma'lumot berib borishi, ish natijalariga baho qo'yib borishi kerak (1-shakl). Bundan tashqari stendda guruhdagi eng yaxshi brigada va eng yaxshi o'quvchilar yozilishi kerak.

Davomatni va xulq - atvorni hisobga olish. Har bir o'quvchining va umuman butun guruhning intizomliligini aniqlash, o'quvchilarda xulq-atvor talablarini ongli ravishda bajarish odatini tarbiyalash maqsadida o'quvchilar xulq-atvori hisobga olinadi. O'quvchilar xulq-atvorini baholashning asosiy mezoni o'quvchilarning kasb-hunar kollej ichki tartibi qoidalari va o'quvchilarga qo'yiladigan umumiyl talablarda ifodalangan asosiy burchlarni bajarishlaridir.

Xulq-atvorni hisobga olishda:

- ancha tirishqoqlik bilan o'qiydigan, ayniqsa guruhning, kasb-hunar kollejining ijtimoiy hayotida, ijtimoiy-foydali mehnatda faol qatnashadigan, kasb-hunar kollejida, uyda, yotoqxonada, ko'chada o'zini namunali tutadigan, kasb-hunar kollejining ichki tartib qoidalari va o'quvchilarga qo'yiladigan talablarni qat'iylik bilan bajaradigan o'quvchilarga "namunali";

- o'z burchlarini bajaradigan, kasb-hunar kollejining ijtimoiy hayotida va ijtimoiy foydali mehnatda qatnashadigan o'quvchilarga "qoniqarli";

- kasb-hunar kollejining ichki tartib qoidalariда nazarda tutilgan burchlarini muntazam ravishda bajarmaydigan, kasb-hunar kollejida, uyda va jamoat joylarda intizomsizlik qiladigan o'quvchilarga "qoniqarsiz" degan baholar qo'yiladi.

Kasb-hunar kollejining rahbari, o'quv ishlari, kasb ta'limi va ma'naviy ishlari bo'yicha rahbar o'rnbosarlari, guruh rahbari har oyda kamida bir marta o'quv ishlarini hisobga olish jurnalini (o'quv yili rejasi va dasturining qanday bajarilayotganini, o'quvchilarning o'zlashtirishi hamda xulq-atvorini, ularning mashg'ulotlarga qatnashishlarini, hisob yuritishning to'g'rilingini) tekshiradilar. Tekshiruvchilar tekshirish natijalarini, ta'limning yo'lga qo'yilishidagi va o'quv ishini hisobga olishdagi kamchiliklarni bartaraf etish hqidagi o'z fikr-mulohazalari hamda takliflarini o'quv ishini hisobga olish jurnaliga yozib qo'yadilar. O'quv yilining yarmi tugashi bilan o'qituvchi va ustalar bu jurnalda o'quvchilarning o'zlashtirishlariga, xulq-atvorlariga, shuningdek, o'quv reja va dasturining baarilganligiga yakun yasaydilar.

Kasb-hunar kollejidagi yarim yil va yil davomidagi ta`lim-tarbiyaviy ishlari natijalarini kasb-hunar kollejining pedagoglar kengashi yig'ilishida muhokama qilinadi.

Moddiy boyliklarni hisobga olish hujjalari. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi moddiy qadriyatlar harakatini qattiq hisobga olib borishi kerak. Bichiqlari va qotirma materiallarini, furniturani usta talabnomaga binoan omborxonadan oladi. Talabnomaga topshiriq rejasiga asosan tuzilib, uni katta usta, direktoring o'quv-ishlab chiqarish ishlari bo'yicha muovini imzolaydilar.

Talabnomaga asosan ko'rsatilgan materiallar olinayotganda tovarlarni berish uchun yuk haqi (nakladnoy) bichiqlar soni, kiyimlar artikuli (mahsulot sifatining nomeri), o'lchamlari, bahosi ko'rsatiladi. Materiallarni olayotganda usta moddiy boyliklar mavjudligini yuk haqi yozilganiga solishtirib ko'radi; yuk haqiga tovar berayotgan omborchi bilan tovar olayotgan usta qo'l qo'yadi.

Bichiqlari materiallarni o'quvchilarga berayotganda usta yuqorida ko'rsatilgan hamma ma'lumotlarni jurnalga yozadi.

Kiyim tikilib, texnik nazorat bo'limi qabul qilgandan keyin usta uni yuk haqiga binoan omborxonaga topshiradi. YUk haqida kiyimlar soni, ularning nomeri, gazlama artikuli, kiyim o'lchami, rosti, bahosi ko'rsatiladi; yuk haqiga moddiy boyliklarni topshirayotgan usta va ularni qabul qilayotgan omborchi qo'l qo'yadi.

Hamma hujjatlarda sana ko'rsatilib, shundan boshqa kunlari ularga qo'shimcha yozuv kiritish man etiladi. YAna moddiy boyliklar olish yoki topshirish zarurati bo'lib qolsa, ularga yangi hujjatlar yoziladi.

Ishlab chiqarish ta`limi ustasining hisoboti. Guruhning ishlab chiqarish faoliyati yuzasidan hisobot har oy oxirida, yarim yilda, bir yilda tuziladi.

Oy oxirida o'quvchi kundalik daftarida o'z ishi yakunini chiqaradi, keyin usta guruhning ishi haqida jamlama hisobot tuzadi.

Amaliyot davrida har oyda guruh majlisi o'tkazib, unda o'quvchilar o'z ishlari (ishlab chiqarish amaliyotidagi) haqida hisobot beradilar va butun guruh ishiga yakun yasaladi. Majlisda kasb - hunar kollej rahbariyati vakillari, biriktirilgan o'qituvchi, tsex ustasi qatnashishlari kerak.

Usta har oyda kasb - hunar kolleji buxgalteriyasiga o'quvchilarning korxonadagi ish haqini (so'm hisobida) topshiradi va ish haqi kasb-hunar kollejining joriy hisobiga o'tkazilishini hamda korxonada ishlab topilgan ish haqining belgilangan foizini kasb-hunar kolleji buxgalteriyasi o'quvchilarga yozishini va uning to'lanishini kuzatib boradi.

YArim yil, bir yil oxirida va guruhning ishlab chikarish ta`limi tugaganda usta guruh ishi haqida yozma hisobot tuzadi. Rejaning bajarilishi, ish sifati va boshqa ko'rsatkichlar haqidagi raqamli ma'lumotlardan tashqari usta guruhdagi tarbiyaviy ish haqida ham hisobot yozishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent., SHarq, 1998. - 64 b.
2. Davlatov K., Vorob'yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
3. Eldasheva G. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent.: O'MKHTKMO va UQTI. 2006. – 126 b.

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Reja:

1. Baholashning ob`ektivligi va tabaqalashtirilganligi
2. Baholashda e`tiborga olinadigan omillar
3. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirish

Baholashning ob`ektivligi va tabaqalashtirilganligi.

Baholash va uning ahamiyati. Ta`lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta`lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini

nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta`lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash – ta`lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishda iborat jarayondar.

YUqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- O'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta`lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- o'quvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma`lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- Nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;
- xulq — atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Qachon baholash kerak?

- Ta`lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- Ta`lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- Ta`lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- Ta`lim maqsadiga yo'nalganlik;
- Muntazam o'tkazib borish;
- Pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- Umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

YUqorida ta`kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganda kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq - atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa — affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Bahoning ob`ektivligi, ayrim o'quvchilar mehnati natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlari (buyumning aniqligi, buyumlar miqdori va hokazolar)ga asoslanadi. Bahoning yagona talablar asosida qo'yilishi ham uning ob`ektivligidir. Ana shu talablar quyidagilardan iborat:

1. Ishlash aniqligi. Aniqlik – har qanday mahsulotni, shu jumladan, tikuvchilik sanoati mahsulotlarini tayyorlashga qo'yiladigan talabdir.

2. Vaqt me'yori. Me`yorlash xususida mehnat topshirig'ini bajarishni vaqt bo'yicha chegaralash o'quvchilar mehnat operatsiyalarini bajarish usullarini egallab olganlaridan keyin amalga oshirilishi kerak. Bunda o'quvchilar bir yo'la ham ishning

sifatli bajarilishini kuzatishni, ham uni ma`lum muddatda bajarishga intilishni uddalay olmasligi va ta`limning birinchi bosqichida vaqt me`yori kiritilsa, miqdor ko`rsatkichlari sifat hisobiga ortishidan kelib chiqadi.

3. O'quvchilarining bilimlari. O'quvchilarining amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanib tashkil qilinadi. SHu sababli ularning faoliyatini baholashda o'quvchilar dastur materialini qanday hamda va qanchalik chuqur o'zlashtirganini hisobga olish kerak.

4. Mehnat usullarini to'g'ri bajarish. O'quvchilar asbobni ushslash, ish holatida turish, asbobning ishlov berilayotgan sirtga nisbatan qanday holatga tutish haqidagi ko`rsatmalarini qat'iy bajarishlari kerak. Mehnat usullarini to'g'ri bajarish ko'nikmalari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

5. Ish o'rnnini to'g'ri tashkil qilish. Ishlab chiqarishda ish o'rnnini to'g'ri tashkil mehnat unumdorligini oshiradi. O'quvchilar mehnat madaniyatining saviyasi ko'proq o'z ish o'rnnini to'g'ri tashkil qila olishiga bog'liqdir.

6. Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Agar ishning xavfsizligini ta'minlovchi qoidalar buzilsa, jarohatlanish xavfi tug'iladi. Jihozlar va asboblarni ishlatishdagi mehnat usullari va hokazolarni bajarishdagi xavfsizlik qoidalarini buzgan o'quvchilarining bahosini pasaytirish kerak.

Baholashda e`tiborga olinadigan omillar

Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya`ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko`rsatkichdir. Bu ko`rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko`rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash shakllari. Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash
2. Me`yorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash — baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan xamma uchun umumiyligi va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o'rganish maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan-to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalarini aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lchanadi.

Baholash turlari. Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- Boshlang'ich baholash
- Joriy, ya`ni shakllantiruvchi baholash

➤ YAkuniy, ya`ni umumlashtiruvchi baholash

Boshlang'ich baholash — ta`lim jarayoni boshida ta`lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta`lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U ta`lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta`lim jarayoni samarasini tezkor (operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta`minlash imkonini beradi.

YAkuniy (umumlashtiruvchi) baholash - ta`lim oluvchining ta`lim jarayonining ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. YAkuniy baholash ta`lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi.

Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagi larga e`tibor berish lozim:

Ta`lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uni baholashga tayyorgarlik ko'rishga olib keladi.

Baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishiga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini chetga olishga hamda ta`lim oluvchini o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi.

Baholash o'tkazish sharoitida o'quvchi o'zini erkin tutishi va noxushlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak. Baholovchi va ta`lim oluvchi baholash nima berishi, u qachon, Kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir. Qo'yilgan baho o'quv natijasini tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir. Ta`lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim. Rejalshtirilmagan baholashni o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Baholash tamoyillari.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi.

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik
- Haqiqiylik
- Haqqoniylilik
- Ishonchlik
- Qulaylik

1. O'quv maqsadlariga asoslanganlik. Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. SHuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Haqiqiylik. O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi ozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. Haqqoniylilik (ob`ektivlilik). Bir-biridan mustaqil ta`lim beruvchilar bir xil ta`lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha bir xil baho bergan holdagina mazkur topshiriq va test haqiqiy hisoblanadi. Bu haqqoniylilik har xil vaqtarda berilgan baholar uchun taalluqlidir.

4. Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobaynida har xil usulardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligini qanchalik ishonchliekanligi nazarda tutiladi.

5. Qulaylik. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mosbo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim ouvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar komp'yuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Baholash tizimlari. Oxirgi paytlarda Respublikamiz ta`lim muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo'llanilib kelinmoqda.

1. Baholashning besh ballik tizimi.
2. Baholashning reyting tizimi.

Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

- Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ta`lim oluvchilar darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. ta`lim beruvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi.
- Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir o'quuvchi uning bilimlari, ko'nikma va malaka baholanayotganini tushunishi kerak.
- Davlat ta`lim standartlariga asoslanganlik. Ta`lim ouvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun me`yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. (O'MKHT markazining 2005 yil 17 avgustdagি 192-sonli buyrug'iga 5-ilova) Toshkent., 2005 y. 32 bet.
2. Baholash metodlari / Nishonov A., B.Haydarov, B.Nuridinov va boshqalar. Toshkent., O'MKHTRI, 2003. - 156 bet.
3. Davlatov K., Vorob'yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.

KASB TA`LIMI O'QUVCHISINING METODIK ISHLARI

Reja:

1. O'qituvchining mustaqil metodik ishlari: o'z siyosiy ongini o'stirish, kasbi bo'yicha bilim va tajribani kengaytirish, ta`lim-tarbiya sohasidagi o'z bilim va mahoratini shakllantirish.
2. Kasb-hunar ta`limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi
3. Metodik uyushmalar va ularning faoliyati
4. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish
5. O'quvchining jamoaviy metodik ishlari: pedagogik ishlari, ochiq darslar va ularni o'tkazish

O'quvchilarga ta`lim va tarbiya berishda kasb ta`limi o'qituvchisi etakchi rol' o'ynaydi. Ta`lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog'liq.

YAkka tartibdagi metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi muhandis-pedagog o'z pedagog mahoratlarini va o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topishiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturning eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanish ishlarni belgilaydi. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog, muhandis-pedagog ish rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.
2. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish.
3. O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
4. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar bilan muhandis-pedagoglar hisobotlari eshitilib turiladi.

G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish - materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak. Kasb ta`limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta`lim berishning mohiyati ancha to'la yoritilgan asarlarni, prezident qarorlarining kasb-hunarga oid hujjatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferentsiyalar ishida qatnashish, matbuot, radio, televidenie orqali hozirgi siyosat bilan tanishish va amaliy ishda qo'llash.

Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish - tayyorlanadigan ma'ruzalar, ko'rsatmalar, tavsiyalarda o'quvchilar bilan bo'ladigan o'quv-tarbiyaviy ishlari shaklini mukammallashtirib borish nazarda tutiladi. Kasb ta`limi o'qituvchisining o'z ustida mustaqil ishlashi kasb-hunarga oid ilmiy jurnallar va asarlar bilan muntazam tanishib borishi, metodik mahoratida esa mashg'ulot olib borish sifatini takomillashtirib, bunda yangi metodik ko'rsatmalar tayyorlash, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish masalasini echish, ilg'or pedagogik tajribalarni esa boshqa o'qituvchilar orasida yoyishga yordam berishdir.

Nazariya bo'yicha darslarga tekshirish uchun kirgan o'qituvchi darslarning kalendar' mazuli reja va har bir dars bo'yicha rejasi hamda dars o'tish uchun ma'ruza matn borligiga; dars mavzusi bo'yicha tuzilgan reja va dasturga mos kelishiga; ta'lim vositalaridan unumli foydalanilayotganligiga; darsda o'quv tarbiyaviy ishning qo'yilishi va uning amalga oshirilishini, qo'yilgan maqsadni hal etish uchun tanlangan dars turining maqsadga muvofiqligiga baho berish; darsning strukturasini to'g'ri tanlanganligiga, vaqtning sarflanishiga o'qituvchi va o'quvchilarining darsga tayyorgarligiga e'tibor berish kerak.

O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish – ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar kasb ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar va ishlab chiqarish ilhorlari rahbarligida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi.

Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish – kasb ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Didaktik materiallar tayyorlash

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Ko'pincha o'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish, o'rganish uchun ishlatiladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vosita ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyat o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;
- baholash varag'i, nazorat qog'ozi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar talabalarga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv matnlari
- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun)
- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar
- ustaxonada ishslash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun)
- yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar
- qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi

Xuddi shu usuldan seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

Slaydlarni tayyorlash uchun:

- oddiy atsetat qog'ozi yoki shaffof sun'iy qog'oz;
- nusxa olish mumkin bo'lgan maxsus qatlamlili slaydlar;
- flamaster, permanent va suvda eruvchan slaydlarni tozalash uchun spirt;
- surat chizish moslamalari (shablon, chizg'ich va boshqalar)lar ishlataladi.

Slaydlarni qo'lda tayyorlash uchun:

- surat yoki matn qog'ozga eskizlanadi
- slaydni uning ustiga qo'yib, skrepka bilan mahkamlanadi
- namunadagi surat slaydga ko'chiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - TDPU, Toshkent., 2003 y.176 bet.
2. Kasb ta`limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.

BO'LAJAK KASB TA`LIMI O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK AMALIYOTI

Reja:

1. Pedagogik amaliyotning o'quv me'yoriy hujjatlarda aks etishi va uni olib borish tartibi, amaliyotchi talabaga maslahatlar.
2. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari. Aktiv va passiv amaliyot. Kasb – hunar kolleji bilan tanishish, ta`lim muassasalari rahbarlari ishlarini o'rganish.
3. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan talablar, pedagogik amaliyot bo'yicha hujjatlar va ularni rasmiylashtirish, pedagogik amaliyotni yakunlash va hisobot topshirish tartibi.
4. Kasb-hunar ta`limi ustasining o'quv – tarbiyaviy ishlarini o'rganish. Kasb – hunar kollejida darsdan tashqari ishlarni o'rganish. Ishlab chiqarish ustasi va guruh rahbarlari olib boradigan kasbga qiziqtirish ishlari bilan tanishish hamda ularni o'rganish.
5. Pedagogik amaliyotni baholash mezonlari.

Pedagogik amaliyotning o'quv me'yoriy hujjatlarda aks etishi va uni olib borish tartibi, amaliyotchi talabaga maslahatlar.

Malakaviy amaliyot. Talabalar umumkasbiy fanlarni o'zlashtirishida olgan bilimlarini nazariy va amaliy mustahkamlash; texnikaviy loyihaviy va texnologik hujjatlar turlarini va o'tish bosqichlari tartibini o'rganish; energetik mashinalar va apparatlar elementlari va uzellari loyihalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini egallah; sohada qo'llaniladigan hisob metodlari bilan tanishish; korxona konstrukturlik bo'limlari chizmalari xo'jaligini va strukturasini hamda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimini o'rganish; korxonada konstruktsiyalashning darajalari va bosqichlari bilan tanishish; energetik mashinalar detallarining chizmalarini chizish va murakkab uzellarini loyihalash bo'yicha konstrukturlik ko'nikmalarini hosil qilish; detallar va uzellarni mustahkamlikka, ishlov berilishi aniqligiga, ishonchlilikka va boshqalarga hisoblash ko'nikmalarini egallah.

O'quv-tanishish amaliyoti. Talabalar ichki yonuv dvigatellari va ularning komplektlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar strukturasi, ularning tashqi va ichki aloqalari, ichki yonuv dvigatellarini ishlab chiqarishni tashkil qilish asoslari bilan hamda korxonalarda foydalaniladigan stanoklar va jihozlarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Ishlab chiqarish amaliyoti. Talabalar ichki yonuv dvigatellarining asosiy detallariga ishlov berishning texnologik jarayonlari, dvigatel tayyorlashning asosiy bosqichlari, ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyalari, motor ishlab chiqaruvchi korxona bo'limlarining xususiyatlari bilan tanishadilar; dvigatellarni ishlab chiqarish, yig'ish va ularga xizmat ko'rsatishning ba'zi operatsiyalarini bajarish ko'nikmalarini hamda ishlab chiqarish ko'nikmalarini egallaydilar.

Texnologik-konstrukturlik amaliyoti. Talabalar konstrukturlik masalasini echish uchun zarur bo'lgan konstrukturlik-texnologik bilimlarni va amaliy ko'nikmalarini egallaydilar; texnologik hujjatlardan foydalanishni, konstrukturlik hujjatlarini

texnologik nazorat qilishni, detallar konstruktsiyalariga ishlov berish texnologik jarayonlarini ishlab chiqishning amaliy ko'nikmalarini egallaydilar.

Bitiruv-malakaviy ishi (loyihasi) oldi amaliyoti. Bitiruvchini bevosita standart talablariga muvofiq mustaqil ishlashga tayyorlash; o'zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash; jamoada tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish bo'yicha tajriba hosil qilish; konstruktorlik byurosida konstruktorlik ishi amaliy ko'nikmalarini egallash hamda bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun materiallarni toplash.

Pedagogik amaliyot: o'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta`lim muassasalarida oliy nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qiladi. Uning mazmuni maxsus nizom bilan belgilanadi.

O'quv amaliyoti: mashinasozlik sohasi yo'nallishlarida o'qitiladigan umumkasbiy va maxsus fanlariga oid korxonalar bilan tanishish, korxonalar haqida ma'lumotlar to'planadi.

Amaliyotchi talabaga maslahatlar. Pedagogik amaliyot kasb ta`limi o'qituvchisini tayyorlashda shunday jarayondirki, bunda har bir talaba o'qish davrida to'plagan bilimlarini kompleks tarzda foydalanishga to'g'ri keladi. SHuning uchun pedagogik amaliyot davrida o'qish jarayonidagi barcha kamchiliklar yaqqol ko'rinish qoladi. Pedagogik amaliyot, kasb ta`limio'qituvchisini tayyorlashda o'ziga xos sinov hisoblanadi. SHuni nazarda tutish kerakki, amaliyotchining yoshi u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning yoshidan juda kam farqlanadi. Bunday vaziyatda birinchi kundan boshlab to'g'ri yo'l tanlash, o'quvchilarga nisbatan takallufsizlikka yo'l qo'ymaslik, takabburona munosabatda bo'lmaslik juda muhimdir. Tajribaning ko'rsatishicha, amaliyotchi talaba o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lsa, ya'ni ularga xayrixohligi va kamtarligini namoyon qilsagina u tezda bolalar bilan inoqlashib ketadi.

Amaliyotchi talabaning tashqi qiyofasi ham muhim rol o'ynaydi. U o'quvchiga namuna bo'lishi zarur. Amaliyotchi talaba oddiy, ozoda kiyinishi lozim, bu shartni bajarmagan talaba o'quvchilardan shu narsani talab qila olmaydi. Amaliyotchi talaba nafaqat tashqi qiyofasi bilan, balki o'zining odobi, hulqi, katta va kichiklarga muomalasi bilan namuna bo'lishi kerak. Bu esa talabaning amaliyot davrida turli to'siqlarga duch kelmasdan amaliyotni tugatishiga va davr talabidagi pedagog kadr bo'lishiga zamin bo'ladi. Talabalar amaliyot davrida kollej pedagogik jamoaning a`zosi bo'ladilar, binobarin kollej tartibiga bo'ysunadilar, mehnat intizomiga amal qiladilar.

Pedagogik amaliyotning samaradorligi ko'p jihatdan talabaning mustaqilligi va faolligiga, uning ishga ijodiy yondoshishiga bog'liq bo'ladi. Mana shu amaliyot davrida talaba bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha tadqiqot materiallarini toplash va umumlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari. Kasb – hunar kolleji bilan tanishish, o’quv yurti rahbarlari ishlarini o’rganish

O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta’lim tizimi jumladan, oliy pedagogik ta’lim muassasalari oldiga pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan yaxshilash vazifasini qo’ymoqda.

Bo’lajak kasb ta’lim o’qituvchilarini tayyorlashning muhim bosqichlaridan biri pedagogik amaliyot sanaladi. Oliy ta’lim muassasasi auditoriyasida egallangan nazariy bilimlar, malaka va ko’nikmalar maxsus ta’lim muassasalarida amaliyot davomida sinovdan o’tadi, rivojlantiriladi.

Pedagogik amaliyot talabalarning kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va umumiyl o’rta ta’lim maktablarida o’quv tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyotning vazifalari:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo’yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
- bo’lajak o’qituvchilarni amaliy ko’nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiyl psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo’llash malakalari bilan ta’minalash;
- talabalarni maktab, litsey va kabs-hunar kollejlaridagi o’quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg’or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;
- o’qituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;
- talabalarda pedagogik kasb va mehnatga hurmat va muhabbat uyg’otish;
- talabalarni bevosita pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;
- talabalarni maktab, litsey, kasb-hunar kollej o’quvchilarini pedagogik kasbga yo’naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni o’tkazishga o’rgatish;
- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini joriy va istiqbolli rejalshtirishni o’rgatish;
- talabalarda o’qituvchining ish rejasiga asoslanib, kasb ta’limi yo’nalishni hisobga olgan holda, kasb hunar kolleji o’quvchilarini bilan tarbiyaviy yuilarni olib borish malakasini shakllantirish;
- ta’lim tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllari (dars, suhbat, o’yin va boshqalar)ni amaliyotga tadbiq qilishni o’rgatish;
- talabalarda kasb-hunar kolleji o’quvchilarini o’rganish ko’nikmalarini shakllantirish;
- zamonaviy o’qitish metodlarini qo’llab dars o’tishni o’rganish kabilardan iborat.

Kasb-hunar kollejlarida o’tkaziladigan pedagogik amaliyot mazmuni va uni tashkil etish

Talabalar o’zları biriktirilgan kasb-hunar kollejlarida ta’lim tarbiyaviy ishlar, guruh murabbiylari va fan o’qituvchisining rejalarini bilan tanishadilar. Amaliyotning birinchi kunida talabalar darslarda va dasrsdan tashqari vaqtarda o’quvchilarini o’rganadilar. Guruh murabbiysi va fan o’qituvchisi o’quv ustalari bilan suhbatda bo’ladilar.

Talabalar mustaqil ravishda ish boshlashdan oldin o’quvchilarning shaxsiy hujjatlari hamda o’qishga oid hujjatlarni o’rganadilar.

Amaliyotning asosiy masalalari talabalar faoliyatining aniq turlarida hal qilinadi.

Har biri guruhgaga talabalar biriktiriladi. Ular sinfda o'qituvchi vazifasini bajaradilar, har bir talaba butun amaliyot mobaynida individual ish rejasini tuzadilar. Guruh tarbiyachisi sifatida ishlayotgan har bir amaliyotchi talaba tarbiyachi ishini o'rganadi. Kun tartibidagi xar bir tadbirni (guruh, o'quvchilari bilan suhbat, ochiq dars va mashg'ulotlar, ota-onalar bilan ish), olib boradi. Barcha ishlarni talaba biriktirilgan fan (mutaxassilik) o'qituvchisi va guruh metodisti bilan kelishilgan holda olib boradi. Talabalar bitiruv malakaviy ishlarida barcha tajribalardan misollar kiritish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi bo'lib ishslash mobaynida talaba umumkasbiy maxsus fanlardan dars beradi. Har bir talaba amaliyot davomida taxminan 2-4 haftalarda dastlabki, 4-6 haftada sinov darsini o'tadi. Har bir dars uchun reja konspekt tuziladi. Amaliyotchi-talaba kursdoshlari darslarida qatnashadi va uni tahlil qiladi, darsni jamoa bo'lib muhokama qilishda qatnashadi, sinf jurnalini yuritadi, o'quvchilarga berilgan barcha vazifalarni qabul qilib baholaydi.

Kasb-hunar kolleji faoliyatini o'rganish

1. Kasb - hunar kolleji rahbarlari bilan suhbat.
2. Kasb - hunar kolleji tarixi va an`analarini o'rganish.
3. Kasb - hunar kollejining o'quv - moddiy bazasi bilan tanishish va uning pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil qilish talablariga javob berishi darajasini aniqlash.
4. O'quvchilar kontingenti, qanday kasblarga o'qitilishini o'rganish.
5. Muhandis - pedagog kadrlar tajribasini o'rganish va ularning ilmiy - pedagogik ishlari bilan tanishish.
6. Kasb - hunar kolleji metodik ishlari bilan tanishish.
7. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash ahvoli bilan tanishish.
8. Kasb-hunar kollejida olib borilayotgan ta`lim-tarbiya jarayonini o'rganish.
9. Hunar ta`limi ustalarining kasbni targ'ib qilish ishlari bilan tanishish.
10. O'quvchilarni, ularning o'quv-ishlab chiqarish va tarbiya ishlariga munosabatlarni o'rganish.
11. Guruh ustasining kundaligi, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, oila va yotoqxonadagi shaxsiy hayoti bilan tanishish.
12. Guruhda olib borilayotgan mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya sifatini o'rganish.
13. Guruhdagagi o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish.
14. Guruh jamoasining ahilligi, faolligi shakllanishida sinf rahbari va ustuning rolini o'rganish.

Tavsiyalar: Amaliyot davrida o'quvchilar shaxsini o'rganishning hamma metodlarini (guruh ustasi, sinf rahbari, ota - onalar bilan suhbat, o'quvchilarning uylariga borish) qo'llash lozim.

O'quvchilar guruhi jamoasining mehnat faoliyatini tashkil qilishda guruh ustasi va sinf rahbarining roliga e'tibor berish kerak.

Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan talablar, pedagogik amaliyot bo'yicha hujjatlar va ularni rasmiylashtirish, pedagogik amaliyotni yakunlash

Pedagogik amaliyot tugaganidan so'ng talabalar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- 1) Amaliyotchining shaxsiy ish rejasи.
- 2) Pedagogik amaliyot kundaligi.

- 3) Amaliyotchi talabaning mutaxassislik fanlar bo'yicha kamida 40 ta darsning tahlili.
- 4) Maxsus fanlardan kalendar mavzuli reja.
- 5) Tarbiyaviy ish rejasi.
- 6) Tarbiyaviy soatlar tahlili.
- 7) Maxsus fanlardan tashkil qilingan to'garak ishlar rejasi.
- 8) YOsh fiziologiya va gigiena fanidan mustaqil ish topshiriqlariga javoblar.
- 9) Tarbiyaviy tadbir stsenariysi.
- 10) O'quvchiga psixologik - pedagogik gavsifnomalar:
- a) guruh uchun; b) 2-ta o'quvchi uchun.
- 11) Amaliyotchi talaba dars o'tadigan mutaxassislik fanidan 6-8 ta darsning reja - konspekti.
- 12) Ochiq dars uchun talaba tomonidan tayyorlangan o'quv-ko'rgazmali qurol
- 13) Ochiq dars tahlili va kollej metod birlashmasi (Maktab ped.kengashi) bayonnomasidan ko'chirma.
- 14) Amaliyotchi talaba uchun pedagogik amaliyot o'tgan o'quv muassasasining tavsifnomasi.
- 15) Hisobot.

Amaliyotning umumiy bahosi talabaning tarbiyachi va o'qituvchi sifatida bajargan ishi, o'quvchiga yozilgan pedagogik tavsifnomalar, hamda hhijjalarning o'z vaqtida topshirilishi va sifatini hisobga olgan holda reyting tizimin asosida quyiladi.

Pedagogik amaliyotni o'tashda talaba pedagogika, psixologiya, umumtexnik va metodik fanlardan egallangan bilimlariga tayanadi.

Pedagogik amaliyot yuzasidan hisobot. Amaliyot tugagach, talaba 3 kun ichida hisobot topshiradi. Unga kundalik, tavsifnomalar, dars rejalar, ochiq darslar muhokamasi qarorlaridan ko'chirma, o'tkazilgan darslar rejasi va konspekti, qatnashgan darslari tahlili bayoni, utkazilgan tarbiyaviy ishlarning stsenariysi (matni), 2 ta uquvchiga psixologik - pedagogik tavsifnomalar, amaliyotchining ish dasturi, amaliyot davrida guruhning o'quv-tarbiya ishlari oylik va yillik (semestr) ish dasturlari, kasb - hunar kolleji haqida ma'lumot, kelgusida kasb - hunar kolleji ishini rivojlantirish, dars sifatini oshirishga oid fikrlari ilova qilinishi kerak.

Pedagogik amaliyotni yakunlash. Pedagogik amaliyot fakul'tet miqyosida konferentsiya o'tkazish bilan yakunlanadi. YAkunlovchi konferentsiyada pedagogik amaliyotga uzil-kesil xulosalar chiqariladi. Dokladlar amaliyotchilar faoliyatining asosiy yo'nalişlarini (darslarni o'tkazish, o'z ixtisosidan darsdan tashqari ish o'tkazish, guruh rahbari sifatida ishlash) aks ettirilishi lozim. Ular aniq bo'lishi va u yoki bu tadbirni o'tkazish vaqtida amaliyotchi qanday qiyinchiliklarga duch kelganini va ularni qanday bartaraf etgani, qanday masalalarni hal etishda o'zini dadil tutgani va bunda unga nima yordam bergani, kasb-hunar kollejida olingan qaysi bilim va o'quvlar etishmagani, amaliyot davomida uning muvaffaqiyatlari o'tishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan yoki yo'qligi, amaliyot bundan ham muvaffaqiyatliroq o'tishi uchun nimalar qilish kerakligi haqida tinglovchilarda aniq tasavvur hosil qilishi darkor. YAkunlovchi konferentsiya vaqtida xonada amaliyotchilarning faoliyatini aks ettiruvchi ko'rgazma tashkil etiladi.

Kasb-hunar ta'limi ustasining o'quv – tarbiyaviy ishlarini o'rganish. Kasb – hunar kollejida darsdan va o'qishdan tashqari ishlarni o'rganish. Ishlab chiqarish ustasi va guruh rahbarlari olib boradigan kasbga qiziqtirish ishlari bilan tanishish hamda ularni o'rganish.

Kasb ta'limi o'qituvchisining o'quv-tarbiyaviy ishlarini o'rganish

1. Kasb ta'limi darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodlarini o'rganish maqsadida darslarga qatnashish va uni taxlil qilish.
2. O'qituvchining darsga tayyorlanishini o'rganish va unga qatnashish (dars rejasini tuzish, uning moddiy - texnik bazasini tayyorlash).
3. 3 - 4 mutaxassislik darsini dars mustaqil o'tkazish va 5 - 6 darsni tahlil qilish.
4. Pedagogik tajriba orttirish uchun mutaxassislik fanlari turkumidagi darslarga qatnashish va ularni tahlil qilish.
5. 3 - 4 nazariy darsni mustaqil o'tkazish va ikkitasini tahlil qilish.
6. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining hujjatlari bilan tanishish.
7. Kasb-hunar ta'limi o'quv rejasi va dasturini o'rganish.
8. Mavzuli (kalendar' - tematik) rejani o'rganish.
9. Kasb ta'limi bo'yicha keltirilgan vaqt meyyorlarini belgilashni o'rganish.
10. Kasb bo'yicha o'quv pasportini o'rganish. O'quv texnologik hujjalarni o'rganish
11. O'quv - ishlab chiqarish ishlarning ro'yxatini tuzish
12. Guruh uchun kasb-hunar ta'limi rejasi.
13. Frontal o'tilmaydigan mavzular va o'quvchilar ish joylarining almashishi.

Tavsiyalar: Amaliyotchi talaba hunar ta'limi ustasining ishi bilan batafsil tanishadi va uning ish tajribsidan o'z mehnat faoliyatida ijodiy foydalanishi kerak.

Amaliyotchi o'zi biriktirilgan guruhning o'quv ishlarida qatnashadi, joriy, boshlang'ich tushuntirish ishlarni, so'ngra guruhsda mustaqil mashg'ulot o'tkazadi.

Amaliyotchining kasb - hunar kollejidagi metodik ishlari:

- pedagogik kengash ishlari;
- fan - metod birlashma yig'ilishlari;
- instruktiv - metodik yig'ilishlar;
- ishlab chiqarish ta'limi va nazariy ta'lim jurnallarining to'g'ri yuritilishini ta'minlash;
- ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha guruhsa oylik va (chorak) kvartal reja hamda hisobotlar tuzishda faol qatnashmog'i lozim.

Ochiq dars amaliyotchi ishtirokida fan - metod birlashma yig'ilishida tahlil qilinadi. O'tkazilgan ochiq dars uchun barcha hujjatlar (dars rejasi, konspekti, texnologik karta, muhokama qarori) talabaning pedagogik amaliyot yuzasidan hisobotiga ilova qilinadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisining darsdan tashqari ishlarini o'rganish

1. O'quv - tarbiya ishlari bo'yicha direktor muovini, tajribali usta va o'quvchilar bilan darsdan tashqari olib boriladigan ishlar haqida suhbatlashish.
2. Darsdan keyingi tadbirlarni tashkil qilish metodikasini, ahamiyatini o'rganish uchun 2 tadbirni kuzatish.
3. Darsdan keyingi tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etish.

4. Tavsiyalar: Amaliyotchi pedagogik amaliyotining boshlanishida ishlab chiqarish ustasining tarbiyachi sifatida olib boradigan ishlari mazmuni va metodikasi bilan tanishib, guruh faollari bilan yaqindan tanishadi.

5. Ishlab chiqarish ustasining tarbiyaviy (darsdan va maktab (kollej) dan tashqari) ishlari rejasini ijodiy o'rganadi.

Kasb ta'lifi o'qituvchisi va guruh rahbarining kasbga yo'naltirish ishlarini o'rganish

1. Umumta'lif maktablari, kasb - hunar kollejida ishlab chiqarish ustasi va guruh rahbarlari olib boradigan kasbga yo'naltirish ishlarining usullari va metodlari bilan tanishish.

2. Ishlab chiqarish ta'lifi ustasi kasbiga qiziqtirish ishlarini tashkil qilish va o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- kasb-hunar kollejida yosh malakali ishchilar tayyorlashda ishlab chiqarish ustasining roli;
- Nizomiy nomidagi TDPUning respublika ta'lif muassasalariga o'qituvchilar tayyorlashdagi roli;
- Nizomiy nomidagi TDPU qabul shartlari, ta'lif va tarbiya sharoitlari;
- Nizomiy nomidagi TDPU ga ekskursiya uyuştirish.

Pedagogik amaliyotni baholash mezonlari

Pedagogik amaliyot davomida talabalarning faoliyatini nazorat qilish va baholash 100 ballik reyting tizimi asosida amalga oshiriladi.

O'quv rejasidagi fanninng xususiyatidan kelib chiqib ballar quyidagicha taqsimlanadi:

«Pedagogika» fanidan – 25 ball

«Psixologiya» fanidan – 10 ball

«Gigiena» fanidan – 5 ball

Mutaxassislik fanidan – 60 ball

Talabalarning ballarda ifodalangan o'zlashtirishlari quyidagicha baholanadi:

86 – 100 ball – 5 «a'lo»

76 – 85 ball – 4 «yaxshi»

55 – 75 ball 3 «qoniqarli»

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. SHaripov SH.S. va boshqalar Pedagogik amaliyot. – Toshkent.: TDPU. – 2006. – 30 b.

2. SHaripov SH., YAkubova H., Ahmadaliev S. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar kasbiy moslashishining tashkiliy-metodik omillari (metodik qo'llanma). -T.: TDPU, 2007. 36 b.

3. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'lifi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002.

KASB TA`LIMI METODIKASI FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL eTISH VA BAJARISH METODIKASI

Reja:

1. Mustaqil ishlar xaqida va bajarish texnologiyasi
2. Mustaqil ta`lim olish metodikasi
3. Kasb ta`limi metodikasidan mustaqil ishlarni bajarishda manbalardan foydalanish.

1. Mustaqil ishlar xaqida va bajarish texnologiyasi

Mustaqil ta`lim olish etuk mutaxassis bo`lib etishishning muhim omili hisoblanadi. Bu ayniqsa kasbiy tayyorgarlik tizimida yakqol namayon bo`ladi. Ajodolarimiz ham yosh avlodning kasb-hunar egallashiga, etuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo`lib etishishiga ahamiyat berishgan.

SHarqning buyuk allomalari o`z ijodlarida mehnat qilishni, kasb-hunar egallashning ahamiyatini ta`kidlab o`tganlar. Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg`oniy, Axmad YAssaviy, YUsuf Xos-Hojib, SHayh Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Axmad YUgnakiy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnatni, kasb-hunarni ulug`laganlar. Bahovuddin Naqshbandiy (1318-1389 yil) buyuk naqshbandiylik ta`limotining asoschisi bo`lib, «Dil ba yor u, dast ba kor», ya`ni «Diling Ollohgaga, qo`ling mehnatga bo`lsin» deb o`rgatganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy deyarli har bir asarida hunar o`rganishni, halol mehnatni ulug`laganlar. Jumladan, «Farhod va SHirin» dostonida shunday yozadi: «Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tuproqqamu ketgumdir oxir».

YUqorida sanab o`tilgan buyuk allomalar o`z hayoti va ijodiy faoliyatlarida kasb-hunar egallashni ulug`lash bilan bir qatorda kasb-hunar egallashda mustaqil ish bajarishning naqadar muhimligi ta`kidlaganlar.

Pedagog olimlarning aksariyat qismi mustaqil ta`limni tashkil etish jarayonini faollashtirish masalasini umumiylu muammo sifatida qaraydilar. Jumladan, bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta`lim olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondoshish ko`zga tashlanadi. Bunda u faol, ta`limda, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta`lim muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqil ta`lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo`lishi ham talab etiladi.

Mustaqil ta`lim shaxsning o`zi tomonidan boshqarilishini e`tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o`zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o`qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta`sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir.

Mustaqil ta`lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog`liqligi sababli unga berilgan ta`rifni ham keltirib o`tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash - insonning o`z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o`z bilimi va

hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir».

Kasb ta`limi yo'nalishi bo'yicha ta`lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida shakllantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida kasb ta`limi yo'nalishi bo'yicha ta`lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Kasb ta`limi o'qituvchisi o'z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi va bu maqsadga erishishi uchun quyidagi shartlarga riosa qilishi kerak.

1. O'z bilimini mustaqil oshirish mazmunini kasb ta`limi o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha pedagogik amaliyat o'tayotgan ta`lim muassasasining o'quv ustaxonasiagi aniq sharoitlarga, amaliyotning sharoitlari, talablariga moslashtirishi kerak.

2. Kasb ta`limi o'qituvchisi ma'lum maqsad asosida va ma'lum tartibda o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma`naviy ehtiyojlarini hisobga ola bilish;

- talabalar bilan emmotsional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta`sir etish.

3. Kasb ta`limi o'qituvchisi umumiy pedagogika, psixologiya, mehnat gigienasi va fiziologiyasi, texnika va texnologiya fanlari bo'yicha savollar ro'yxatini mustaqil o'rganib chiqishlari shart.

4. Kasb ta`limi o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo'llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob`ektlarni to'g'ri tanlab faoliyat ko'rsatishi kerak.

5. Kasb ta`limi o'qituvchisi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

6. Kasb ta`limi o'qituvchisi o'z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil eti shva ma'lum maqsadga yo'naltirish zarur.

Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;

- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorlarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

YUqoridagi fikrlar kasb ta`limi o'qituvchisining mustaqil ta`lim olishi yangicha ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi.

2. Mustaqil ta`lim olish metodikasi

«Mustaqil ta`lim» tushunchasi pedagogik lug'atlarda o'quv yurtidan tashqari, mustaqil o'rganish tufayli egallanadigan ta`lim turidir, deb ta`riflangan. Ayni vaqtida

«mustaqil ta`lim olish», «o`zini tarbiyalash», «mustaqil o`qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta`limga quyidagicha ta`rif berilgan: **mustaqil ta`lim** – o`quv materialini mustaqil o`zlashtirish, murakkablik darajasi turlichcha bo`lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo`ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta`lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiylici, tizimliligi hamda o`quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog`liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilini, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda o`tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiylici va o`quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliligi, topshiriq hamda vazifalarning ko`p qirraliligi, o`zaro bog`liqligi muhim o`rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta`lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e`tibor qaratish zarur. Talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo`llay olishini, ular ijtimoiy foydali, targ`ibot–tashviqot ishlarida ishtiroy etishini ta`minlash maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta`lim jarayoni qanday amalga oshirilishi, uning rivojlanishi, o`zlashtirilgan bilimlar asosida mustaqil ta`lim faoliyati darajalarini quyidagi mezonlar bilan belgilash mumkin:

- maqsadga yo`naltirilgan, motivatsion muhitdagi mustaqil ta`lim;
- mustaqil tafakkur jarayonini ta`minlovchi ko`nikmalar;
- mustaqil ta`lim faoliyatini tashkil etishga yo`naltirilgan ko`nikmalar.

Talabalar mustaqil ta`lim olishlari jarayonida qo`shimcha adabiyotlarga murojaat qiladi, o`tilgan mavzularni qayta ko`rib chiqadi. Ko`pgina talabalar uyga berilgan ma`ruza matnlari ustida ishlaydilar, ma`ruzalar, referatlar tayyorlashda ilmiy-ommabop, davriy nashrlardan foydalanadilar.

Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda talaba bo`lajak kasbiy faoliyat muammolarini hal etish usullarini egallaydi. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda didaktikada mustaqil ta`lim darajasini oshiruvchi boshqaruv, rag`batlantirish, tashkil etish va nazorat vositalari sifatida qaraladi.

Talabaning o`quv faoliyatiga nisbatan o`qituvchi tomonidan muayyan talablarning qo`yishi ularning mazmunini boyitadi. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda topshiriqlarning berilish shakli esa oldin o`zlashtirilgan namuna bo`yicha xulosalar chiqarishni ko`zda tutuvchi boshqaruv topshiriqlari va masalalarining bajarilishi sanaladi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda va masalalarda avtonom holda mustaqil bilim olishga o`tish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda mustaqil bilim olishni amalga oshirishga imkon beruvchi topshiriqlar to`plamini yaratish uchun asos bo`la oladi.

Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarda ob`ektiv, aniq pedagogik va ishlab chiqarish muammolarini aks ettiradi. O`qituvchi o`rganilayotgan pedagogik hodisalar va ishlab chiqarish jarayonining o`zaro zid xususiyatlarini aks ettirish uchun muammoli vaziyatdan foydalansa, ob`ektiv muammo o`quv muammosiga aylanadi. Talabalar uchun tushunarli bo`lgan o`quv pedagogik va ishlab chiqarish jarayoni muammolari o`quv topshirig`i sanaladi.

O`quv topshirig`i muammosi fikrlash faoliyatini faollashtirishga imkon beradi, biroq ularning har biri ham ilmiy darajada pedagogik va psixologik tushunchalarni mustaqil shakllantirishga olib kelmaydi. SHu bois pedagogik va texnik-texnologik mustaqil ishlarni ishlab chiqishda o`quv muammolarining didaktik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Topshiriq to`g`ri ifoda etilsa, talaba tomonidan ularning qabul qilinishi osonlashadi.

Mustaqil bilim olishda ko`pincha shartlari ifoda etilmagan topshiriqlarni bajarishga to`g`ri keladi. Talaba masalani echar ekan, shartlarni o`zgartirish tartibi bilan tanishadi, aniq bir muammoni tahlil qilish va o`quv-pedagogik yoki texnik-texnologik masalani bajarishda mavjud ko`nikma hamda malakalardan foydalanadi.

Bunday pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. SHartlari ifoda etilgan, biroq echish uchun zarur bo`lgan barcha ma`lumotlar berilmagan masalalar. Ular nazariy va amaliy masalalar tarzida ikki guruhga ajratiladi. Amaliy masalalar haqiqiy pedagogik va ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog`liq bo`ladi. Bunday masalalarni echishda faqatgina aqliy faoliyat, bilim, malaka va ko`nikmalargina emas, balki sensor hamda harakatlar faolligiga erishish talab etiladi. Bu masalalar mustaqil bilim olish texnologiyalarining amaliyot bilan uzviylikni ta`minlashga yordam beradi.

2. O`zlashtirilmagan bilim, harakat va operatsiyalarga duch kelinmaydigan masalalar. Mazkur masalalar avval o`zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni yangi vaziyatlarda qo`llash, fikrlash malaka va ko`nikmalarini egallah hamda mavjud bilimlarni mustahkamlash uchun mo`ljallangan.

3. Savollar – yangi bilimlarni qabul qilish va o`zlashtirishga tayyorlikni aniqlovchi vosita. Savollarda quyidagi ikki jihat ko`zga tashlanadi: mavjud bilimlarni tekshirish va mustaqil xulosaga kelishga yo`naltirish. Savollar reproduktiv va produktiv tarzida ikki guruhga bo`linadi. Reproduktiv savollar xotirani mustahkamlash, produktiv savollar esa fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular sub`ektlarga aqliy harakatlarni o`zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, muhimini ajratish, mustaqil ravishda xulosalarga kelish va amaliy qarorlarni qabul qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi.

Mustaqil ta`lim faoliyatining birinchi bosqichida fanlarga bo`lgan qiziqish asosiy manba bo`ladi. Biroq bu qiziqish etarli darajada qat`iy va chuqur bo`lmaydi. Bunda ham maqsadga yo`naltirilgan, tizimli, maxsus tashkiliy, mustaqil ta`lim faoliyati mavjud emas. Faqat kitoblar o`qish, maxsus ma`ruzalar tinglash, mustaqil tafakkur faoliyatiga intilish bo`ladi. SHaxsning mustaqil ta`lim olish faoliyatiga qiziqishlari ham mujassamlashmagan, u ham ko`plab qo`shimcha, keng miqyosli ishlarni amalga oshiradi, biroq bularni uzviy ravishda emas, balki ba`zan va chuqur bilimga ega bo`lmay amalga oshiradi.

Mustaqil ta`lim faoliyatining ikkinchi bosqichida talabalar mustaqil (albatta, nisbatan) o`z oldiga maqsad va vazifalar qo`yib, mustaqil faoliyat mazmunini anglab, tashkiliy ishlarni amalga oshirib boradilar. Bu davrda talabalar shaxsiy – hayotiy rejalar, g`oyalarni amalga oshirish vositasi sifatida kasbiy vazifalarini hal etadilar. Ikkinchi bosqichda ularning mustaqil faoliyat qiziqishlari jiddiylashadi, fanning alohida qismini o`rganish, bu orqali o`z hayotiy rejalarini tuzish, biror kasbni egallashga bo`lgan qat`iy istak asosiy o`rin tutadi. Ongli ravishda ko`shimcha faoliyat bilan shug`ullanadi, o`z g`oyalarini amalga oshirish vositasiga aylangan mustaqil ta`lim bilan shug`ullanishga intilish paydo bo`ladi. Mustaqil ta`limni ongli ravishda tashkil etadi.

Mustaqil ta`lim faoliyatining uchinchchi bosqichida talabalar mustaqil ta`lim bilan bir necha yil shug`ullanib, o`z kasbiy maqsadlari, faoliyati yo`nalishlarini vazifalarini aniq belgilash malakasiga ega bo`ladilar.

Mustaqil bilim olish darajasini baholash o`z-o`zini baholash va o`qituvchi tomonidan baholash asosida qiyoslanadi.

O`qituvchi tayyorlash o`quv rejasiga kiritilgan ta`lim dasturlarida talabalarning o`quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo`yicha mustaqil bilim olishlari nazarda tutilgan. Barcha yo`nalishdagi bakalavr-o`qituvchi tayyorlash o`quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilangan. SHundan auditoriya o`quv ishlari hajmi haftasiga 28 soat, qolgan qismi, ya`ni 26 soati auditoriyadan tashqari mustaqil ta`lim olishga qaratilgan. Kasb ta`limi yo`nalishida bo`yicha bakalavr-o`qituvchilar tayyorlash uchun belgilangan o`quv yuklamasining umumiy hajmi 7344 soatni, shundan mustaqil ish soatlari 2992 soatni tashkil qiladi. Bundan ko`rinib turibdiki, bakalavr darajasidagi kadrlarni tayyorlash uchun o`quv rejasida belgilangan yuklamaning 48 % hajmi mustaqil ta`lim olishga qaratilgan. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalar fanlararo bog`lanishni hisobga olib, o`quv adabiyotlarini tanlaydi, ulardan kerakli ma`lumotlarni yozib oladi, ularni tahlil qilib, mustaqil ishning mazmunini o`rganadi va shu ish bo`yicha tushunchaga ega bo`ladi. Ushbu holatni quyidagi 1-jadvalda ham ko`rish mumkin.

1 – jadval

Kasb ta`limi yo`nalishi bo`yicha bakalavr-o`qituvchilar tayyorlash o`quv rejasida ajratilgan soatlar miqdori

Fanlar bloklar nomi	Talabaning ish hajmi (soatlarda)		
	Umumiy soatlar	Auditoriya mashg`ulotlari	Mustaqil ta`lim
Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1836	1088	748
Matematik va tabiiy fanlar	1140	674	466
Umumkasbiy fanlar	3278	1944	1268
Ixtisoslik fanlari	640	380	260
Qo`shimcha fanlar	450	266	184
Hammasi	7344	4352	2992

Berilgan masalaning bir qismini auditoriyadan tashqarida (kutubxona, laboratoriya xonasi va boshqalar) ham mustaqil ishlashga ruxsat etiladi. Mustaqil ish dasturini belgilashda o'tilgan mavzularning takrorlanishiga yo'l qo'yilmagan holda talaba uchun ilmiy, amaliy jihatdan muhim, o'rgangan hamda o'rganayotgan bilimlaridan ijodiy foydalanish mumkin bo'lgan savollar va masalalar qo'yiladi.

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr-o'qituvchilar tayyorlashda mustaqil ishslash ko'nikma va malakalarini shakllantirish quyidagi yo'llar asosida tartibga keltirildi:

- o'quv faoliyatida inson ob'ektiv borliqni o'rganishda, o'zining hayotiy tajribasini boyitishda, tabiatga ta'sir ko'rsatish vositalarini bilib olishda, shu bilan bir vaqtida, o'zining qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beruvchi idrok etish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi.

- talabalar amaliy faoliyati jarayonida kerakli bilim, ko'nikma va malakalar egallashlari, bu jarayonda o'qituvchi kuzatishga, o'z kuzatishlarini tajribalar yo'li bilan tekshirishga, o'quv adabiyoti bilan ishslashga, fan ma'lumotlaridan kundalik hayotida foydalanishga o'rganadi.

Kasb ta'limi metodlaridan talabalarda mustaqil ta'lim olish malakasi shakllanganlik darajasini aniqlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Ularni shartli ravishda quyidagi nomlar bilan atash mumkin:

1. O'quv materiallarini o'rganishda va mustaqil ish jarayonini tashkil etishda umumiyan tipiklikni va xususiylikni ajratib olish malakasi (ajrata olish malaka).

2. Mustaqil ish bajarilishi jarayonida texnologik jarayonlarni va texnik ob'ektlarni tanlash, amaliy bajarish, texnik chizmalar, sxemalar tuzish malakasi (tuzish malakasi).

3. Auditoriyada, auditoriyadan tashqarida, o'quv ustaxonasida va uyda mustaqil ishlarni samarali tashkil etish malakasi (tashkil etish malakasi).

4. Mustaqil fikrlash malakasi (fikrlash malakasi).

5. Materialni o'rganishda o'z-o'zini nazorat qilish malakasi (nazorat qilish malakasi).

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarini mustaqil ishslash malakalariga o'rnatish turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. Talabalarga texnik masalani, misolni echish namunasi beriladi, ular bilan tanishgandan so'ng talabalar mustaqil yoki jamoa bo'lib, shunga o'xhash masalani echadilar. Ularga amaliy ish bajarishning texnologik xaritasi beriladi, talabalar xarita asosida mustaqil holda faoliyat bilan shug'ullanadilar. To'plangan tajribalari asosida talabalarning umumiyl faoliyati rejasini tuzish, ya'ni masalani echish va amaliy mashqlarni bajarish tartiblarini foydalanadigan usullarni ko'rsatishlari taklif etiladi.

2. Talabalarga texnik masalani echishning tayyor yo'riqnomasi (reja yoki algoritmi), amaliy ish bajarish bosqichlari, uni qo'llash namunasi va mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi. Bajarish jarayonida topshiriqning eng qiyin bosqichlari jamoa bo'lib o'rganiladi.

3. Talabalarga mavzulardan biri bo'yicha masalani echish yoki texnik-ijodiy mashq bajarish rejasini beriladi. Uning amaliyatda qo'llanilishini mashq qilib, talabalar boshqa mavzuga o'tadilar, buning uchun ularga avval bajarilgan mashqlardan namuna sifatida foydalangan holda reja tuzish taklif etiladi.

4. Talabalarga mustaqil ishning umumiy rejasi va uni aniqlashtirish metodi beriladi. Ular aniq bir mavzuni bajarishga kirishib, mashg'ulot mavzusiga binoan umumiy rejaning dastlabki ko'rinishini tuzadilar, keyin texnik masalani echish yoki amaliy mashq bajarish jarayonida uni mustahkamlaydilar.

5. Talabalarga berilgan mavzu, bo'lim bo'yicha aniq tarzda masalani echishni yoki amaliy mashq bajarish jarayonini qanday rejulashtirishga oid tushunchalar beriladi. Tuzilgan rejalar keyinchalik talabalar tomonidan mustaqil ish bajarish jarayonida foydalaniladi.

3. Kasb ta`limi metodikasidan mustaqil ishlarni bajarishda manbalardan foydalanish.

Kasb ta`limida mustaqil ta`lim olishning eng maqbul shakllarini tanlash, ulardan foydalanishning adekvat usullarini qo'llash talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, ularning amaliy faoliyat jarayonida mustaqil, ijodiy topshiriqlarni samarali bajarishlariga olib keladi.

Mustaqil ta`limni tashkil etish shakllari ta`lim jarayonining har bir bosqichida namoyon bo'lsa-da, biz asosan kasb ta`limi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta`lim olish shakllarini ilmiy asoslashga harakat qildik.

a) auditoriyada tashkil etiladigan mustaqil ta`lim shakllari:

- 1a-shakl - ma`ruza tinglash va bayon etilganlarni daftarga qayd etish;
- 2a-shakl - amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish;
- 3a-shakl - chizmalar va sxemalarni o'qish, chizishni o'rganish;
- 4a-shakl - texnik modellashtirish va loyihalash.

b) auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta`lim shakllari:

- 1b-shakl - o'quv adabiyotlari bilan ishslash;
- 2b-shakl - nazorat ishlariga tayyorlanish;
- 3b-shakl - ma`ruza tayyorlash;
- 4b-shakl - masofaviy ta`lim texnologiyasi.

Quyida *auditoriyada tashkil etiladigan mustaqil ta`lim shakllarining mazmuni* haqida qisqacha to'htalib o'tiladi.

1a-shakl. Ma`ruza tinglash va bayon etilganlarni daftarga qayd etish. Kasb ta`limi fanlaridan ma`ruzani tinglash, uni daftarda qayd etish jarayonida ma`ruza manbalari varaqning bir tarafiga, ikkinchi tarafiga joy qoldirilgan holda yoziladi.

Ikkinchi tarafiga esa talaba tomonidan chiqarilgan xulosalar, texnik echimlar, mulohazalar, ularda paydo bo'lgan savollar, savollarga javob variantlari, faktlarni yozish va xar xil belgilarni qo'yish tavsiya etiladi. SHuning uchun ba'zan keng hoshiyalar qoldiriladi.

2a – shakl. Amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish. Amaliy mashg'ulotlar talabada texnik bilimni mustahkamlashga, ularni yangi vaziyatga ko'chirib, amaliy masala hamda vaziyatlarni hal qilish uchun umum-pedagogik tushunchalar va asosiy pedagogik malakalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- texnologik topshiriqlarni bajarish;
- pedagogik-texnologik vaziyatlar ishlab chiqish;
- umumlashtiruvchi texnik-sxemalarni modellashtirish;
- kerakli ma`lumotlarni topish;
- mustaqil (qo'shimcha) bilim olish.

Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy mohiyati shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda mavzuga oid turli topshiriqlarni bajaradilar yoki tajriba o'tkazadilar.

Amaliy mashg'ulot o'tkazish shakllari: turli xil pedagogik-texnologik vaziyatlarni loyihalash, pedagogik-texnik masalalarni hal etish, topshiriqlar bajarish, texnik-sxemalar bilan ishlash, o'qituvchilar bilan bahs-munozaralarda ishtiroy etish.

Amaliy va laboratoriya ishlarida talabalarning asosiy ish faoliyati texnologik mashqlar hisoblanadi.

3a – shakl. CHizmalar, sxemalarni o'qish va chizish. Kasb ta`limi yo'nalishida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari texnikaviy asoslarga ega bo'lganligi sababli chizmalarni o'qish, sxemalar chizish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarga chizmalarni o'qish va chizishni o'rgatish uchun dastlab ularni grafik elementlari bilan tanishtirish, ularda chizmalarni o'qish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Mashg'ulotlarda texnik hujjatlar sifatida texnik rasmlar, eskizlar va ish chizmalaridan foydalaniladi.

4a – shakl. Texnik modellashtirish va loyihalash. Kasb ta`limi fakul'tetlarida texnik modellash va loyihalash usullaridan ko'pincha o'quv ustaxonalaridan foydalaniladi. O'quv ustaxonalarida kasb ta`limi bo'yicha mashg'ulotlarning turli tashkiliy shakl va metodlaridan foydalanish; texnik ma`lumotlar berish; tadqiqotchilik va amaliy faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini amalga oshirish; texnik bilimlarni, mehnat usullarini, bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilish; estetik did va mehnat madaniyati ko'nikmalarini, mustaqil ishslash qobiliyatini shakllantirish; konstruktorlik-texnologik tasnidagi ijodiy masalalarni hal qilish, mehnat muhofazasi talablariga rioya etish uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.

Auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta`lim shakllari mazmuni.

1b – shakl. O'quv adabiyotlari bilan ishslash. Auditoriyadan tashqarida o'quv adabiyoti bilan ishslash mustaqil ta`lim olishning eng asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. O'quv adabiyoti bilan ishslash juda oson va qulay usul hisoblanadi. O'quv adabiyotlari bilan ishslashni barcha ta`lim oluvchilar yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. O'quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, texnik adabiyotlar, ma`lumotlar yo'riqnomalar va hokazolarni tushunish mumkin.

2b – shakl. Nazorat ishlariga tayyorlanish. Imtihonlarga va nazorat ishlariga tayyorlanish jarayoni ham mustaqil ta`limning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Ta`lim jarayonida imtihonlar va nazorat ishlari topshirishda talabalardan katta ma`suliyat talab etiladi. Imtihonlarda va nazorat ishlarida talabalar o'quv rejasini qanday darajada o'zlashtirganliklari haqida hisobot beradilar. Talabalar ijobji baholanishlari uchun nazorat ishlariga o'z xohishlari asosida mukammal tayyorlanishlari shart. Talaba har bir darsga o'z vaqtida puxta tayyorlansa ham nazorat ishlaridan oldin, baribir, qayta o'qishi, o'qiganlarini umumlashtirishi va tizimlashtirishi lozim.

3b – shakl. Ma`ruza tayyorlash. Oliy ta`lim muassasalarida o'qitish jarayonida ta`lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalanilmoqda. Ta`limning asosiy shakli esa ma`ruza hisoblanadi. Ma`ruza tayyorlash ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Bo'lajak kasb ta`limi bakalavr-o'qituvchilari «Kasb ta`limi metodikasi» fanida, pedagogik amaliyot jarayonida ma`ruza tayyorlashlariga to'g'ri keladi.

Ma`ruza vaqtida ham, har turli amaliy mashg'ulotlarda ham, asosiy e'tibor talabalarning mustaqil fikr yuritishlarini rivojlantirish, bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

4b – shakl. Masofaviy ta`lim texnologiyasi. Masofaviy ta`lim texnologiyasi an`anaviy ta`lim tizimini amalgalashda duch kelingan muammolarni hal etish yoki shart–sharoit uni taqozo qilgan holda qo'llaniladi. U ta`lim samaradorligini oshirishga imkon beradi.

«Masofaviy ta`lim» tushunchasi fanga o'tgan asrning 90 – yillarida kirib kelgan. Ingliz tilida «masofaviy ta`lim» (distant education), «Masofadan o'qitish» (distant learning) kabi variantlarda ham qo'llaniladi. Ta`lim jarayonlarini telekomunikatsiyalardan foydalangan holda tashkil etishni esa (tele training) deb yuritiladi.

Masofaviy ta`lim jarayonining asosini mustaqil ta`lim tashkil qilganligi uchun ham talabalarda ijodiy tafakkur rivojlanib boradi. Masofaviy ta`limda o'quv jarayonining muddati qat'iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob yo'llashni talaba mustaqil, o'ziga qulay vaqtida bajaradi. Ushbu holat masofaviy ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masofaviy ta`lim vositalari:

1. elektron darsliklar.
2. Tarmoq o'quv – metodik qo'llanmalari.
3. Oddiy va mul'timediali komp'yuter ta`limi tizimlari.
4. Audio o'quv – axborot materiallari.
5. Video o'quv – axborot materiallari.
6. Laboratoriya praktikumlari.
7. Uzoq masofadan ulanuvchi trenajyorlar.
8. Uzoq masofadan ulanuvchi ma`lumotlar va bilimlar ba`zasi.
9. Masofadan ulanuvchi elektron kutubxona.
10. ekspert asosidagi ta`lim tizimi [27].

Masofaviy ta`limni tashkil qilishda bir qancha vositalardan foydalanish mumkin. Ushbu vositalardan amaliy jihatdan foydalanish masofaviy ta`lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, 1999
2. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. Toshkent, 2008
3. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzoqova L.P., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta`limi uslubiyati. Toshkent, “Iqtisod–moliya”, 2006.
4. K.Mirsaidov, O’Xidirov, R.CHoriev. «Ishlab chiqarish ta`limi». T.: «O’qituvchi», 2002.
5. K.Mirsaidov. «Maxsus fanlarni o’qitish va ishlab chiqarish ta`limi». T.: «O’qituvchi», 1996.
6. Musurmonova O. O’quvchilarning ma`naviy madaniyatini shakllantirish. T.: Fan, 1993.
7. O’zbekiston Respublikasining ta’lim to’g’risidagi qonuni. T.: 1992.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: 1997.
9. Nishonov A., Haydarov B. va boshqalar. Baholash metodlari. T.:, “Osiyo taraqqiyot banki”, 2003.
10. Mavlonova R., To’raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. T.:, “O’qituvchi”, 2001.
11. Abduquddusov O. O’rta maxsus, kasb–hunar ta`limi o’quv muassasalarida ta’lim–tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari (metodik qo’llanma). T.:, “O’MKHTRM”, 2002.
12. Farberman B.L. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. T.:, «Fan», 2000.
13. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari. T: 2002.
14. Sayidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyalar. T.: «Moliya», 2003.
15. O’rta maxsus kasb–hunar ta`limi “Qishloq xo’jaligi mashinalari va jihozlaridan foydalanish va ta`mirlash” tayyorlov yo’nalishi tarmoq standarti va o’quv dasturlari. T: 2004.
16. Ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari (Metodologik aspekt: yangi pedagogik texnologiyalar, muammolar, yechimlar va baholash metodlari). –T.: TDTU, 2001.
17. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A. “Kasb ta`limi o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta`limni tashkil etish” – TDPU, Toshkent 2006
Qo’ysinov O.A. “Kasb ta`limi yo’nalishi bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta`limning ilmiy-metodik asoslari” nomzodlik diss-yasi. Toshkent 2008 2.
Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A. “Kasb ta`limi o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta`limni tashkil etish” – TDPU, Toshkent 2006 y. 50 bet.
3. Qo’ysinov O.A. “Kasb ta`limi yo’nalishi bakalavr o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta`limning ilmiy-metodik asoslari” nomzodlik diss-yasi. Toshkent 2008 y.
- 18.
19. Matkarimov K.J., Maxsudov P.M. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi fanidan ma’ruzalar matni. Namangan, 2008.

Saytlar: www.metod.ru, www.pedagog.ru www.Ziyonet, www.rambler.ru,
www.yahoo.com, <http://www.edd.ru>.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI KASB TA`LIMI METODIKASI FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR

O'quv fani: Kasb ta`limi metodikasi

Mavzular:

1. O'quv rejasidagi fanlarning bloklar bo'yicha taqsimoti, fanlar ularning ketma - ketligi, amaliyotlar o'quv soatlari miqdori, umumiy o'quv soatlari miqdorlarining kurslar bo'yicha taqsimlanishi tahlili.
2. Kasb-hunar kollejlari mutaxassislik fanlari bo'yicha taqvimiya mavzuli reja tuzish.
3. Nazariy dars reja va bayonnomasi.
4. Kasb-hunar ta`limi darslarini tahlil qilish, hujjatlashtirish tartibi.

Keysning asosiy maqsadi: Kasb-hunar kollejlari o'quv rejalarida fanlarning bloklar bo'yicha taqsimoti, o'quv soatlari miqdori taqsimotini o'rganish, mutaxassislik fanlardan taqvimiya mavzuli reja tuzishni o'rganish, dars reja konspektlarini tayyorlash, kasb-hunar darslarini tahlil qilish va hujjatlashtirishni amalga oshirishni o'rganish.

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv rejalarini to'liq tahlil qilib chiqish;
2. Mutaxassislik fanlardan taqvimiya mavzuli reja tuzish;
3. Dars reja konspektini tayyorlash;
4. Daslarni tahlil qilish;

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar oldindan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

Talaba quyidagilarni bilishi kerak:

O'quv reja, taqvimiya mavzuli reja, dars reja konspekti, dars tahlillari blankalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash.

Talaba quyidagi malakalarga ega bo'lishi kerak:

individual va hamkorlikda ishslash, kognitiv, evristik, kreativ faoliyat malakalari.

Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2001 yil 4 oktyabrdagi 400-sonli Qarori.
2. Avazboev O.I. Kasb ta`limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma. -Toshkent: TDPU, 2007. 30 b.
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta`limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta`limni tashkil etish. (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006. 52 b.
4. SHaripov SH. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). -.:TDPU, 2006y
5. SHaripov SH., Abduraimov SH. Kasb ta`limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun metodik qo'llanma. -T: TDPU, 2007. 147 b.
6. Olimov Q. T. Kasb ta`limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. -T.: 2006. 164 b.

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli aniq topshiriqlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy ob`ekti kasb-hunar ta`limi o`quv jarayonini amalga oshirishni o`rganishga yo`naltirilgan. Bu tashkiliy keys bo`lib, ma`lumotlar topshiriqlar asosida tuzilgan. Hajmi o`rtacha tizimlashtirilgan bo`lib, treningga mo`ljallangan. Mavzu yuzasidan ko`nikma va malaklarni egallahsga yo`naltirilgan. Didaktik maqsadlarga ko`ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish va yangi modelni ishlab chiqish va uni amaliyatga tatbiq etish texnologiyasini yaratish va baholashsga yo`naltirilgan.

Ushbu keysdan “Kasb ta`limi metodikasi” va “Kasbiy pedagogika” fanlarini o`qitishda foydalanish mumkin.

KEYS: “Kasb ta`limi metodikasi” fanidan amaliy mashg’ulot mavzulari bo`yicha nazariy ma`lumotlar.

Talabalar ongiga pedagogika, psixologiya, «Kasb ta`limi metodikasi», mutaxassislik va maxsus fanlar bo`yicha olgan bilimlarining yaxlit mujassamlashgan modelini shakllantirish, ularni chuqurlashtirish amalda sinab ko`rish, shuningdek, pedagogik amaliyoti orqali ularni kelgusidagi pedagogik faoliyatiga tayyorlash maqsadida «Kasb ta`limi metodikasi» fani bo`yicha ma`ruza mashg’ulotlaridan tashqari amaliy va amaliy laboratoriya mashg’ulotlari o’tkaziladi. Bu har ikkala turdag'i mashg’ulotlar o’z oldiga qo`yilgan maqsadi, o`rganish ob`ekti mazmuni, tashkiliy shakl va metodlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Talabalarning «Kasb ta`limi metodikasi» fanidan olgan nazariy bilimlarini amalda qo’llash va sinash, ularni kelgusi o`qituvchilik faoliyatida kerak bo`lgan asosiy rejalshtiruvchi (o`quv – meyoriy) hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish, ularni ishlab chiqish bo`yicha bilim, amaliy ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish amaliy mashg’ulotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Talabalar «Kasb ta`limi metodikasi» fanidan amaliy mashg’ulotlar jarayonida quyidagi hujjatlar bilan tanishib, ularni o`rganib chiqishadi ayrimlarini o’zlari tuzishni o`rganishadi.

O’quv rejasi. KXK lari o`quv rejasi tegishli mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilib, o’rta maxsus, kasb-hunar ta`limi Markazi, (o’rta umumta`lim maktablarining o`quv rejalar esa xalq ta`limi vazirligi) tomonidan tasdiqlanib u o`quv jarayoni grafigi va o`quv jarayoni rejasini o’z ichiga oladi.

O’quv jarayoni grafigida nazariy va amaliy darslar, ta`til, ishlab chiqarish amaliyoti va bitiruv malakaviy ishi yoki yakuniy davlat attestatsiyasi uchun ajratilgan vaqt xafkalarda xar bir kurs bo`yicha shartli belgilari asosida ko’rsatiladi.

O’quv jarayoni rejasida kasb hunar kollejidagi uch yillik o’qish jarayonida o’qitiladigan o`quv fanlari, har bir kursda o’qitiladigan o`quv fanlar semestrlar bo`yicha xafoda necha soatdan va o`quv yili davomida jami shu kursda necha soat dars o’tilishi kerak ekanligi ko’rsatiladi.

Kalendar mavzuli reja. Kalendar mavzuli reja o`quv rejasi va o`quv dasturlari asosida kasb-hunar kollejining har bir o’qituvchisi tomonidan o’z fani uchun mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va KXK metodik birlashmasi, pedagogik kengashi mu’okamasidan keyin KXK direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Kalendar mavzuli reja har bir bo'limni qanday mavzularga ajratilib, ular qanday ketma-ketlikda, necha soatdan o'quv yilining qaysi sanalarida o'qitilishi, bu mavzular ta'limning qaysi shakl va metodlari yordamida o'rgatilishi, har bir mavzuni o'qitishda qaysi amaliy ishni bajarish, buning uchun qanday asbob-uskunalar, xom ashyo, texnik-tekhnologik hujjatlar zarurligi, shuningdek, o'qitishning texnikaviy vositalari, adabiyot va metodik qo'llanmalarining qaysilari zarur bo'lishi, qanday yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligini oldindan ko'rsatuvchi hujjat bo'lib, har bir kurs uchun har bir semestr yoki bir yilga mo'ljallab tuziladi.

Maxsus fanlarni o'rganishning vazifasi esa o'qituvchilarning muayyan kasbiy faoliyatida ishlatilagan mashinalar, mexanizmlar, apparatlar, asbob-uskunalar va ularning tizimi to'g'risida. Ushbu soha bo'yicha ishlab chiqish texnologiyasi va uni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan materiallar to'g'risida bilim olishlaridan iboratdir. Maxsus fanlar o'z mazmuni va o'quv jarayonidagi o'mni jihatdan ishlab chiqarish texnologiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ularni o'rganish o'quvchilar zarur nazariy bilimlarga ega bo'lganlaridan keyingina ishlab chiqarish ta'lim olishlarini nazarda tutadi.

Dars rejasi. Dars rejasi tanlangan shakl va metodlar asosida mashg'ulotni qanday tashkil etish, uning tuzilishi va mazmunini qanday izchillikda amalga oirishni ko'rsatuvchi hujjat bo'lib o'qituvchi tomonidan har bir mashg'ulot uchun alohida-alohida tuziladi va KXK direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinnbosari tomonidan har bir mashg'ulotdan oldin tasdiqlanadi. Dars rejasining tuzilishi nazariy mashg'ulot, amaliy mashg'ulot, aralash va ekskursiya mashg'ulotlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Dars matni (konsepti). Dars rejasi va dars matnnini tayyorlash o'qituvchining darsga tayyorlanganligining oxirgi bosqichi hisoblanadi. Dars matni dars rejasida ko'rsatilgan izchillikda yozilishi lozim bo'lib, unda o'quvchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar, sxema va chizmalar hamda esda saqlab qolishi nisbatan qiyin bo'lgan ma'lumotlar aks ettiriladi. Bunda o'quv dasturida ko'rsatilgan me'yordan chetga chiqib ketmaslik talab etiladi.

Dars matni darslik va metodik adabiyotlar, hamda o'qituvchining ish tajribalari asosida yozilib, dars rejasi bilan bir vaqtida KXK direktorining o'quv ishlari bo'yicha muovini tomonidan tasdiqlanadi va dars rejasi va matni bilan o'qituvchi darsga kiradi.

« Kasb ta'limi metodikasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar DTS, o'quv rejasi va dasturidan tortib to o'qituvchining mashg'ulotlarga kirdguncha zarur bo'ladigan barcha hujjatlar mazmuni bilan tanishadilar va ularni ishlab chiqadi.

Tavsiya etilayotgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

1. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari o'quv rejalarini bilan ishlashni o'rganish;
2. Kasb-hunar kollejlari mutaxassislik fanlaridan taqvimiylar mavzuli reja tuzish.
3. Dars reja konseptini tayyorlash.
4. Darslarni tahlil qila olish.

1 - topshiriq:

- a) o'quv rejasi tuzilishi bilan tanishib chiqish;
- b) o'quv jarayoni grafigi bilan tanishib chiqish;
- v) o'quv jarayoni rejasi bilan tanishib chiqish;

- g) umumta`lim, maxsus va kasbiy tayyorgarlik fanlarini o'rganishga har bir kursda haftasiga necha soat, o'quv yilida jami necha soat vaqt ajratilganligini aniqlash;
- d) ishlab chiqarish amaliyotiga qancha vaqt ajratilishini, qaysi kurslarda o'tilishi va o'quv davrining qaysi paytiga to'g'ri kelishini aniqlash;
- e) kollej ixtiyoridagi soatlar miqdori qancha bo'lislini va ular nimaga ajratilishini aniqlash.

2-topshiriq:

- a) o'quv dasturi bo'limlari va ularning mazmuni bilan tanishib chiqish;
- b) o'quv dasturining tushuntirish xatida nimalar bayon qilinganligini aniqlash;
- v) o'quv dasturining mavzuli rejasi va mazmunini taxlil qilish;
- g) mavzuli rejasida qanday bo'limlar va mavzular mavjud ekanligini aniqlash va ularga ajratilgan vaqt miqdorini tahlil qilish.

3-topshiriq: Kasb hunar kollejlari kasb ta`limi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik) fanlari bo'yicha taqvimi (kalendor) mavzuli rejani to'liq ishlab chiqish 1-jadvalning barcha ustunlarini to'g'ri va to'liq to'ldirish talab etiladi.

1-jadval

Kasb ta`limi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik fanlari) dan tavqimiy mavzuli reja

№	Bo'li m va mav zu- lar	Ajrat il- gan soat	Sa na	Ta`l im shak li	Ta`l im met o-di	Ish ob`e kti	Mat e- riali	Asbob uskuna lar		Jiho z va Mos	Ko'rg az- mali quroll	Fanl ar- aro	YAngi pedag ogik texnol o- giyalar	qo'lla n-ma va adabi yot- lar	Izo x		
	1	2	3	4	5	6	7	8	Is h- ch i	O'1 - ch ov	la- mala r	11	12	13	14	15	16

Bu jadvalni to'liq to'ldirish uchun o'quv ustaxonalarida qilinadigan ishlar ro'yxati, kasb ta`lim (maxsus va kasbiy tayyorgarlik) fanlarining tabiiy-ilmiy turkumidagi fanlar bilan o'zaro bog'liqlik jadvali kerak bo'ladi.

Kasb ta`limi bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish (o'quv ustaxonasida qilinadigan) ishlar ro'yxatini ishlab chiqish 4-amaliy mashg'ulotda kasb ta`limi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik fanlari)ning tabiiy-ilmiy turkumdagi fanlar bilan o'zaro bog'liqlik jadvali 5-amaliy mashg'ulotda o'rganiladi va ishlab chiqiladi.

SHuningdek, bu ro'yxat va jadvalni tuzish uchun darslarning aniq mavzuiy rejasi zarur, chunki ular o'zaro bir-biri bilan mantiqiy bog'liqidir. Qaysi mavzu uchun qanday ish ob`ektini tanlash kerakligi va ularning izchilligi yoki kasb ta`limidagi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik) fanlardagi mavzularga boshqa fanlarning qaysi mavzularni bog'lab o'tish kerakligini aniqlash uchun, birinchi navbatda, kasb ta`limi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik) fanlari darslarida o'tiladigan mavzular va ularning ketma-ketligini aniqlash zarur bo'ldi. SHu sababli taqvimi (kalendor) mavzuli rejani ishlab chiqish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Bu bosqichda o'qitiladigan bo'lim va mavzular nomi, ularni o'tish ketma-ketligi, ularga ajratilgan soat miqdori va dars o'tiladigan sana aniqlandi (1-jadvaldagi 1-4 ustunlar).

Kasb ta'limi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik) fanlari bo'yicha mavzuli reja ishlab chiqish uchun topshiriqlar.

4-topshiriq:

- har bir kurs uchun o'quv dasturining mavzular rejasidan har bir bob uchun ajratilgan vaqt miqdori bilan tanishib chiqish;
- dasturning mavzular rejasida har bir bob uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdorini mavzular bo'yicha taqsimlash uchun tegishli boblarda o'quvchilar uchun etkazilishi kerak bo'lgan texnik ma'lumotlarlar - nazariy bilimlar va bajarilishi zarur bo'lgan amaliy ishlar mazmunini aniqlash;
- dastlab birinchi bobni, so'ng ikkinchi, uchinchi va x.k. boblarni shu boblar mazmunini to'la qamrovchi mavzularga ajratish;

5-topshiriq:

- mavzularni o'rganish tartibini tahlil qilish va mantiqiy nuqtai nazaridan ketma-ket joylashtirish;
- dasturning mavzular rejasi qismida har bir bob uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdorini mavzularga (mazmuni, xajmi va o'quvchilar uchun o'zlashtirish imkoniyatlarini xisobga olgan xolda) taqsimlash;
- natijani jadvalning 1-3 ustunlariga kiritish, har bir kursda tegishli kasb ta'limi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik) fanlaridan mashg'ulotlar uchun o'quv rejada haftasiga necha soat vaqt ajratilganini hisobga olib 4-ustunni ham to'ldirish.

4-ustunni to'ldirishda bitta mavzu ikkita sanaga to'g'ri kelmasligiga va har bir mavzu bir butun tugal bilimlar to'plamini o'z ichiga oladigan bo'lishiga e'tibor berish zarur.

1-va 2- topshiriqlarni bajarish ketma-ketligi va texnologiyasi 2-jadvalda keltirilgan. Natijalar 1-jadvaldagi 2-ustunga ko'chiriladi.

2-jadvalda Kasb-hunar kollejlarida «Mexanik ishlov berish dastogox va jihozlar» yo'nalishi bo'yicha «Mexanik ishlov berish dastgox va jihozlarni sozlash ustalari» kasbini egallovchilar o'rganadigan «Jihozlar texnologiyasi» fanining «Metall qirqish dastgoxlari to'g'risida umumiy ma'lumot» bo'limi bo'yicha boblar mazmunini mavzularga ajratish texnologiyasi keltirilgan. Bu faoliyat uch bosqichda amalga oshirildi.

2-jadval

«Jihozlar texnologiyasi» fanidan mavzuli reja ishlab chiqish texnologiyasi.

No	Mavzularning reja va dasturda berilishi	Maqsad va qilinadigan ishlar
1	2	3
Talabalar amaliy faoliyatining I bosqichi		
I.	Metall qirqish dastgohlarining mexanizmlari, yig'ma birikmalari va	Maqsad: Dasturdagi 19 ta bandni 4 ta

	buyumlar taylorlash. 24 soat.	olti soatlik mavzuga ajratish va ularni nomlash.
1.	Asosiy harakatni yurituvchisi.	Qilinadigan ishlar:
2.	Tezliklar qutisini tipi va vazifasi.	Buning uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:
3.	Tezliklar qutisini kinematik hisoblash.	a) mavzular nomi barcha bandlar mazmunini qamrash imkoniyatiga ega bo'lishi;
4.	Aylanishlar sonini grafigi va struktura setkasi.	b) nazariy va amaliy mashg'ulotlarning xisobga olinishi;
5.	Dastgohlar aylanishlar sonining qatorlari va asosiy surish xarakatlarining tezligini pog'onasiz sozlash usullari.	v) darsliklardan ushbu bo'lim mazmunini yoritilganligi darajasini aniqlash va hisobga olish.
6.	Dastgohni qobqli detallari.	Birinchi topshiriqning bandlarini bajarishda quyidagi mulohazalar yuritiladi:
7.	Stainina va ularning yo`naltiruvchilari	a) mavzularning mazmunan ketma-ketligini aniqlash bo'yicha;
8.	SHpindel uzelining konstruktsiyasi va uning vazifasi.	b) mavzularning mazmunan yaqinligini va xajmini xisobga olib qaysilarini bir-biriga qo'shib o'tish mumkinligi to'g'risida;
9.	SHpindel tayanchlari, podshipniklar turlari.	v) bu mavzular mazmunining birbiriga bog'liqligi va izchilligini xisobga olib ularni guruxlarga ajratish to'g'risida.
10.	Muftalar va ularning vazifalari.	YUqoridagi fikr va muloxazalar asosida mavzularni guruxlarga ajratish.
11.	To'xtatish moslamalari.	1-gurux-1,2,3,4 va 5-bandlar.
12.	Reversivlash mexanizmi.	2-gurux-6,7,8,9,16 va 17 bandlar.
13.	Planetalar va differentsal mexanizmlar.	3-gurux-10,11,12,13,14 va 15 bandlar.
14.	To'g'ri chiziqli xarakatni bajaruvchi mexanizm: tishli-g'ildirak-reyka, chervak-reyka, yuritish-vint-gayka.	4-guruń-18 va 19-bandlar.
15.	Dastgohni boshqarish mexanizmi.	
16.	Qirindinining xosil bo'lishi.	
17.	CHiqazish, sovitish va moylash tizimi.	
18.	Amaliy ish. Dastgohni tezliklar qutisining kinematik bog'lanishini mavjud dastgoxda tuzish.	
19.	SHpindelning aylanishlar sonini aniqlash va grafik tuzish.	

Talabalar amaliy faoliyatining II bosqichi

No	Talabalar amaliy faoliyati.	Talabalar amaliy faoliyatining natijalari.
1	2	3
1.	<p>Har bir guruhdagi mavzulari mazmuni va hajmi yana bir marta quyidagicha tahlil etiladi.</p> <p>A) 1 va 2 guruhlar hajmi va mazmuni yaxshi taqsimlangan;</p> <p>B) 3 guruhlar hajmi va mazmuni bir oz</p>	<p>1.Metall qirqish dastgohlarining tezliklar qutisi, uning aylanishlar soni va surish tezliklarini sozlash.</p> <p>2.Metall qirqish dastgohlarining yig'ma birikmalari, qobiqli detallari, ularning vazifasi va dastgohlarning</p>

	kattaroq bo'lgani uchun undagi ayrim materiallarni 4-guruhg'a amaliy mashg'ulotga qoldirish mumkin; V) 4-guruh amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan bo'lib, uning hajmi 3-banddan olingan bir qism materiallar hisobiga etarli bo'ladi.	sovitish va moylash tizimi. 3.Metall qirqish dastohlarining maftasi, maxanizm moslamalari, ularning vazifalari. 4.Metall qirqish dastgohining tezliklar qutisi kinematika bog'lanishini va shpindelning aylanishlar sonini grafigini tuzish.
2.	YUqoridagi taxlillar asosida mavzular nomi yoziladi.	

Talabalar amaliy faoliyatining III bosqichi.

Nº	Talabalar amaliy faoliyati.	Talabalar amaliy faoliyati-ning natijalari
1	2	3
1.	Mavzuning nomlanishini yana bir bor tahlil etib ko'rish va natijani 1- jadvalga ko'chirish. Kasb-hunar kollejlari o'quv rejasida «Jihozlar texnologiyasi» fanidan III-semestrda xافتасига 6 (2 - soat nazariy. 4 - soat amaliy) soat vaqt ajratilganligi sababli har bir mavzu 6 soatga mo'ljallanganligini hisobga olgan holda ularning hajmi yana bir bor tahlil qilinadi.	<p>1 - mavzu. Metall qirqish dastgohlarining tezliklar qutisi, o'ng aylanishlar soni va surish tezliklarini sozlash. 6 soat.</p> <p>2 - mavzu . Metall qirqish dastgohlarning yig'ma birikmalari, qobiqli detallari, ularning vazifasi va dastgoxlarning sovitish va moylash tizimi. 6 soat.</p> <p>3 - mavzu. Metall qirqish dastgohlarning muftasi, mexanizm va moslamalari, ularning vazifalari. 6 soat.</p> <p>4 - mavzu. Metall qirqish dastgohining tezliklar qutisi kinematik bog'lanishini vashpindelning aylanishlar sonini grafigini tuzish. 6 soat</p>

6-topshiriq:

Bu bosqichda o'quv ustaxonalarida bajariladigan ishlar ro'yxati, kasb ta'limi (maxsus va kasbiy tayyorgarlik) fanlarining tabiiy-ilmiy turkumdag'i fanlar bilan o'zaro bog'liqlik jadvali tuzilgandan so'ng bajariladi (1-jadvaldagi 5-16 ustunlar to'ldirildi). Ushbu amaliy mashg'ulotni bajarishda talabalarga quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishlari zarur.

5-ustun - ta`lim shakli-o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar tarkib toptirishda ta`lim qanday shaklda tashkil etilishini tavsiflaydi. Kasb ta`limi bir qancha shakkarda tashkil etilishi mumkin bo'lib, ular o'quv yurtlaridagi ta`lim-tarbiyaviy ishlar tavsifi o'quv materialining mazmuni, mahalliy shart-sharoitlar va ta`limning umumiy maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda tanlanadi.

- o`qitish - bu ta`lim oluvchi va kompyuter orasidagi muloqot;

- moslashuv tamoyili - kompyuterni ta`lim oluvchining individual xususiyatlariga moslashtirish;

- o`qitishning muloqotli xarakteri;

- boshqarilishi, ya`ni pedagog tomonidan ixtiyoriy vaqtida o`qitish jarayoniga tuzatish kiritish imkoniyatining mavjudligi;

- individual va guruhli o`qitish shakllarini optimal uyg`unlashtirish sharoitining yaratilganligi;

- ta`lim oluvchining kompyuter bilan muloqoti uchun qulay shart-sharoitlarni ta`minlash imkoniyatining mavjudligi.

Ta`lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan omillar sifatida kompyuter bilan muloqotni amalga oshirish uslubiy ta`minotining axborot-ta`lim muhiti va zamonaviy talablar darajasidagi axborot-ta`lim resurslari yaratilganligi, gipermatn, multimedia, malaka oshirishda axborot va kommunikatsiya tizimlarining qabul qilinganligini qayd etish mumkin.

Mustaqil ta`lim axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta`lim oluvchilarning kasbiy mahoratini qo`llab-quvvatlash, mustaqil ta`lim olish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi ma`lumotlarni uzatish vositalari, axborot ashyolari, o`zaro aloqalar qaydnomalari, dasturiy va tashkiliy-uslubiy ta`minotlarning tizimli-tashkiliy majmuidir.

Mustaqil ta`limning ochiqligini ta`minlovchi quydagi tamoyillar asosida shakllantiriladi:

- ta`lim olishni ochiq rejalashtirish, ya`ni, yo`nalish va unga mos o`quv rejasi doirasida bilimlarni oshirib borishning individual traektoriyasini tuzish erkinligi;

- o`qitish vaqt va sur`atlarining erkin tanlanishi;

- ta`lim olish davri va o`rnining erkin tanlanishi;

- yetakchi professor-o`qituvchilar kasbiy salohiyatiga tayangan holda ta`lim olish sifatining ta`minlashi;

- ta`lim oluvchilar uchun uzlusiz bilim olish imkoniyatini yaratish.

Mustaqil ta`lim ta`lim oluvchiga qo`yiladigan talablar, tizimga kirish uchun ro`yxatdan o`tish, o`quv fanlari, o`zlashtirishni baholash bloklaridan tashkil topgan bo`lib, ular quyidagicha talqin qilinadi.

Ta`lim oluvchiga qo`yiladigan talablar bloki. Mustaqil ta`lim tizimiga kiritiladigan elektron o`quv resurslarini ishlab chiqishga yagona talablarni belgilash hamda ta`lim oluvchilar bilim darajasi monitoringi mezonlarini ishlab chiqish maqsadlariga xizmat qiladi. Ushbu blok ta`lim oluvchining tizimiga kirishiga qadar ega bo`lishi talab etiladigan kasbiy bilimlari darajasini belgilab beradi.

Tizimga kirish uchun ro`yxatdan o`tish bloki. Mustaqil ta`lim tizimidan foydalanish uchun ta`lim oluvchidan dastlab belgilangan tartibda ro`yxatdan o`tish talab etiladi. Mazkur blokda ta`lim yo`nalishlari ro`yxati va ularga tegishli o`quv rejalarini taqdim etilib, shu asosda ta`lim oluvchi zarur yo`nalishni belgilab olishiga sharoit yaratadi.

Zarur yo`nalishni tanlagenan ta`lim oluvchi bilim olishning mustaqil ta`lim tizimiga kirish uchun talab etiladigan shaxsiy ma`lumotlarni belgilangan tartibda kiritib, tizimga kirish uchun uzining shaxsiy logini va paroliga ega bo`ladi. Ushbu login orqali ta`lim oluvchi bilim olishning intellektual tizimi yordamida tahlil olishni istagan vaqtida to`xtatib turishi, o`ziga ma`qul bo`lgan vaqtida qayta tashrif buyurishi va dasturni o`zlashtirishda davom etishi mumkin. Ro`yxatdan o`tishda ta`lim oluvchining shaxsiy ma`lumotlari, tayanch ma`lumotlari hamda aloqa bog`lash uchun ma`lumotlar qayd etilganidan so`ng, ularni qiziqtirishi mumkin bo`lgan asosiy savollar va ularning javoblari taqdim etiladi.

Tanlagenan yo`nalish o`quv rejasidagi fanlar asosida, qiziqishlari hamda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tizimga kirgan ta`lim oluvchiga fanlarni o`zlashtirishning shaxsiy traektoriyasini tanlash imkoniyati yaratiladi. Bu borada ta`lim oluvchiga ko`maklashish maqsadida masofaviy malaka oshirish tizimida ta`lim oluvchi eng ko`p tanlanadigan ta`lim traektoriyalari ro`yxati hamda shablon traektoriyalar taklif etiladi.

O`quv fanlari bloki modulli texnologiya tamoyillariga asosan ishlab chiqilgan bo`lib, u nazariy mashg`ulotlar, amaliy mashg`ulotlar hamda elektron maslaxat berish tizimini o`z ichiga oladi.

Nazariy mashg`ulotlar tizimi ta`lim oluvchi tomonidan nazariy bilimlarni egallash, to`ldirish, rivojlantirish hamda tizimlashtirishga qaratilgan bo`lib, unda o`quv dasturiga mos ravishda matnli, audio va video materiallar hamda animatsion ma`ruzalar berib boriladi. Ma`ruza mashg`ulotlari sinxron hamda asinxron tartibda tashkil etilishi mumkin.

O`quv fanlarini taqdim etishning elektron resurslari quyidagi shaklarda ishlab chiqiladi:

Matnli materiallar. Nazariy mashg`ulotlarni tashkil etishning matnli ma`ruza qismi eng salmoqli o`rinni egallaydi. Odatta, o`quv dasturiga kiruvchi barcha materiallar matnli shaklda yaratilib, shundan so`ng ularga qo`shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqiladi. O`quv materialining bu tahlitda taqdim etilishi an`anaviy ma`ruzalarning bir qator kamchiliklar (zarur o`rnlarni ko`chirib olish, qayd qilish, ma`ruzachi tomonidan uni qayta-qayta takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi)ni bartaraf etilishini ta`minlaydi. Ma`ruza matnida zarur ta`kidlashlarning rang, harflar

shakli hamda illyustratsiyalar orqali berilishi esa u orqali xissiyotlarni uzatilishini ta`minlaydi.

Audio materiallar. Bu turdag'i materiallar ikki rejim orqali tarqatiladi. On-line rejimidagi audiomateriallar kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tarqatiladi. Off-line rejimidagi audiomateriallar audiokassetalar, audiodisklar, fayllarga yozilgan holda tarmoq texnologiyalari orqali tarqatiladi. Ta`lim oluvchilar tomonidan ma`ruzalarni eshitish ham shu kabi qulay va ixcham bo`lgan audio qurilmalar orqali amalga oshiriladi.

Video materiallar sinxron hamda asinxron tartibda uzatiladi. Video materiallarini sinxron tartibda, to`g`ridan-to`g`ri uzatilishi pedagog va ta`lim oluvchining bevosita muloqotini ta`minlaydi, an`anaviy ma`ruzalarga xos barcha ijobiylar jihatlarni o`zida mujassamlashtiradi, pedagog va ta`lim oluvchilar bir-birini real vaqtida ko`rib va eshitib turishini ta`minlaydi.

Asinxron tartibda o`quv materiallarni uzatishda video materiallar videokassetalar va disklarga yozib olinib tarqatiladi. Bunday video materiallar tarkibiga ma`ruza, mavzuga ta`luqli ilmiy-ommabop videomateriallar, shu sohaning yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv videolavhalari kiritiladi. Bunday video materiallardan foydalanish ixtiyoriy joyda va vaqtida, takror va bajarilishi mumkin.

Animatsion ma`ruzalar Ta`lim oluvchilarga interfaol tuzilishga ega bo`lgan o`rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali yetkaziladi. Animatsion ma`ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalanib shakllantiriladi. Bunda har bir ta`lim oluvchi o`zining psixofiziologik xususiyatidan kelib chiqib, animatsion ma`ruzadagi traektoriyasi, o`zlashtirish sur`ati va o`rganish usulini tanlaydi.

Amaliy mashg`ulotlar kompyuter texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarini mujassamlashtiruvchi trenajerlar, virtual reallik asosida o`qitish vositalari, ekspert o`rgatuvchi tizimlarga asoslanadi.

Masofaviy malaka oshirish intellektual tizimida trenajyorlar aqliy va mehnat amaliyotlarini imitatoyalash asosida o`zlashtirishini ta`minlaydi.

Virtual reallik muhitni ideallashtirish tamoyillari asosida malaka oshirish jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi.

Ekspert o`rgatuvchi tizimlar ta`lim oluvchilar bilim darajasini aniqlash va rivojlantirish jarayonlarini tegishli faoliyat sohasining yetuk mutaxassis funksiyasini bajara oladigan bilimlar va ma`lumotlar banki asosida tashkillashtirishga qaratilgan.

Fan dasturlarini o`zlashtirish modulli ta`lim texnologiyasi asosida tashkil etilganligi, uni mustaqil o`zlashtirishda ta`lim oluvchilarni muntazam ravishda qo`shimcha manbalarga murojaat qilishga undaydi. Bu boradagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida bilim olishning intellektual tizimida ONLINE va OFFLINE rejimidagi maslahatlar, javobni tayanch so`z bo`yicha qidirish hamda bilimlar bankidan tarkib topgan elektron maslahat bloki ko`zda tutilgan.

ONLINE rejimida maslahatlar chat texnologiyasidan foydalanib amalga oshiriladi. Tyutor maslaxatlar beriladigan vaqt haqida avvaldan elektron pochta orqali ta`lim oluvchilarga xabar beradi. Bunday maslahatlar o`zlashtirilishi murakkab bo`lgan mavzularga duch kelinganda; amaliy mashg`ulotlarni bajarishda kutilmagan savollarga javob topishda; yangi materiallarni taqdim etishda; mutaxassislar bilan muloqot qilishda amalga oshiriladi.

Mustaqil ta`lim tizimida elektron maslahatchidan foydalanishda ta`lim oluvchi dastlab tezkor javob olish uchun ONLINE rejimida mutaxassisdan maslahat oladi, agar ushbu javob uni qoniqtirmasa, yoki tegishli javobni topa olmasa u OFFLINE rejimida yuqori malakali mutaxassisdan maslahat olishi mumkin.

OFFLINE rejimida maslaxat. Bunday maslaxatlar forumlar va elektron pochtadan foydalangan holda o`tkaziladi. OFFLINE rejimidagi maslahatlar mavzularga doir qo`shimcha materiallar berishda, amaliy mashg`ulotlarni bajarishda yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilishda, turli mavzudagi yangiliklarni tarqatishda foydalaniladi.

Javobni tayanch so`z bo`yicha qidirish ulkan axborotlar hajmidan zarur tushunchani tez va oson topish imkonini beradi. U elektron maslaxatchidan foydalanishning dastlabki bosqichi sifatida qo`llanilishi mumkin.

Bilimlar banki - o`z tarkibiga axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib, o`quv darsliklar, qo`llanmalar, kompyuter multimediali o`rgatuvchi tizimlar, audio va video o`quv-axborot materiallari, lug`at va ma`lumotnomalarni elektron versiyalarini mujassamlashtiradi. Bunday elektron resurslar majmuasi bir qator afzalliklarga ega: elektron resurslardagi ma`lumotlarni tez qidirib topish, ularni tizimli joylashuvi, materialarni ko`rgazmaliligi, keltirilgan materiallar doirasini kengligi va qo`shimcha ma`lumotlarga bo`lgan murojaat mavjudligi, materialarni ixchamligi, materialarni yetkazish usulini osonligi va tezligini yuqoriligi kabilar.

O`zlashtirishni baholash bloki Ta`lim oluvchilar tayyorgarlik sifatining kompyuter texnologiyalari asosida aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, olingan natijalar o`zlashtirish darajasini baholashda foydalanilishi mumkin.

O`zlashtirishni baholash natijalarini tegishli parol asosida ta`lim oluvchi va tizim administratori olishi mumkin. Ushbu blokda o`zlashtirishni nazorat qilish asosan test savollari asosida tashkil etilib, olingan natijalar 100 ballik tizimda baholanadi. Taklif etilayotgan bilim olishning intellektual tizimida fanlarni o`zlashtirishda minimal 70 ball, yakuniy attestatsiyani topshirish uchun fanlardan o`rtacha o`zlashtirish darjasiga minimal 75 ballni tashkil qilishi talab etiladi. Talab etilgan o`zlashtirish darjasiga erisha olmagan ta`lim oluvchi o`quv fanlari blokiga murojaat qilib, test savollariga kaytadan javob berishi mumkin bo`ladi.

Ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish natijalari axborot-tahliliy karta shaklida rasmiylashtirilib, u ta`lim muassasasida malaka oshirish sifatini ta`minlash borasida chora-tadbirlar belgilashda foydalaniladi.

O`quv jarayonida mustaqil ta`limning tashkil etish va boshqarish

XXI asrda – axborot (informatsion) texnologiyalar asrida – mustaqil ta`limning salmog`i va roli tez sur`atda ortib boradi, bu esa axborotlar bilan ishlashda yangi bilimlarga ega bo`lishga imkon beradi. Mustaqil ta`lim insonning turli xil faoliyatlarining ajralmas qismiga aylanmoqda, asta-sekin dominantli o`rinni egallamoqda. Faqat matnli axborotni namoyon etuvchi «kitob» tarzidagi mustaqil ta`limdan kompleks axborotlarga (matnli, grafikli, audiovizual) ega bo`lishni ta`minlovchi «ekran» tarzidagi mustaqil ta`limga o`tish bunga imkon beradi. Yangi axborot va kommunikativ vositalar turli xil axborotlarga keng ko`lamli va tez imkoniyat yaratgan holda hayotimizning ko`pgina: ilmiy, ta`lim, ishlab chiqarish, tashkiliy, boshqaruv va bu sohalaridagi mustaqil ta`lim jarayonini faollashtiradi. Oliy va o`rta

maxsus ta`lim vazirligining 2013 yil 2 avgusdagagi 278 – sonli “Oliy ta`lim muassasalarini zamonaviy o`quv adabiyotlari bilan ta`minlashni takomillashtirish to`g`risida”gi buyrug`iga 1- ilovasining 9 bobida mustaqil ta`limni o`qitish tizimi bo`yicha belgilangan vazifalar ham yuqoridagi fikrlarni to`laqonli tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta`limning rivojlanishi bilim, o`quv va ko`nikmalarga ega bo`lishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraluvchi yangi o`quv texnologiyalarini ta`lim jarayoniga joriy etish zaruratinini taqozo etadi.

Mustaqil ta`limi rivojlantirishda ijtimoiy, iqtisodiy, axborot va boshqa shartlar yotadi. Bu har bir ta`lim oluvchini axborot-ma`lumotlarga ega bo`lish va qayta ishslash uslubiyotiga, yashash va o`qishda o`qish usullari, yozmalar kiritishga, o`zini tayyorlash, tashkillashtirish tamoyillariga, yangi axborotlarni tahlil etishda bilimlardan foydalanishga, o`zlashtirganligida o`zini-o`zi nazorat etishga va axborotlarni almashtirish texnikasiga o`rgatishni bildiradi.

O`qishda mustaqillik (bilish, tafir etishda mustaqillik) bilish, tafir etish jarayonlarini va barcha o`quv faoliyatini faollashtirishning zaruriy shartlarini o`zida mujassam etadi, bir vaqtning o`zida doimiy va tez rivojlanib borayotgan bilimlar, texnika, texnologiyalarning yangilanib borishi, ma`naviyat va madaniyatning rivojlanishi, adabiyot va san`atning takomillashtib borish sharoitida shaxsni hayotga va mehnat qilishga tayyorlashning yo`llaridan biri hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o`qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofaviy ta`lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o`zlashtirishga katta e`tibor qaratilgan.

Mustaqil ta`limni tashkillashtirishda talabalar uchun quyidagilar asosiy hisoblanadi:

- fikrlash qobiliyatini rivojlantirish (psixologik asoslar bo`yicha);
- amaliy qobiliyatni yuksaltirish (mutaxassislik asoslari bo`yicha);
- tashkiliy-texnik bilimlarni qo`llashni va mahoratni yuksaltirish (mahoratni orttirish orqali);
- ilmiy tashkillashtirish (ta`limda o`qishni davom ettiruvchi iqtidorli yoshlarni tarbiyalash orqali).


Mustaqil ta`lim tashkillashtirishga pedagogik muammo sifatida qaralsa unda o`qitish marketingi tashkiliy, uslubiy va tarbiyaviy nuqtai nazarlarni o`z ichiga oladi.

Mustaqil ta`limning samarali tashkiliy-uslubiy ta`minotinining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ta`limni an`anaviy o`qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy va uzlusiz o`zaro aloqasini yaratish;
- mustaqil ta`limdan foydalanish ehtiyojini belgilangan masalani hal etish, o`zining kasbiy va ma`naviy qiziqishlarini qondirish vositasi sifatida shakllantirish;
- mustaqil ta`limni pedagogik va shaxsiy boshqarish (jamoa va individual tarzda);
- mustaqil ta`limning axborot resurslariga keng va tezkor imkoniyatni ta`minlash;
- mustaqil ta`limning samarali texnologiyalarini va uning sifati ustidan amaliy nazoratni qo`llash.

Mustaqil ta`limda talaba va o`qituvchining harakatlari quyidagi sxema bo`yicha bajarilishi lozim:

T A L A B A



O'QITUVCHI



Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida o`quv-tarbiyaviy jarayonga tizimli yondoshishni hisobga olgan holda ko`rsatilgan chora-tadbirlar kompleksining bajarilishi kadrlar raqobatbardoshligining garovi bo`lib xizmat qiladi.

Tashkiliy jihatdan o`qituvchi va talabandan mustaqil ta`limni aniq tashkillashtirishni talab qiladi. Informatsion-axborotlar davri tez rivojlanib borayotgan bir davrda nima uchun o`quv yurtlarida barcha talabalar ham iqtidorli, ilmni o`zlashtira oladigan, mustaqil fikr yurita oladigan bo`lib yetishmaydi? Ushbu sohada mulohaza yuritadigan bo`lsak bilim beruvchi va bilim oluvchi, ya`ni talabalarni alohida o`rganishimiz kerak bo`ladi. Mustaqil ta`limni olib borish o`qituvchidan auditoriya soatlarini olib borishga

qaraganda o`zgacha ahamiyat kasb etadi. Ba`zi hollarda mustaqil ta`limni ma`ruzachi, o`qituvchi (amaliy, tajriba mashg`ulotlarini olib boruvchi) lar yaxshi olib borolmasliklari mumkin. Mustaqil ta`limni o`z sohasi bo`yicha kasb sohibi bo`lgan, o`z fanini sevadigan, boshqa fanlar bilan bog`lay oladigan hamda pedagogik mahoratga ega bo`lgan, har bir talabani qadrlaydigan, talaba fikri, qiziqishi, taklifini inobatga oladigan o`qituvchilar olib borishi maqsadga muvofiqdir. Uning asosiy vazifasi faqatgina bilim va ko`nikma berish emas, balki bilim va ko`nikmalarni egallashida o`zlarini shaxsiy yo`llarini topishga ko`maklashishdir. Uning ustuvor vazifasidan biri – talabalarga ta`lim olishida shunday strategiyani shakllantirishi kerakki, talaba o`qituvchisiz ham o`zi bilim olishni hal qila olsin.

Mulohazamizni ikkinchi ishtirokchisi bu talaba qanday bo`lishi kerak. Har bir talaba o`qituvchi tomonidan yuqorida keltirilgan xususiyatlarni qadrlashini va unga javoban o`z munosabatini shakllantirishini esda tutishimiz lozim. Talabani quyidagi xususiyatlarini anglab yetmoq, o`rganmoq kerak:

- bilim olishga ehtiyojini;
- hayotiy tajribasini;
- qadriyat va e`tiqodini;
- intellektual mahoratini;
- bilim olishga yondashuvini;
- o`qishga ishtiyoqini;
- fe`l-atvorini;
- ma`lumotlarni qabul qilish qobiliyatini;
- tarbiyasini;
- til bilishini;
- kompyuter savodxonligini;
- esda saqlash qobiliyatini.

Tarbiyaviy jihatdan o`qituvchi tomonidan talaba mustaqil ta`limini tashkillashtirishga katta ahamiyat berilishi bilan asoslanadi. Mustaqil ta`lim tashkil etishda quyidagi tamoyillardan foydalanadi:

- o`qitishning tarbiyaviylgi;
- o`qitishning ilmiyligi;
- o`qitishga tizimli yondashuv;
- nazariya bilan amaliyotni bog`liqligi;
- talabalarni ongliligi va faolligi;
- o`qitishning ko`rgazmaliligi.

Uslubiy jihatdan mustaqil ta`limni tashkil etish auditoriya mashg`ulotlari hajmi uchun bajariladigan ishlar bilan teng va undanda yuqori bo`lishi ko`zda tutiladi.

Mustaqil ta`limni asosiy elementlaridan biri talabalarni o`qitishda tashqi va ichki nazoratni o`rnatishdan iboratdir. Tashqi nazorat shakli sifatida ta`lim standarti, o`quv rejasи, o`quv jarayonini baholash mezonlari, o`quv axborot resurslarini yaratilishi va o`qituvchilarni malaka oshirishlari inobatga olinsa, ichki nazorat shakli sifatida talabaning qiziqishi, o`quv holati, bandlik holati, ijtimoiy hayoti va o`quv jarayonining marketingi o`rganiladi.

Mustaqil ta`limni uslubiy jihatini tashkillashtirishda quyidagilar inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

- ijodiy ta`lim markazini tashkil etishga;
- pedagogik texnologiyalarga;
- o`qitishni informatsion-axborot manbalar bazasiga;
- mustaqil ta`limni qo`llab-quvvatlovchi bilimlarni baholash tizimiga;
- kafedralar bilan ish beruvchilarni ijtimoiy hamkorligiga;
- bozor iqtisodiyotini ta`sirini kuchayib borishiga;
- zamonaviy texnik ta`minotni yanada kuchaytirishga;
- o`quv jarayonini boshqarishda demokratik tamoyillarga yondashuvga;
- boshqaruv bo`g`insi tomonidan yangiliklarni qo`llab-quvvatlashga.

Mustaqil ta`limning shakllari

Mustaqil ta`limning turli xil shakllari mavjud bo`lib, ular quyidagilardir:

Darslik yoki o`quv qo`llanmalar bo`yicha fanlar boblari va mavzularini o`rganish (ularning yetarlicha miqdorda mavjudligida). Bunday tashkiliy shakl odatga ko`ra amaliy jihatdan mustaqil ta`lim tajribasiga ega bo`lmagan birinchi kurs talabalari uchun maqsadga muvofiqdir. Bu ishlarning natijalari bajarilgan referatlar, individual topshiriqlar va boblar bo`yicha seminarlar tekshiriladi.

Tarqatma materialllar bo`yicha ma`ruzalar qismini o`zlashtirish, bu esa o`qituvchi uchun asosiy materialni bayon etishga katta e`tibor ajratishga imkon beradi. Tarqatma material har bir ma`ruza uchun tayyorlanadi. Mustaqil ta`limning bunday tashkiliy shakli umumkasbiy va maxsus fanlar uchun odatga ko`ra yuqori kurs talabalari uchun maqsadga muvofiqdir. Ushbu ishlarning natijalari tegishli attestatsiya bosqichlarida tekshiriladi.

Avtomatlashtirilgan o`rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash, bu esa ma`ruza mashg`ulotlari doirasida ham, laboratoriya ishlariga yoki amaliyot mashg`ulotlariga tayyorgarlik doirasida ham olib boriladi. Mustaqil ta`limning bunday shakli barcha kurs talabalari uchun maqsadga muvofiq bo`lib, axborot texnologiyalar keng qo`llaniladigan ta`lim muassasalari uchun xosdir.

Maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo`yicha fanlar bo`limlari yoki mavzulari ustida ishslash: hisoblash, grafik topshiriqlar yoki referatlar, kurs ishlari yoki loyihalar, bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda. Mustaqil ta`limning ushbu tashkiliy shakli barcha kurs talabalari uchun maqsadga muvofiqdir. Uning natijalari tegishli reyting – nazorat bosqichlarida tekshiriladi.

Yangi texnikalarni, jihoz va uskunalarini va texnologiyalarni o`rganish: malakaviy amaliyotlar o`tkazishda, tadqiqotlarda ishtiroy etishda, ishlab chiqarish buyurtmasi (real) muayyan ishlanmalarni bajarishda. Bu ish shakli ta`limning ishlab chiqarish va ilmiy-tekshirish institatlari (ITI) bilan integratsiyasida bo`lishi mumkin. Natijalar hisobotlari qabul qilishda tekshiriladi.

Talabalarning ixtisoslashtirilgan konstrukturli byurosi (MB) yoki ichki korxonalaridagi ishlari: o`qituvchi yoki mutaxassislar rahbarligida davlat byudjetidagi ham OTMning xo`jalik shartnomasi asosidagi mavzulari doirasida. Mustaqil ta`limning ushbu shakli odatga ko`ra yuqori kurs talabalari uchun xarakterlidir.

Talabaning ilmiy-tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog`liq bo`lgan fanlar bo`limlari yoki mavzularini chuqur o`rganish. Mustaqil ta`limning bu shakli barcha kurs talablari uchun maqsadga muvofiqdir.

Faol o`qitish uslubidan foydlaniladgan o`quv mashg`ulotlari (xizmat o`yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kolloviumlar va b.), talabalar tomonidan fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyat dolzARB muammolari bo`yicha tayyorlangan.

Masofaviy (distansion) ta`lim.

Mustaqil ta`limda bajariladigan topshiriqlar va uning bajarish usullari va shakllari fan xususiyatidan kelib chiqib quyidagilarni o`z ichiga olishi mumkin.

Yozma ish – talaba berilgan mavzuni mustaqil o`rganib o`z fikrini yozma ish shaklida bayon etadi (konseptlashtiradi);

Testlar – talaba berilgan mavzuni mustaqil o`rganib mavzuga taalluqli testlarni tuzadi;

Laboratoriya hisobotlari – talaba auditoriyada bajarilgan laboratoriya tajribalari natijalari bo`yicha hisob-kitob ishlarini amalga oshiradi va hisobot shaklda tayyorlaydi.

Referat – ma`ruza, seminar mashg`ulotda yoritilgan savollar bo`yicha, qo`shimcha manbalardan o`qib o`rgangan bilimini yozma namoyon etadi va kelgusi seminar mashg`ulotiga himoya qilib aytib beradi.

Sxema chizish – talaba mavzuga tegishli sxemalarni adabiyotlardan, Internet yangiliklaridan olib chizib keladi va tushuntirib beradi.

Model namunalarini tayyorlash – mavzuga tegishli rasmlardan, sxemalardan foydalanib alohida detal yoki uzellarni, qismlrni modelini tayyorlaydi.

Masala yoki misol yechish – mavzuga tegishli bo`lgan bir necha misol va masalalarni uy topshirig`i asosida o`rganib yechib keladi.

Anjumaga tayyorgarlik ko`rish – tegishli mavzu bo`yicha ilmiy ish natijalari asosida maqola tayyorlash va anjumanlarga ma`ruza qilishga tayyorlanish.

Og`zaki tayyorgarlik – mavzuga tegishli savollarga tayyorlanish, qo`shimcha adabiyotlardan foydalanish va nazorat savollariga aniq javob berish qoibiliyatini shakllantirish.

Plakat (ko`rgazmali quroq) – mavzu bo`yicha rasm yoki sxemalarni plakatda aks ettirish. Topshiriqni darsda aytib berishda plakat ko`rgazmali quroq sifatida foydalaniladi.

Loyiha – ma`lum bir mavzu bo`yicha topshiriqni semestr davomida bajarib boriladi. Loyihani bajarilishi kerak bo`ladigan qismlari yuqorida keltirilgan mustaqil ta`lim shakllari holida ham bajarilishi mumkin. Loyiha fan yakunlanish arafasida himoya qilinadi va alohida baholanadi.

5.4. Mustaqil ta`lim axborot- resurslari manbai va tamoyillari

Mustaqil ta`limni samaradorligi ta`lim dasturining mazmunining uzviyligi hamda uni axborot-resurs manbai ta`minoti va o`quv faoliyatining samaradorlgiga bog`liq.

Mustaqil ta`limda qanday resurslardan foydalanishi quyidagi o`qitish marketingida namoyon etiladi:

- o`qitish motivatsiyasi
- o`quv-uslubiy ta`minot
- tashkiliy ta`minot
- laboratoriya va amaliy mashg`ulotlarning moddiy texnik bazasi
- ilmiy baza
- informatsion muhit

- nazorat samaradorligi
- elektron ta`lim resurslari

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 iyun 2006 yilgi №PK-381-sonli Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta`minlashni tashkil etish to`g`risidagi qaroridagi axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari:

- ta`lim muassasalari o`quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta`lim olishi va mustaqil ravishda ta`lim olishiga ko`maklashish;

- milliy ma`naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko`lamda targ`ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo`lishini ta`minlash, ma`naviy boy va uyg`un kamol topgan shaxsning ijodiy o`sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

- yangi axborot texnologiyalari (ma`lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko`rsatish;

- madaniy, ta`lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta`lim muassasalari, mahalliy o`zini o`zi boshqarish organlari, milliy madaniy markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish etib belgilangan ushbu qaror mustaqil ta`limni axborot resurslari manbai bilan ta`minlashda keng yo`l ochib beradikim, har bir mustaqil tayyorlanayotgan talaba o`ziga berilgan topshiriqlarni to`liq bajarishiga imkon yaratdi.

Fan dasturida ko`zda tutilgan vazifalarni bajarish, mavzularni to`liq o`zlashtirilishi uchun o`qituvchilar o`z fanidan o`quv-uslubiy majmuani yaratib axborot-resurs markazi bazasiga, «ZiyoNET» tarmog`iga joylashtirishlari lozim.

Mustaqil ta`limning birinchi asos bo`la oladigan tamoyili – bu o`quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirishda ham, amalga oshirishda ham uning tizimliligidir. Mustaqil ta`lim materiali – bu bir butun o`rganiluvchi fanning (yoki kursning) qismidir. Fanning o`quv dasturida rejalahtirilgan bo`lishi va uning uchun tegishli o`quv-uslubiy ta`minot ishlab chiqilgan bo`lishi lozim.

O`quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish bosqichida uchta ko`rinishdagi boshqaruvni: ma`muriy, pedagogik va ta`lim olish sub`ektlarini o`z ichiga oluvchi mustaqil ta`lim boshqaruvga **tizimli yondoshish** zarur.

Ma`muriy boshqaruv - mustaqil ta`limning tashkiliy, moddiy-texnik va axborot ta`minoti bilan bog`liq bo`lishi kerak;

Pedagogik boshqaruv – konsultatsiyalar, nazorat va mustaqil ta`lim sifatini baholash;

Ta`lim olish sub`ektlari boshqaruvi – mustaqil ta`limni tashkillashtirish motivatsiyasi va shakllari bilan.

Mustaqil ta`limning ikkinchi asos bo`la oladigan tamoyili – bu talabalarning mustaqil ta`limdagagi maqsadga erishishga rag`batlantirish motivatsiyasi. Motivatsiya talabada mustaqil ta`lim jarayoniga nisbatan kasbiy, iqtisodiy, tarif etish, ma`naviy va boshqa qiziqishlarni uyg`otishi lozim. Muammoni (vazifani) hal etish xohishining mavjudligi, paydo bo`lgan savolga javob topish – bu mustaqil ta`limda muvaffaqiyatga erishishning zaruriy shartidir.

Mustaqil ta`lim natijalarga kasbiy motivatsiya omili ahamiyatli ta`sir ko`rsatadi, bu esa kasbga nisbatan ijodiy munosabatda bo`lishda muhim rol o`ynaydi. Agar talaba kasbni ongli ravishda tanlasa va uni o`zi va jamiyat uchun ma`qul deb topsa, u holda

o`qishga nisbatan tasodifan va anglamagan holda kasb tanlaganiga qaraganda boshqacharoq (yaxshiroq) munosabatda bo`ladi.

Shuning uchun o`qituvchilarning muhim vazifalaridan biri (ham umumkasbiy, ham maxsus fanlarda) bitiruvchining muayyan amaliy faoliyati uchun tabiiy ilmiy va gumanitar fanlarning ahamiyatini argumentli tarzda tushuntirib berishidir. Biroq, kasbga nisbatan ijobjiy munosabat o`zidan o`zi ahamiyat kasb etmasligi mumkin, agar kasb haqida layoqatli (kompetent) tasavvur bilan mustahkamlanmasa. Bu tasavvur laboratoriya ishlari va amaliy mashg`ulotlari bajarishda, malakaviy amaliyotlar o`tish va boshqalarda shakllanadi.

Talabalarning tanlagan kasblariga bo`lgan munosabatlari muammolarini o`rganishda quyidagi masalalarni qarash zarur:

- kasbning qoniqarliligini;
- darsdan darsga bo`lgan qoniqish dinamikasini;
- qoniqishni shakllantirishga ta`sir etuvchi omillar (ijtimoiy-psixologik, psixologik-pedagogik, differensiallik-psixologik, shu jumladan jinsi-yoshi);
- tanlangan kasbga nisbatan ijobjiy va salbiy munosabatni belgilab beruvchi motivlar ierarxiyasini;
- o`qitish texnologiyalari va uslublarini.

Mustaqil ta`lim didaktikasi – bu uchinchi tamoyil bo`lib, mustaqil ta`limda o`qishning maqsadi, mazmuni, qoida va uslublarini belgilaydi. Mustaqil ta`lim bosh, yurak, qo`l, ko`z va quloqlardan (o`qituvchi-maslahatchilarning axborotlari) foydalanuvchi **faol bilish modelida** mujassam bo`lishi lozim. Bosh – fikrlash uchun, yurak – his etish uchun, qo`llar esa ish uchun kerak.

Agar o`zi ta`lim oluvchi o`qiydigan, ko`radigan va bajaradigan bo`lsa, u holda o`zlashtirish jarayoni bosh miyaning turli qismlarida faoliyat ko`rsatishi natijasida to`la bo`ladi. Mustaqil ta`limning o`quv-uslubiy ta`minoti aynan shunday bo`lishi lozim.

Mustaqil ta`limga ikki asosiy yondoshuvni belgilash zarur:

1. Ta`lim oluvchilarda noan`anaviy masalalarni hal etish asosida yotuvchi bilimlarni shakllantirish. Ushbu holda bilish (tafar etish) faoliyatchilar uchun yangi bo`lgan faoliyat tajribasini avval o`zlashtirilgan, shakllantirilgan tajriba bazasida bilimlarni, o`quv va ko`nikmalarni kuzatish yo`li bilan to`plash va namoyon etishdan iboradir.

2. Ijodiy faoliyat uchun zamin yaratish. Bunda bilish faoliyati ma`nosи o`rganilayotgan ob`ektning tub ma`nosiga chuqur kirib borishdan, ilgari ma`lum bo`lmagan tamoyillar, g`oyalarni shakllantirish, yangi ma`lumotlarga ega bo`lish uchun zarur bo`lgan yangi aloqalar va munosabatlarni o`rnatishdan iborat.

Mustaqil ta`limning to`rtinchi asoslovchi tamoyili – bu olingan bilim, o`quv va ko`nikmalarni tizimli nazorat etish va baholash bo`lib, fanlar (yoki darslar) bo`yicha bilim, o`quv va ko`nikmalarning bir butunligining qismidir.

Tizimli nazorat – bu yuzaga keluvchi muammolarni ular jiddiyashib ketmasidan oldin ko`ra bilish va hal etish uchun zarur bo`lgan – qayta (teskari) aloqadir. Mustaqil ta`limni o`z ichiga oluvchi o`quv tarbiyaviy jarayonda (O`TJ) da ushbu qayta aloqa quyidagilar uchun mo`ljallangan:

- ta`lim oluvchilarning rejalahirilgan o`quv maqsadlarini o`rganishda erishgan yutuqlarini aniqlash va baholash;

- o`qishning past natijalari sabablarini aniqlash;
- O`TJning borshini baholash va kamchiliklarni bartaraf etish bo`yicha tuzatish harakatlarini ishlab chiqish.

5.5. Mustaqil ta`limni tashkil etishda talabalar bilimini baholash bo`yicha umumiyl talablar

Ma`lum bir fanni o`qitishdan oldin, talabalar shu kursning so`ngida nimalarni o`rganishlarini ifodalashdan boshlagan yaxshi. Odatda bu ma`lum bir bilim va ko`nikmalar ro`yxati sifatida bo`lishi mumkin. Talabalar bilimini baholashga tayyorgarlikning keyingi bosqichi baholashning tegishli usuli (shakli)ni tashlashdir. Masalan siz talabalaringizni tadqiqot olib borishga o`rgatayotgan bo`lsangiz, baholash shakli sifatida loyiha olib borishi mumkin. Talabaning o`z nuqtai-nazarini ifodalashi va uni isbotlash mahoratini tekshirish uchun og`zaki prezентatsiyalar qo`l keladi. Agar siz talabaning u yoki bu sohani bilishini tekshirmoqchi bo`lsangiz referatdan foydalanish mumkin. Insholar yordamida talabalarning o`z fikrlarini yozma bayon qila olishlarini tekshirsa bo`ladi. So`ngra har bir baholash shakli uchun baholash mezonlari tuziladi (talaba qaysi hollarda “a`lo”, “yaxshi”, “qoniqarli”, baho olishi mumkinligini ko`rsatuvchi tizim). Barcha bosqichlarni o`rganganingizdagina siz nimani qanday baholashingiz kerakligi haqida, qanchalik haqqoni ekanligingiz to`g`risida ishonch hosil qilishingiz mumkin.

Bu jarayon, jumladan baholash mezonlari ham shunday tuzilgan bo`lishi kerakki, u hamma uchun – sizning supervayzerlaringiz, boshqa o`qituvchilar, talabalaringiz uchun tushunarli bo`lishi zarur. Shuni qayd etish lozimki, agar talabangiz siz qo`yan bahodan norozi bo`lsa, baholash mezonlari yordamida siz nima uchun u yoki bu ballni qo`yaningizni isbotlab bera olasiz.

Tekshirayotganda shuni yodda tutingki, elektron ta`lim resurslari rivoji bilan talabalar plagiati (ko`chirmakashlik) nomli muammo avj olmoqda. Bunda talabalar referat kurs, diplom yoki boshqa malakaviy ishlarni o`zları bajarmay internetdan ko`chirishmoqda. Bizning yuqori texnologiyalar va deyarli barchaning internetdan foydalanish imkonini bo`lgan davrimizda tekshirilayotgan ishning sifatiga alohida e`tibor qaratish lozim. Agar talaba ishni o`zi yozganligiga shubhalansangiz hamda internetdan foydalanish imkonini bo`lsa, tekshirib ko`rishga erinmang.

Plagiat juda jiddiy akademik qoidabuzarlik hisoblanadi, shu bois bunday qoidabuzar talabalarni aniqlash uchun barcha kuchni safarbar qilish kerak. Shunda bunday talabalar soni qisqarib, talabalar esa o`z ishlariiga jiddiy yondoshishlariga turtki bo`lishi ajab emas. Yozma ishlarni ko`rib chiqishga siz ushbu ishlarni mustaqil ravishda bajarishga qanchalik tayyor ekanligini doimo yodda tutishingiz lozim.

Talabalarning bilimlarini baholashning usullari haqida fikr yuritishdan avval baholash mohiyati va maqsadlariga muvofiq ikki turdag'i nazoratga bo`lish mumkinligini qayd etish lozim. Birinchi turdag'i nazorat joriy nazoratdir. Bunda talabalar o`quv materialini qanchalik o`zlashtirganligini tekshirishga qaratilgan bo`lib, unda asosiy maqsad butun semestr davomida talabalar va o`qituvchi o`rtasida muntazam aloqa o`rnatishdadir. Bunday turdag'i baholash talabalarga quyidagilarni belgilashga yordam beradi:

- saviyasini o`sish darajasi;

- materialni qanchalik o`zlashtirganligi;
- qayerda kamchiliklar borligi, qaysi masalalarga ko`proq e`tibor berish kerakligi;
- o`quv kursi bo`yicha muayyan bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirish bo`yicha talabaning yondashuvi qanchalik samarali ekanligi.

Qolaversa, o`qituvchi uchun bu turdag'i baholash dars berish uslubining samaradorligini, talabalar o`zlashtira olmagan muammoli masalalarni ertaroq aniqlashda ko`maklashadi. Joriy nazorat turi tez-tez o`tkazilib turadi. Bilimlarni tekshirish qanchalik tez-tez o`tkazilsa, talabalarning bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash imkon shuncha ko`payadi va o`qituvchi o`qish jarayonida bunday tomonlarga ko`proq e`tibor qaratishga harakat qiladi. Ammo bunda o`qituvchini haddan tashqari ko`p tekshirish uchun ishlar bilan band qilib qo`yilsa, o`qituvchi o`z ishini sifatli qilishi, talabalar bilan samarali muloqot o`rnatishga qiynalib qolishi mumkin. Talabalarni ham ortiqcha vazifalar bilan toliqtirib bo`lmaydi, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, talabalarda bir semestrda bir emas bir nechta fan o`qitiladi. O`quv soati kam bo`lgan fanlarni blok usulda o`qitish va semestr yarmiga borib baholash orqali semestrda fanlar soni kamaytiriladi. Joriy nazorat turlarini oqilona taqsimlash muhim masala hisoblanib, katta e`tibor talab etadi.

Talabalar bilimini baholashning ikkinchi turi yakuniy nazorat bo`lib, kursning maqsadlariga qanchalik erishganligi, o`qitilgan talabalar tomonidan qanchalik o`zlashtirilganligini ko`rsatadi. Yakuniy nazorat talabalarni o`zlashtira olgan va olmaganlarga tasniflash mexanizmi hamdir. Bunday turdag'i baholash talabalarning rasmiy holatiga (stipendiya miqdori, keyingi bosqichga o`tish-o`tmasligi, akademik daraja olish-olmasligiga va b.) ta`sir ko`rsatadi.

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

“Kasb ta'limi metodikasi” bo`yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o`rganish jarayonining tarkibiy qismi bo`lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to`la ta`minlangan.

Talabalar auditoriya mashg`ulotlarida professor-o`qituvchilarining ma`ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o`rganish maqsadida qo`shimcha adabiyotlarni o`qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo`yicha testlar yechadi. Mustaqil ta`lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarini bajarish, qo`shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o`rganish, kerakli ma`lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma`lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma`ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta`limsiz o`quv faoliyati samarali bo`lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg`ulot olib boruvchi o`qituvchi

tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma`ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Kasb ta'lifi metodikasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 9 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajar. muddat.	Hajmi
1	Ta`lim tizimlari va turlari	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi tomonidan belgilanadi.	1- hafta	2
2	Kasb-hunar kollejlari haqida ma'lumot to'plang, tayyorlov yo'nalishlari	Ilmiy-texnik adabiyotlar, maqolalar, internet va boshqa ilmiy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi	2- hafta	2
3	Mehnat malakasi deganda nimani tushunasiz	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi belgilanadi.	3-hafta	2
4	O'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini hisobga olish qanday natijalar beradi	Ilmiy-texnik adabiyotlar, maqolalar, internet va boshqa ilmiy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi	4-hafta	2
5	Hozirgi kunda kasb-hunar ta'limiда qaysi sistema ishlatalidi	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi belgilanadi.	5-hafta	2
6	O'quv ustaxonalarida sanitariya-gigiena talablari va ish rejimi	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi belgilanadi.	6-hafta	2
7	Dars kasb-hunar ta'limining asosiy shakli. Darsga qo'yiladigan didaktik talablar	Ilmiy-texnik adabiyotlar, maqolalar, internet va boshqa ilmiy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi	7-hafta	2
8	Kasb-hunar ta'lifi o'quv ustaxonalarida qanday dars tiplaridan foydalaniladi	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi belgilanadi.	8-hafta	2
9	Kasb ta'lifi o'qituvchisining ta'lim jarayonida ta'sirchanligi	Ilmiy-texnik adabiyotlar, maqolalar, internet va boshqa ilmiy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi	9-hafta	2
10	O'qituvchining o'quv yiliga tayyorgarligi	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi belgilanadi.	10-hafta	2
11	O'qituvchining darsga tayyorgarligi	Ilmiy-texnik adabiyotlar, maqolalar, internet va boshqa ilmiy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi	11-hafta	2
12	O'qituvchining ijodkorligi nimadan iborat	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi belgilanadi.	12-hafta	2
13	Kasb ta'lifi o'qituvchisiga	Topshiriq professor mavzusi o'qituvchi belgilanadi.	13-hafta	2

	va o'quv ustasiga qo'yiladigan talablar	professor tomonidan Ilmiy-texnik maqolalar, boshqa ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi		
14	Kasb ta'limi o'qituvchisining kasb-korlik sifatlari		14-hafta	2
15	Muammoli o'qitish, muammoli vaziyatlar xosil qilish nima		15-hafta	
16	O'quv mashg'ulotlariga moddiy texnika bazani yaratish nima uchun kerak		16-hafta	
17	KHK da mashg'ulotlar turlari, tarkibi va ularga metodik tayyorgarlik		17-hafta	
18	Amaliy ishlarni baholashda qanday faktorlar hisobga olinadi			
	Jami			28

VII. GLOSSARY

T/r	O'zbek tili	
1.	shaxs	kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti, ta`lim sohasidagi xizmatlarning iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchi
2.	davlat va jamiyat	ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari
3.	uzluksiz ta`lim	malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo`lib, ta`limning barcha turlarini, davlat ta`lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko`rsatish muhitini o'z ichiga oladi
4.	fan	yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.
5.	ishlab chiqarish	kadrlarga bo`lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta`minlash jarayonining qatnashchisi
6.	Akademik litsey	davlat ta`lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta`lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqr, soqalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta`lim olishini ta`minlaydi
7.	Kasb-hunar kolleji	tegishli davlat ta`lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqr rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi
8	Didaktika	grekcha didaktikos so'zidan olingan bo`lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Didaktika bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi. Pedagogik nazariyaning ta`limotiga ko'ra didaktika va metodika bir-biri bilan uzviy bog'liq
9	Kasb-hunar ta`limida umumdidaktik tamoyillar	onglilik va faollik, ilmiy va tizimlilik, nazariya va amaliyot birligi, ta`lim – tarbiya birligi, ko'rsatmalilik
10	Ta`lim va tarbiya birligi	ta`lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash sodir bo'ladi. Masalan: gazlamadan biror buyumni bichishni o'rgatishda, buyumni bichish bo'yicha bilimlar, ko'nikmalar va

		malakalar hosil qilish bilan birga gazlamadan tejamkorlik bilan foydalanshini o'rgatish bilan iqtisodiy tarbiya shakllanadi
11	<i>Ta`limning ilmiyligi</i>	bu tamoyilni amalga oshirish o'quvchilarga ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, fanning eng yangi yutuqlarini hisobga olgan texnikaviy ma`lumotlarni etkazishdir
12	<i>Ta`limda tizimlilik va izchillik</i>	tizimlilik va izchillik ta`limda ma`lum mantiqiy izchillik bo'lismalarini bildiradi, chunki bilimlar vorislik xarakteriga ega. Ular o'zidan oldingi materialiga asoslanadi
13	<i>Nazariya va amaliyot birligi</i>	nazariyani amaliyot bilan bog'lab olib borish eng asosiy va etakchi tamoyildir. Kasb-hunar ta`limi jarayonida ko'pincha nazariyani amalda qo'llash uchun sharoit yaratiladn. O'quvchilar amaliy faoliyatga tayyorlash, nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi
14	<i>YOsh individual xususiyatlarni hisobga olish</i>	kasb ta`limi bo'yicha o'quv materialini mazmuni fan va texnik taraqqiyotini hozirgi darajasiga mos ravishda o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutish kerak.
15	<i>Ta`limning politexnik xususiyatga egaligi</i>	nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'tishda politexnik tamoyil asosiy rolni o'ynaydi. Kollej ustaxonalaridagi kasb ta`limining mazmuni, ya'ni mashinalar, mexanizmlar, asboblarning tuzilishi, ishlash printsiplari, shuningdek, texnologik jarayonlar, mehnat usullari va amaliy mag'shulotlarning bajarish yo'llari haqidagi texnikaviy ma`lumotlar politexnik xarakter kasb etadi.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

7. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. 63 b.
9. Q.T.Olimov, O.A.Abduquddusov, L.P.Uzoqova, M.M.Axmedjanov, D.F.Jalolova. Kasb ta`limi uslubiyoti: O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2006 – 160 b.
10. SHaripov SH.S. va b. Kasbiy pedagogika (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006. 56 b.
11. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006. 56 b.
12. O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar, ixtisosliklar. Tasniflagichi. -Toshkent, 2004. 48 b.
7. Bo'riev X.CH. Sabzavot ekinlari selektsiyasi va urug'chiligi. Toshkent, 1999.
8. Atabaeva X.N.O'simlikshunoslik, Toshkent, 2003.
9. Xoldorov O'.X. Qishloq xo'jalik asoslarini o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1991.
10. Xoldorov O'.X. Qishloq xo'jalik mexnati, Toshkent, 1982.
11. Mutalov K.A., Mamedov K.A., SHerdonov Z.A., Qishloq xo'jalik fanlarini o'qitish metodikasining asoslari. Tyu:2004
12. Musaev B.S. Agrokimyo. T.:2001.
13. SHeraliev A.SH. Umumiy va qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. Toshkent, CHo'lpon nashriyoti, 2006 .268 b.
14. SHeraliev A. Umumiy va qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. Toshkent, "Talqin" nashriyoti, 2008.
15. 16. SHeraliev A. Texnik ekinlar kasalliklari. Toshkent, 2006.
16. SHeraliev A., Raximov U.X. O'simliklar immuniteti, Toshkent, 2007
17. SHeraliev A., O'lmasbaeva R. Qishloq xo'jalik ekinlari karantini, Toshkent, 2007. 179 b.
18. Ergashev A.E., SHeraliev A., X.A. Suvonov., Ergashev T.A. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent, 2009

Qo'shimcha adabiyotlar

11. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta`limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2004. -127 b.
12. Xodjabaev A.R., Ikromov A.I. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlik mahoratini shakllantirish.- T.: 2004, -174 b.
13. Xodjabaev A.R., Kosimov SH.U. Amaliy kabiy ta`limni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi. –T., 2007, 148 b.
14. Avazboev O. Kasb ta`limi metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma. 56 b.

- 15.Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Kasb ta`limi metodikasi fanidan kurs ishlari.
Metodik qo'llanma. -T.: TDPU, 2002. 32 b.
- 16.Bato`shev S.YA. Professional'naya pedagogika. –M.: Professional'noe obrazovanie,1997.-511 s.
- 17.Simushina L.G., YAroshenko N.G. Soderjanie i metodo` obucheniya v srednih spetsial'no`x uchebno`x zavedeniyax. -M.: Vo`sshaya shkola, 1990.- 273 s.
- 18.Skakun V.A. Prepodavanie obhetexnicheskix i spetsial'no`x predmetov. -M.: Vo`sshaya shkola, 1998. – 256 s.
- 19.www.ziyonet.uz
- 20.www.pedagog.uz
- 21.www. inter-pedagogika.ru
- 22.www. scholar.urs.as.ru/courses/Technology/intro. html
- 23.www. pedsovet.org

